



ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2019-yil, 5-son (117)

TABIIY FANLAR SERIYASI

Kimyo. Biologiya. Geografiya.

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor
H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M. X. ASHUROV	- O'zFA akademigi
T. M. MO'MINOV	- O'zFA akademigi
SH. A. ALIMOV	- O'zFA akademigi
S. N. LAKAYEV	- O'zFA akademigi
T. RASHIDOV	- O'zFA akademigi
N. N. NIZAMOV	- f-m.f.d., professor
A. S. SOLEEV	- f-m.f.d., professor
I. A. IKROMOV	- f-m.f.d., professor
B. X. XO'JAYAROV	- f-m.f.d., professor
I. I. JUMANOV	- f-m.f.d., professor
E. A. ABDURAXMONOV	- k.f.d., professor
N. K. MUXAMADIYEV	- k.f.d., professor
J. X. XO'JAYEV	- b.f.d., professor
Z. I. IZZATULLAYEV	- b.f.d., professor
Z. F. ISMAILOV	- b.f.d., professor
X.K. XAYDAROV	- b.f.d., professor
S. B. ABBOSOV	- geogr.f.d., professor
L. A. ALIBEKOV	- geogr.f.d., professor
A. A. ABULQOSIMOV	- geogr.f.d., professor
X. SHODIYEV	-Professor(Canada)
L. SOBIROV	- f-m.f.d., professor
X. X. XUDOYNazarov	-t.f.d., professor

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENTS

KIMYO / ХИМИЯ / CHEMISTRY	
Shakarova D.Sh., Begumkulova Ch.K., Xolmuminov A.A. Zol-gel jarayonida fibroin-kremnezem bionanogibrid materiallarining shakllanishi	6
Egamqulova L., Hayitova M., Eshmurodova G., Tillayev S. Diatsetatselluloza-kremnezem nanokompozitsion materiallar olish uchun optimal sharoit tanlash	10
J.E. Ruziyev, E.A. Ruziyev Yer osti ichimlik suvlarining mineral tarkibi va radioaktivligini (Rn-222 izotopi bo'yicha) analitik baholash	13
Шарипов Ш.Р., Зиёев Б.Т., Рузиев И.Х. Химическое инициирование полимеризации этакодидиметилэтилэтинелата в растворе	17
Рузиев И.Х., Журакулов Ш.Н. Физико-химические закономерности хроматографического удерживания некоторых производных ряда изохинолина	19
Собиров М.М., Рахмонов Ш.В., Урозов Т.С., Асланов А. Изучение кинетики разложения серосодержащей фосмуки азотной кислотой	24
Shukurov J.S., Tog'asharov A.S., Tuxtaev S., Nasimov A.M., Mamatov A.S. Samarali defoliant olish texnologiyasini fizik kimyoviy asoslash	27
Сатторов Л.Х., Курбанов А.А., Хидиров Ж.Ч., Абдиразаков А.И., Аралов Г.М., Иботов О.К., Абдурахманов Э. Процессфилтрации промышленных газов от пыли базальтовым фильтром	31
Tilyabov M.U., Buvrayev E.R., Kadirova Sh.A., Normurodov Z.N., Zoxidov Q.O. 3d-metall benzoatlari va alanin ishtirokida aralash ligandli kompleks birikmalar	37
Raximov S.B., Smanova Z.A. Metall ionlarini spektrofotometrikaniqlashda yangi organik reagentlarning faol funksional guruhlarini o'rganish uchun kvant kimyoviy hisoblashlarning ahamiyati	41
Maxmudov M.B., Xalilov Q.F., Muxamadiev N.Q., Dustov S.I. Gomoveratrilamin bilan finilalanin o'rtaidagi kondensatlanish va sikllanish reaksiyalari mexanizmini kvant-kimyoviy o'rganish	45
Сайфиева М.С., Раббимова Г.Т., Мухамадиев Н.К., Дустов С.И. Определение маркеров микроорганизмов методом газожидкостной хроматографии	50
Sapaev F.A., Xoliqov T.S., Bo'rixonov B.X., Tojimuhamedov H.S. p-brom-, p-nitrobenzoy kislotalar natriyli tuzlarining xlorisrka kislotasi efirlari bilan reaksiyasi	53
Анваров Т.У., Мурадов К.М., Мурадова Д.К. Синтез бутиронитрила в присутствии промышленного катализатора НТК-4	55
Xurramov E.N., Abdushukurov A.K., Bo'riyeva D.M. Glikol kislotasining arilammoniyli tuzlarini olish	58

Эшкابيлова М.Э., Бегимкулов Ж.Н., Сидикова Х.Г., Насимов А.М. Активность и селективность оксидов металлов в процессе окисления горючих газов	61
Турсункулов О.М., Ибрагимова Э.М., Улугмурадов С.Э. Процессы синтеза молибденовых наночастиц методом электрохимического анодирования	65
Бегматов Р., Абдурахманов И.Э., Абдурахманов Э. Влияние состава и содержание растворителя на кинетику процесса гидролитической поликонденсации тетраэтоксисилана	69
Жураева С.Б., Нармаева Г.З., Аронбаев С.Д., Аронбаев Д.М. Сопоставительная характеристика методов определения перекиси водорода	73
Bozorov Kh., Jiangyu Zhao, Numonov S, Elmuradov B., Trobov Kh.T., Sagdullaev Sh.Sh., Askarov I.R., Haji A. Aisa C-acylation of tricyclic 5,6-disubstituted thieno[2,3-d]pyrimidin-4-ones bearing an activated methylene group	79
Bobojonov J.Sh., Turabov N.T. Fotometrik aniqlash usuli bilan palladiy(ii)ni 6-sulfo- β -nitroza - α - naftol yordamida hosil qiladigan kompleksning optimal sharoitlarini o'rganish	83
Жураева С.Б., Нармаева Г.З., Уткиров У., Рахмонова М., Аронбаев С.Д., Аронбаев Д.М. Валидация титрометрических методов определения перекиси водорода в фармацевтической продукции	87
Аскаров К.А., Юсупова С.С., Мусулманов Н.Х., Аскарова Ф.К., Киямова Д.Ш. Способы выделения и модификации природных порфиринов	91
Нурбаев Х.И., Рузиев Э.А. Получение бис-продуктов путем реакций алкилирования	96
Аликулов Р.В., Тураев Х.Х., Суюнов Ж.Р., Гелдиев Ю.А. Строение 12-деметилрегелинона	99
Musulmonov N.X., Sidikova G.A., Qodirov O.Sh. Sanoat chiqindilaridan etilatsetat sintezi jarayonining kinetik qonuniyatlari	102
Mirzayev Sh.E., Buronov A.O., Isaqulova M., Begimkulova Sh., Zohidov Q.O., Nasimov A.M., Haydarov G' Sh.. Optik kimyoviy sensorlar xossalriga zol-gel jarayonida qo'llanilgan katalizator tabiatining ta'siri	105
Yettiboeva L.A., Abduraxmanova U.K., Matchanov A.D., Turg'unov D.E. L-(-)- mentolning supramolekulyar komplekslari va ayrim fizik kimyoviy konstantalari	109
Кенжаев Д.Р., Тураев Х.Х., Джалилов А.Т., Бекназаров Х.С. Дифференциальной сканирующей калориметрический исследования фосфорсодержащих олигомеров	115
Орипов Э., Тухсанов Ф. Некоторые реакции α -окси-и α -диметиламиноформилидин – 2,3-полиметил-3,4-дигидрохиназолин-4-онов	119

Сатторов Л.Х., Курбанов А.А^I, Хидиров Ж.Ч., Абдиразаков А.И., Аралов Г.М., Абдурахманов Э Геохимические и минералогические особенности базальтов для выпуска разного ассортимента продукции	126
BIOLOGIYA / БИОЛОГИЯ / BIOLOGY	
Шафаг Мехджан Кызы Оруджева Деградация природных ландшафтов Нахчыванской Автономной Республики Азербайджана	130
Kuziyev M.S., Xurramova M.H. Echiklar katta qorinidagi ayrim biokimyoviy jarayonlarga va mikroorganizmlar soniga dag'al ozuqalarning ta'siri	135
Mitanov A., Rajamuradov Z.T. Mayda shoxli kavshovchilar kuyikishini sinxronizatsiyalashda gormonal preparatlardan foydalanish	138
Eshboyev F.B., Yusupova E.G., Pyakina G.A., Mejlumyan L.G., Ziyavitdinov J.F., Ishimov U.J., Azimova Sh.S. Soya oqsilini ajritish va aminokislotalar tarkibini o'rganish	141
Usmanova F.A., Fayziyeva Z.Sh., Isamammedova D.R., Mamatova Z.A., Abdullayeva G.T., Asrarov M.I. Mitoxondriya atf ga bog'liq K ⁺ kanali faollashuvini rutan, getasan va euforbin polifenollari ta'sirida boshqarish	145
Ashirov O.N., Sasmakov S.A., Abdurahmonov J.M., Xasanov Sh.Sh., Sagdullayev T.X., Azimova Sh.S. Transfer vektorlarni pichia pastoris achitqisiga kiritishning elektroporatsiya sharoitlarini optimallashtirish	149
GEOGRAFIYA / ГЕОГРАФИЯ / GEOGRAPHY	
Sabirova N.T. Landshaftlarni muhofaza qilishda ekoturizmning ahamiyati (aydar-arnasoy ko'llar tizimi misolida)	153
Халбеков К.А., Мягков С.С. Анализ гидрохимического режима реки Зеравшан	157
Nazarov X.T., Ibragimov L.Z., G'aniev Z.A Tabiiy resurslar asosida noan'anaviy energiya ishlab chiqarish imkoniyatlarini o'rganish	160
Sherxolov O.I. Navoiy viloyati aholisining milliy tarkibi	164

<i>Yarashev Q.S., Eshquvvatov B.B.</i> Konussimon yoyilma landshaftlarni melioratsiyalashning asosiy prinsiplari	167
<i>Abbasov S.B., Meliev B.A., Yarashev Q.S., Eshmamatov E.D.</i> Buyuk ipak yo‘li: o‘tmish, bugun va kelajak	170
<i>Valieva Sh.I.</i> Samarqand viloyatining agrotoponimlari va ularning ahamiyati	173
EKOLOGIYA / ЭКОЛОГИЯ / EKOLOGY	
<i>Eshqobilov Sh.A., Shakarov N.J., Ergashev I.Sh., Nomirov M.N.</i> Atrof- muhitga qurilish jarayonlarining ta’siri	176
<i>Холикулов Ш.Т., Ортиков Т.К., Пардаев С.Б.</i> Использование органоминеральных отходов при приготовлении компостов	178
<i>Izzatullayev Z.I., Shodmonov F.A.</i> Kattaqo‘rg‘on shahri va uning atrofi maishiy chiqindilarining atrof-muhitga ta’sirini baholash va qayta ishlash muammolari	184
UNIVERSITET HAYOTIDAN	

UDK: 595.787+547.963

**ZOL-GEL JARAYONIDA FIBROIN-KREMNEZEM BIONANOGIBRID
MATERIALLARINING SHAKLLANISHI****Shakarova D.Sh.^{1,3}, Begumkulova Ch.K.², Xolmuminov A.A.³**¹*O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo Instituti,*²*Toshkent davlat texnika universiteti,*³*O'zbekiston Milliy universiteti*

E-mail: dilshoda.shakarova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada tetraetoksisilan nanozoli va ipak fibroini asosida fibroin-kremnezem bionanogibrid materiallarini zol-gel jarayonida shakllantirish, jarayonning optimal sharoitlarini aniqlash hamda olingan bionanogibridlarning fizik-kimyoviy xossalari o'rganildi. Olingan fibroin-kremnezem bionanogibridlarning strukturasi IQ-spektroskop usuli yordamida va ularning morfologiyasi skanlovchi elektron mikroskopida analiz qilindi. Rentgenografik tadqiqotlar natijalari bionanogibrid namunalarning amorf tavsifga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: fibroin, tetraetoksisilan, zol-gel jarayon, fibroin-kremnezem bionanogibrid, silikagel.

Формирование фиброин-кремнеземных бионаногибридных материалов в золь-гель процессе

Аннотация. В этой статье приведены результаты формирования фиброин-кремнеземных бионаногибридных материалов на основе нанозоли тетраэтоксисилана и фиброина шелка в золь-гель процессе. Определены оптимальные условия процесса получения бионаногибридов на основе фиброина и кремнезема. Изучены структурные характеристики полученных бионаногибридов методами ИК спектроскопии, электронной микроскопии и рентгенографии. Показано, что бионаногибриды характеризуются аморфными состояниями.

Ключевые слова: фиброин, тетраэтоксисилан, золь-гель процесс, фиброин-кремнеземный бионаногибриды, силикагель.

Formation of fibroin-silica bionanohybride materials in sol-gel method

Abstract. This article presents the results of the formation of fibroin-silica bionanohybrid materials on the basis of fibroin silk and nanosol of tetraethoxysilane in the sol-gel process. The optimal conditions of the process of obtaining bionanohybrid materials on the basis of fibroin and silica are determined. The structural characteristics of the obtained bionanohybrid materials were studied by IR spectroscopy, electron microscopy and XRD. The results of XRD patterns showed that bionanohybrid materials were amorphous.

Keywords: fibroin, tetraethoxysilane, sol-gel method, fibroin-silica biocomposites, silica.

Kirish

Organik-noorganik gibridlarni istiqbolli namoyondalaridan bo'lgan, biopolimerlar (DNK, RNK, oqsillar, polisaxaridlar) va noorganik (minerallar, fosfatlar, karbonatlar, oksidlar va sh.k.) moddalarning kimyoviy bog'lanishlari orqali shakllanadigan "bionanogibridlar" bugungi kunda jadal rivojlanayotgan gibridlar sinfining yaqqol vakili sifatida zamonaviy materialshunoslikda katta salmoqqa ega bo'lgan, o'zida ham tizimli, ham funksional xossalarni namoyon qiladigan murakkab tarkibli va tabiatli materiallar hisoblanadi [1-2]. Bunday bionanogibridlarni olishda zol-gel jarayoniga asoslangan texnologik usullar o'ta samarali bo'lib, ular vositasida shakllantirilgan nano-, mikro-, mezoo'lchamli strukturalar yorqin sirtiy va biofaollikni namoyon qiladigan materiallar sifatida iqtisodiyotning turli sohalariga amaliy qo'llash uchun tavsiya etish maqsadida jiddiy ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bois tabiiy polimerlar asosida bionanogibrid materiallar olish zamonaviy materialshunoslik yo'nalishidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada tadqiqot ob'ekti sifatida mahalliy va ikkilamchi xom ashyolardan foydalanish, ular asosida ma'lum maqsadlarga mo'ljallangan bionanogibrid materiallar olish va amaliyotga tavsiya etish o'ta muhimdir. Jumladan, bionanogibridning organik tashkil etuvchisi sifatida tabiiy ipak fibroini oqsilini tanlash ko'p jihatdan asosli bo'lib, uni ko'plab noorganik prekursorlar (elementlar, birikmalar) bilan birikib, turli tabiatli gibrid materiallar hosil qilish imkoniyati mavjuddir. Masalan, Amerika va Angliya olimlari

o'rgamchak va tut ipak qurti fibroini va silikagel birikmasidan foydalanib bir qator bionanogibrid materiallar olishga erishgan. Bunday materiallarni tibbiyot sohasida, ayniqsa, kontakt linzalar, tish davolashda to'ldiruvchilar va suyakni o'sishiga yordam vositalar sifatida qo'llashda yuqori samaralar berishi ko'rsatib berilgan [3-5]. Pekin texnologiya institutida ipak fibroinining noorganik prekursorlar ishtirokida erimaydigan plyonkasi olingan va uni noyob deformatsion xossali bioqo'shimchalar sifatida amaliyotga tavsiya etish imkoniyatlari o'rganilgan [6]. Dongua universiteti olimlari esa ipak fibroinini g'ovakli silikagel bilan (SiO_2) zol-gel jarayoni asosida fibroin-silikagel nanogibridini olishgan hamda uning asosida paxta va neylon matolari yuzasini bo'yashning original usulini ishlab chiqishgan [7].

Mahalliy ipak fibroini asosida ham maxsus xossali materiallar, jumladan gibrid birikmalarning olinishi bo'yicha ham bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, hozirda regenerativ tibbiyot uchun gibrid yupqa plyonkalar, gemo- va enterosorbentlar, stomatologiya va ortopediya uchun gibrid to'ldirgichlar, xromotografiya uchun gibrid sorbentlar yaratish bo'yicha ma'lum ilmiy natijalarga erishilgan. Endigi bosqichdagi tadqiqotlar nanogibrid materiallar yaratishga qaratilmoqda va bu borada "bionanogibrid" materiallarga bo'lgan qiziqish juda katta bo'lib, mazkur maqola ham shu yo'nalishda olib borilgan tadqiqot natijalarining ilmiy muhokamasiga bag'ishlangandir.

Tadqiqot obyektlari va usullari

Asosiy tadqiqot obyektlari sifatida tabiiy organik birikmalardan ipak fibroini (FB) va noorganik birikmalardan tetraetoksisilan (TEOS) tanlandi hamda ular asosida noyob bionanogibrid materiallar olish uchun zol-gel usuli takomillashtirildi. Tadqiqot olib borish uchun dastlab fibroin eritmasi va tetraetoksisilan nanozoli (TNZ) tayyorlab olindi.

Fibroin eritmasini tayyorlash. Toza ipak pillasidan yuzasi 1 sm^2 etib qirqilgan bo'lakchalardan 100 g olib, 1000 ml hajmdagi Na_2CO_3 (0,5 mass. %) eritmasida qaynatildi. Bunda bo'lakchalar tarkibidagi seritsin oqsili, yog' va mumlar eritib ajratib olindi. Erimay qolgan fibroin tolalari bir necha bor distillangan suv bilan yuvildi va eritma $\text{pH} = 7$ bo'lgandan so'ng xona haroratida quritildi. Natijada fibroin tolalari ajratib olishga erishildi va ular asosidagi ishchi eritma quyidagi tartibda tayyorlandi [8]. 50 g fibroin tolasi 500 ml hamdagi 9,0 M LiBr erituvchisida 75°C da 2 soat mobaynida mexanik aralashtirib turilgan holda kristall strukturalarini parchalab eritma amorf holatiga o'tkazildi, ya'ni fibroinni molekulyar-dispers tizimi hosil qilindi. Hosil bo'lgan eritmada fibroinni LiBr ionlari qurshovuda bo'lishi, undan to'g'ridan-to'g'ri zol-gel usulida gibridlar olish imkonini bermaydi. Shu bois LiBr ionlaridan xalos bo'lish maqsadida ion dializi o'tkazildi. Bunda dializat sifatida distillangan suv qo'llanildi va jarayon har uch soatda dializatni yangilab turgan holda $\text{pH} = 7$ ga yetguncha davom ettirildi. Tarkibidan LiBr ionlari chiqib ketgandan so'ng eritma fibroinni suvdagi kolloid eritmasiga aylandi [9-10]. So'ng zol-gel usulida gibridlar olish uchun fibroinni 3 % kolloid eritmasidan foydalandi.


Tetraetoksisilan nanozolini olish. Mazkur jarayon gidroliz va polikondensatsiya reaksiyasini birgalikda borishiga asoslangan bo'lib, uni amalga oshirishda quyidagi nisbatlarda reagentlar tanlandi: 6 ml [TEOS]: 1,5 ml [H_2O]: 0,3 ml 0,02 n HCl [HCl] : 1,8 ml [$\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$]. Jarayonni tezlashtirish va nanozollar hosil qilish uchun aralashmaga 15 min ultratovush ta'sir ettirildi. So'ng aralashma 2,5 soat davomida xona haroratida aralashtirib turildi hamda reaksiya paytida hosil bo'layotgan yengil uchuvchan qo'shimcha moddalar vakuum yordamida surib ajratib olindi. Natijada reaksiya mahsuli sifatida nanozol shakllandi.

Fibroin – kremnezem bionanogibrid material olish. Fibroinni kolloid eritmasi va kremnezem nanozolidan turlicha: 1:1, 1:2, 1:3, 1:4, 1:5 nisbatlarda aralashmalar tayyorlandi. Katalizator sifatida ammiakning 0,5 %, 1 %, 2 % eritmalaridan foydanildi. Reaksiya quyidagi tartibda amalga oshirildi: Kolbaga fibroinni kolloid eritmasi va kremnezem nanozoli solindi hamda 10 min ultratovush ta'sir ettirildi va gomogen aralashma hosil bo'ldi. So'ngra aralashmani mexanik aralashtirib turgan holda, unga ammiak eritmasi tomchilab solib turildi va aralashtirish jarayoni yanada jadallashtirildi. Hosil bo'layotgan nanogibrid fazani yetilishi uchun aralashma Petri idishiga solinib, xona haroratida quritildi. Natijada olingan fibroin-kremnezem bionanogibrid materiallarning tuzilishi va xossalari fizik-kimyoviy tadqiqot usullari (IQ spektroskopiya, elektron mikroskopiya, rentgenografiya) yordamida tadqiq qilindi.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi

IQ spektroskopik tadqiqotlar fibroin, silikagel, bionanogibridlar FB:TNZ (4:1) va FB:TNZ (3:1) larni qiyosiy taqqoslash prinsipida o'tkazildi. 1-rasmda IQ spektrlar keltirilgan va 1-spektr tahlil etilganda fibroin uchun tavsifli 3440 cm^{-1} to'lqin sonida H-bog'ni o'z ichiga olgan OH- va NH-guruhlar tebranishiga xos yutilish polosalari hamda $2900-2910\text{ cm}^{-1}$ to'lqin sonida CH guruhlar valentli tebranishiga oid ikkita polosa namoyon bo'lishi kuzatilgan. Oqsillarga xos amid-I va amid-II orasida Fermi rezonansi tufayli vujudga kelgan $1650-1417\text{ cm}^{-1}$ dagi yutilish polosalari amid guruhlar valentli tebranishlarini ifodalagan. Oqsil konformatsiyasini ifodalovchi amid-I, amid-II, amid-III spektrlari $1640-1625$, $1524-1515$, 1265 cm^{-1} va 1630 , 1530 , 1265 , 700 cm^{-1} to'lqin sonlarida kuzatilgan. Shuningdek, 2, 3 va 4-spektrlarda Si-O-Si va Si-O-C valent tebranishlar yutilish polosalari $1090-1020\text{ cm}^{-1}$ larda yoqqol namoyon bo'lgan. Ushbu spektrlar adabiyotlardagi spektrlardan bir oz farq qiladi va ular zol-gel jarayon tufayli fibroin va kremnezem asosida yangi faza, ya'ni gibrid material hosil bo'lganligidan dalolat beradi.


Spektrlar tahlili fibroinning amidli ko'rinish sohalarida 1650 cm^{-1} va silanol gruppalar (kremnezem to'ri) 960 cm^{-1} ko'rinish sohalaridagi yutilish polosalarining o'zgarishidan, amid va silanol gruppalar o'rtasida vodorod bog'lar hosil bo'lishi asosida fibroin kremnezem bionanogibrid shakllanganligini tasdiqlaydi.



1-rasm. Namunalar IQ spektrlari: 1- fibroin; 2- silikagel; 3 - bionanogibrid FB:TNZ (4:1); 4 – bionanogibrid FB:TNZ (3:1).


Fibroin-kremnezem bionanogibrid asosidagi plyonkaning dastlabki prekursorlarning, ya'ni fibroin va tetraetoksilaning FB:TNZ (3:1) nisbatdagi namunaning skanirlovchi elektron mikroskopda olingan morfologik ko'rinishi tavsiri 2- rasmda keltirilgan. Unda bionanogibrid plyonka yuzasida kichkina sinishlar borligi, lekin SiO_2 zarrachalarning oq dumaloq granular ko'rinishida fibroin matritsasi ichida tarqalganligini ko'rish mumkin.

Namunalar difraktogrammalari. Namunalarning morfologiyasi rentgenografik tadqiqotlar asosida o'rganilgan va olingan natijalar difraktogrammalar ko'rinishida 3 - rasmda keltirilgan. Barcha namunalar difraktogrammalari uchun $2\theta = 10 - 40^\circ$ sohada keng platoni mavjud bo'lishi tavsiflidir. Fibroin difraktogrammasi (a) uchun $2\theta = 16 - 20^\circ$ intervalda bir oz darajada susaygan ikkita maksimum mavjuddir: kuchsiz refleks balandligi $2\theta = 20^\circ$ da va yanada samaraliroq refleks $2\theta = 22 - 23^\circ$ da kuzatilgan. Bionanogibrid FB:TNZ (3:1) difraktogrammasi (b) da 2θ ning keng intervalida, ancha yuqoriroq sochilishga ega lekin mohiyatan amorf sochilishga xos refleks kuzatilgan.



2–rasm. Fibroin:kremnezem (3:1) bionanogibrid plyonka yuzasining skanirlovchi elektron mikroskop yordamida olingan tasviri.

Shuningdek, bionanogibrid FB:TNZ (4:1) ning difraktogrammasi (c) ham nisbatan uncha katta bo'lmagan sochilish samaradorligining oshishi difraksiya burchagini $2\theta=18-24^\circ$ oralig'ida bo'lishi kuzatilgan. Bu kabi keng reflekslar asosan kristallik darajasi va tartiblanishi kichik bo'lgan strukturalarga tegishlidir. Ushbu b - c difraktogrammalar sochilish samaradorligini pasayishi fibroin va kremnezemni reaksiya ta'sirlashishi tufayli amorflashgan birikmalar shakllanlanganligidan dalolat beradi.



3-rasm. Namunalarning difraktogrammalari: a – fibroin; b – bionanogibrid FB:TNZ (3:1); c – bionanogibrid FB:TNZ (4:1).

O'z navbatida fibroin–kremnezem asosli bionanogibrid spektrlarida yuqoridagi ko'rinish sohalariga yaqin sohalar yaqqol ko'ringani va bu o'z navbatida sintez uchun sof fibroin ishlatilganligidan va kremnezem matritsasi fibroin makromolekulasi bilan o'zaro bog'lanib yangi biofaol nanogibrid material olinganini ko'rsatadi.

Xulosa

Zol-gel jarayoni orqali fibroinni organik prekursor sifatida qo'llab fibroin-kremnezem bionanogibrid material sintez qilishga erishildi va reaksiya jarayonni amalga oshirishning qulay sharoitlari aniqlandi, ya'ni fibroin-tetraetoksisilan nanozoli nisbati 3:1; katalizator 1 % NH_4OH ni 2 ml bo'lishini tajribalar asosida topildi. Olingan fibroin-kremnezem bionanogibrid materiallarning strukturaviy tavsiflari qiyosiy taqqoslash asosida o'rganildi.

Adabiyotlar

1. Lai S. M., Artur-M. Yang J., Chen W.C. The Properties and preparation of chitosan/silica hybrids using sol-gel process // Polymer-plastics Technology and Engineering. – 2006. – V.45 – P. 997 – 1003.

2. Hou A, Chen H. Preparation and characterization of silk/silica hybrid biomaterials by sol-gel crosslinking process. *Materials Science and Engineering: B* 2010 3/15; 167(2): 124-128.
3. Foo C.W.P., Bini E., Huang J., Lee S.Y., Kaplan D.L. Solution behavior of synthetic silk peptides and modified recombinant silk proteins. / *Applied Physics A-Materials Science & Processing*. 2006. - V.82, P.193-203.
4. Kaplan D.L. Silk. / *Encyclopedia of Polymer Science and Technology*. -2004.-V.II, P.841-850.
5. Laetitia L.S. Canabady-Rochelle, David J. Belton, Olivier Deschaume, Heather A. Currie, David L. Kaplan, and Carole C. Perry. Bio-inspired Silicification of Silica-binding Peptide-Silk Protein Chimeras: Comparison of Chemically and Genetically Produced Proteins. *Biomacromolecules*. 2012 Mar 12; 13(3): 683–690.
6. Li, M. Z., Zhang, C. S., Lu, S. Z. et al., Study on porous silk fibroin materials. *Polymers for Advanced Technologies*, 2002, 13, p.605–610.
7. Wenbin Li, Lingli Zou, Xingpin Zhou, Baohua Zhang, Xiaqin Wang, Dajun Chen. Surface Dyeability of Cotton and Nylon Fabrics Coated with a Novel Porous Silk Fibroin/Silica Nanohybrid. *Journal of Applied Polymer Science*, 2007. Vol. 106, 1670–1676.
8. Холмуминов А.А., Бекмирзаева Г.З., Юлдашев М.Х., Кабулов Б.Д. Тонкослойная хроматография серицина, жировосков и фиброина натурального шелка // *Хим. природн. соед.*, 1995. - № 4. - С. 588-590.
9. Akiyoshi Ajisawa Dissolution of silk fibroin with calcium chloride/ethanol aqueous solution. *J.Sci.Jpn.* 1998. 67 (2), p.91-94.
10. Камилова С.Д. Набухание и растворение фиброина в растворах хлористого кальция // *Шелк*. 1991. № 6. С.16-18.

UDK: 547.458.82

DIATSETATSELLULOZA-KREMNEZEM NANOKOMPOZITSION MATERIALLAR OLISH UCHUN OPTIMAL SHAROIT TANLASH

Egamqulova L., Hayitova M., Eshmurodova G., Tillayev S.

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ishda diatsetatselluloza, poliakrilonitril singari organik polimerlar va ularning kremnezem bilan nanokompozitlari asosida gaz sezgir materiallar olish uchun optimal sharoit tanlash; turli erituvchilar ishtirokida yuqqa qatlam ko‘rinishidagi hamda kukunsimon materiallar olish, ularga termik islov berish natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: diatsetatselluloza, poliakrilonitril, kremnezem, nanokompozit, gazsezgir material, sensor, metalloksidlari.

Выбор оптимальных условий для получения материалов клеточной наноконпозиции диацетцеллюлозы

Аннотация. В работе приведены результаты получения газочувствительных материалов на основе органических полимеров: диацетатцеллюлоза, полиакрилонитрил и их наноконкомпозитов с кремнеземом. Подобраны оптимальные условия и растворители для получения тонких пленок и порошкообразных материалов.

Ключевые слова: диацетатцеллюлоза, полиакрилонитрил, кремнезем, наноконкомпозит, газочувствительный материал, сенсор, оксиды металлов.

Selection of optimal conditions for obtaining materials. diacellulose cellulose nanocompostion

Abstract. The paper presents the results of the preparation of gas sensitive materials based on organic polymers: cellulose diacetate, polyacrylonitrile, and their nanocomposites with silica. Optimal conditions and solvents for the production of thin films and powdery materials were selected.

Keywords: cellulose diacetate, polyacrylonitrile, silica, nanocomposite, gas sensitive material, sensor, metal oxides.

So'nggi yillarda atmosfera havosi va turli texnologik obyektlar havosi, chiqindi gazlari tarkibidan zaharli, portlovchan gazsimon birikmalarni aniqlash uchun kimyoviy sensorlar ishlab chiqish borasidagi tadqiqotlar jadallik bilan olib borilmoqda [1, 2]. Turli gazlar aralashmasidan tegishli komponentni selektiv aniqlashni ta'minlash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [3]. Ushbu tadqiqot ishida kimyoviy sensorlarning ishchi sezgir elementi uchun turli polimer kompozitlar asosida selektiv gaz sezgir materiallar olish borasidagi tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Tadqiqotning maqsadi kimyoviy sensorlar uchun DAS, PAN, TEOS hamda ularning turli nisbatlardagi aralashmalari asosida nanokompozit materiallar sintez qilish optimal sharoitlarini tanlash belgilangan.

Tadqiqot obyekti sifatida respublikamizda ishlab chiqariladigan diasetat sellyuloza, poliakrilonitril polimerlari; TEOS va ularning turli noorganik birikmalar bilan hosil qilgan gibrid nanokompozit materiallari tanlandi.

Tadqiqotning predmeti ushbu materiallar asosida gaz sensori uchun sezgir qatlam olish optimal sharoitlarini tanlash, turli gazlarga nisbatan selektiv qatlamlar olish qonuniyatlarini o'rganishdan iborat.

Tajribaviy qism

DAS/kremnezem nanokompozision materialni olish uchun erituvchi tanlash. Tajribalarda "Farg'onaazot" zavodida tayyorlangan DAS xomashyosidan foydalanildi. Diatsetilselluloza – oq rangli kristall holdagi polimer modda bo'lib, kuchli qutblangan guruhlarning mavjudligi sababli juda qutblangan erituvchilardagina eriydi va ushbu eritmalar sovutilganda gel hosil qiladi. Tajribalarda DAS ning ushbu xossasidan foydalanib, turli erituvchilar: dimetilformamid (DMFA), dimetilsulfooksid (DMSO), konsentrlangan sulfat kislota, turli spirtlar: etil, propil, izopropil, butil, pentil spirtlari; dioksan, sirka kislota, asetonitril singari erituvchilar muhitida erishi o'rganildi.

Buning uchun aniq massada (1 %, 2 %, 5 % ga nisbatan) texnik tarozida tortib olingan DAS namunalari mos ravishda turli erituvchilarda erishi tekshirildi. Aralashmalar 2-4 soat davomida davriy ravishda aralashtirish, tindirish orqali ularning eruvchanligi o'rganildi. Yuqorida keltirilgan muhitlarning barchasida TEOS (tetraetilortosilikat yoki tetraetokisilan) ning ham eruvchanligi o'rganildi. Bunda TEOS ko'rsatilgan erituvchilarning barchasi bilan istalgan nisbatda aralashishi mumkinligi kuzatildi.

Konsentrlangan sulfat kislota muhitida temperatura ta'sir ettirilmasa-da tezda erib ketdi, lekin bu erituvchidan foydalanish DAS ning gidroliziga olib keladi. Shuning uchun DMFA va DMSO erituvchilaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi. DMSO muhitida 80 °C da 15 minut davomida qizdirildi. DMFA muhitida esa 30 °C da 10 minut qizdirildi. Tajribalarda DMSO ga nisbatan DMFA tez va oson erishi kuzatildi. Olingan eritmalar shaffof bo'lib, sovutilganda ma'lum vaqtdan so'ng gel hosil bo'ldi.

Quyidagi 1-jadvalda DAS, TEOS hamda DAS+TEOS komponentlarining eruvchanligini o'rganish natijalari keltirilgan.

1-jadval.

DAS, TEOS hamda DAS+TEOS komponentlarining eruvchanligini o'rganish natijalari

Komponent	Turli erituvchilarda eruvchanlik							
	Etanol	Izopropanol	Butanol-1	Dioksan-1,4	Asetonitril	DMFA	DMSO	Sirka kislota, suyuq. erit.
DAS	-	-	-	+	+	+	+	-
TEOS	+	+	+	+	+	+	+	+
DAS/TEOS	-	-	-	+	+	+	+	-

Dioksan, asetonitril, DMSO, DMFA larning barchasida DAS ning eruvchanligi kuzatildi. Biroq, dioksan, asetonitrilda eritma ostida quyqasimon mahsulotlar bo'lib, bir jinsli kolloid hosil bo'lmaydi. DMSO va DMFA larning har ikkalasida ham DAS ning eruvchanligi yuqori bo'lib, ayniqsa DMFA da eritilganda tiniq, shaffof kolloid eritma hosil bo'ldi.

Tajribalarda DAS, TEOS hamda DAS+TEOS nanokompozit materiallari asosida turli gazlarga nisbatan sezgirliigi hamda selektivligi yuqori bo'lgan qatlamlar, katalizatorlar, adsorbentlar olish uchun Fe, Ti, Co, Ni, Cr, Mn singari metallarning oson parchalanuvchi tuzlari, asosan nitratlari, xloridlari singari tuzlari bilan modifikasiyalangan nanokompozitlar olish borasida tadqiqotlar olib borildi. Sof DAS ning o'zi, DAS+TEOS gibridlari aralashmasida ushbu metall tuzlarining 1%, 2%, 5% massa ulushdagi materiallar olish uchun stexiometrik o'lchashlar asosida eritmalar tayyorlandi. Metallar tuzlari gidroliz tufayli gidroksidlarga va keyinchalik termik ishlov berilgandan so'ng esa oksidlarga aylanadi.

Ushbu ishda titan (III) xlorid tuzi ishtirokida DAS+TEOS matrisalar asosidagi olingan materiallar xossalari o'rganish natijalarikeltirilgan. Tajribalarda olingan materiallarning xossalari qiyosiy taqqoslash uchun titan (III) xlorid tuzining, DAS/TEOS nisbatining turlicha variatsiyadagi aralashmalari ishlatildi.



1-rasm. Titan (III) xlorid tuzining DAS/TEOS matrisasidagi geli



2-rasm. DAS/TEOS asosidagi materiallarning tashqi ko'rinishi

Olingan eritmalar qo'shilgan tuzning tabiatiga qarab qizil-qo'ng'ir, yashil- qo'ng'ir, sariq-qo'ng'ir rangda bo'ldi. Tayyorlagan eritmalar 40 minut davomida magnitli aralashtirgich yordamida yaxshilab aralashtirildi, tindirish uchun 1 soat qoldirildi.

Sof DAS ning o'zi asosida olingan zollarning gelga aylanish vaqti juda uzoq bo'lib, 10-20 sutka mobaynida ham o'zining oquvchanligini saqlab qoldi. Bu o'z navbatida olingan zolni uzoq vaqt mobaynida saqlash hamda undan gaz sezgir yupqa qatlamlar olish uchun qo'llash imkoniyati mavjudligini ko'rsatdi.

DAS tarkibiga kiritilgan TEOS ning miqdoriga ko'ra olingan zollarning gelga aylanish bosqichi ham turlicha bo'ldi. Bunda qo'shilgan TEOS ning miqdori ortishi bilan gelga aylanish vaqi kamayib borganligi kuzatildi. Aralashmalarni gelga aylanish uchun ma'lum vaqt tindirilib qo'yildi. Ularning gelga aylanishi 1 sutkadan 1 haftagacha davom etdi (1-rasm).

DAS/TEOS asosidagi materiallarga ishlov berish

Keyingi tajribalarda olingan gellarning quritish ishlari amalga oshirildi. Buning uchun namunalar byukslarga solinib, eksikatorlarda 5 soatdan 12 soatgacha vaqt mobaynida quritildi. Ayrim namunalar bir necha sutka davomida quritishga qo'yildi, chunki gelning tarkibidagi erituvchi molekularining chiqib ketishi turli nisbatlardagi aralashmalarda turlicha bo'ldi. Quritilgan gellar ma'lum g'ovaklikka ega bo'lgan materiallar bo'lib, adsorbentlar, katalizatorlar sifatida qo'llash mumkin (2-rasm).

Tajribalarda olingan g'ovaksimon mahsulotlarga termik ishlov berish amalga oshirildi. Termik ishlov berilgandan so'ng dastlabki polimer matrisalar, metallar oksidlari o'zaro sinergizm asosida elektr o'tkazuvchanligi mavjud bo'lgan materiallar hosil qilinadi. Shu sababli, DAS ning elektr o'tkazuvchan shaklini olish uchun termik ishlov berildi. Buning uchun olingan materiallar quritish shkafi (Memmert GmbH + Co. KG) da temperaturaning 150°C va 200°C da havo o'tkazib turgan holda 2-4 soat mobaynida termik ishlendi.

Quritish va kuydirish ishlari ham turli temperatura rejimlarida olib borildi. Olingan mahsulotlarning tashqi ko'rinishi, xossalari ham turlicha bo'lishligi kuzatildi. TiCl_3 1:2 nisbatdagi kuydirishdan oldin to'q sariq rangda, uni 200°C da 30 minut davomida kuydirilganda oq rangli kukunsimon mahsulot hosil bo'ldi. 1:10 nisbatdagisi esa kuydirishdan oldin och sariq rangda, uni 200°C da 30 minut davomida kuydirilganda qo'ng'ir rangli mahsulot hosil bo'ldi. Olingan mahsulotlar

eksikatorlarda 5-7 soat mobaynida sovutildi va quritildi. Keyingi tajribalarda olingan materiallarning turli gazlarga nisbatan adsorbsion, katalitik hamda boshqa fizik-kimyoviy xossalari o'rganildi [4].

DAS hamda DAS/TEOS asosida gaz sezgir yupqa qatlam olish

DAS asosida turli kimyoviy sensorlar uchun gaz sezgir yupqa qatlam olish imkoniyatlarini o'rganish maqsadida DAS ning turli erituvchilarda erishidan olingan zollar tarkibiga turli metallar tuzlari kiritilib, modifikasiyalangan namunalari mikroskop oynasiga yotqizildi. Bunda bir zolning miqdorlari va yuza maydonlari turlicha bo'lgan bir necha yupqa qatlamlari tayyorlash uchun ularni kapillyar vositasida turlicha miqdorlarda o'tqazildi. Olingan materiallar eksikatorlarda 1-3 sutka mobaynida qoldirildi. Olingan natijalardan asetonitril asosida olingan yupqa qatlamlarning qalinligi yuqori bo'lishligi, bir jinsli tekis qatlamlar olishga imkon bermasligini aniqlandi. Dioksanda eritilishidan olingan materiallar ham qalinligi nisbatan katta bo'lib, bir jinsli tekis bo'lmisligi bilan ajralib turdi.

DMFA da eritilishidan olingan qatlamlar nisbatan bir tekis, mexanik xossalari ham yetarli darajada bo'lishligi kuzatildi. Yupqa qatlamlarning asosiy xossalaridan biri uning mexanik mustahkamligi bo'lib, yorilish, sinish singari belgilarning bo'lmisligi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. DMFA da eritilishidan olingan zollar asosidagi materiallar o'zining mexanik mustahkamligi, yaxshi adgeziyasi hamda bir jinsli, tekis qatlamlar olish mumkinligi sababli eng optimal erituvchi sifatida DMFA dan foydalanish ma'qul deb topildi. DMFA da eritilib, olingan barcha yupqa qatlamlarning yuzalari shu maqsadda ishlatiladigan materiallar uchun qo'yilgan talablar darajasida mexanik mustahkamlikka, bir jinsli yuzaga ega ekanligi kuzatildi.

Adabiyotlar

1. Ершова Ю.Н. Модификация гидрофильных диффузионных мембран на основе диацетата целлюлозы макрогетероциклическими соединениями //Дисс... канд.хим. наук. Иваново. 2010. -С.151.
2. Clare E. Rowland, Carl W. Brown III, James B. Delehanty and Igor L. Medintz. Nanomaterial-based sensors for the detection of biological threat agents // Materials Today Volume 19, Number 8. October 2016. P.464-477
3. Глухова З.А. Новые композиционные материалы на основе диальдегидцеллюлозы и гуанидинсодержащих соединений // Дисс... канд.хим.наук. Нальчик, 2013. –с.142.
4. Sultanov M.M., Abdurakhmanov E., Tillayev S. Gaz-analyzer for monitoring oxygen in exhaust and smoke gases // The Usa Journal of Applied Sciences. #4-2017. Dec. 13-16 p.

UDK: 543.546. 212

YER OSTI ICHIMLIK SUVLARINING MINERAL TARKIBI VA RADIOAKTIVLIGINI (Rn-222 IZOTOPI BO'YICHA) ANALITIK BAHOLASH

J.E. Ruziyev, E.A. Ruziyev

Samarqand davlat universiteti

E-mail: e-ruziyev@mail.ru

Annotatsiya. Ishda tanlangan yer osti suvlarining ichishga yaroqlilik xususiyatlarini radon-222 izotopining radioaktivligi va mineral kimyoviy tarkibi bo'yicha olingan ma'lumotlar keltirilgan. Aniqlanadigan ionlarining miqdorini analitik nazorat qilish elektrokimyoviy, kimyoviy va optik usullar yordamida bajarilgan.

Kalit so'zlar: mineral, tarkib, radioaktivlik, suv, elektrokimyo, ion, analiz.

Аналитическая оценка минерального состава и радиоактивности (по изотопу Rn-222) подземных питьевых вод

Аннотация. В работе представлены полученные данные по минеральному химическому составу и радиоактивности по радону-222 для оценки питьевых характеристик выбранных подземных вод. Аналитический контроль содержания определяемых ионов проведены электрохимическими, химическими и оптическими методами.

Ключевые слова: минерал, состав, радиоактивность, вода, электрохимия, ион, анализ.

Analytical assessment of the mineral composition and radioactivity (according to the Rn-222 isotope) of groundwater

Abstract. The paper presents the data on the mineral chemical composition and radioactivity for radon-222 to assess the drinking characteristics of selected groundwater. Analytical control of the content of the determined ions was carried out by electrochemical, chemical and optical methods.

Keywords: mineral, composition, radioactivity, water, electrochemistry, ion, analysis.

Atrof-muhitning ifloslanishi hayotimizga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi, shaharlarda quyoshli kunlar soni kamayadi va o'simliklar nobud bo'ladi. Biroq ifloslanishining eng katta xavfi atrof-muhitdagi kimyoviy mutagenlarning ortishi natijasida inson organizmida noqulay mutatsiyalarning hosil bo'lishi mumkinligidir. Buning natijasida aqliy va jismoniy taraqqiy etmagan bolalar tug'ilishi ko'payadi yoki hatto yangi oilalarda farzandsizlik holati ro'y berishi mumkin. Fan-texnika rivojlangan bizning asrimizda ko'pgina mamlakatlarda tug'ma kasalliklardan o'lish bolalar yuqumli kasalliklardan o'lishga qaraganda ko'proq ekanligi ma'lum. Atmosferadagi ifloslik miqdorining ortishi qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligining kamayishiga, daraxtlarning sifati va o'sishiga hamda qishloq xo'jaligidagi sog'in sigirlarning suti va umuman mol tuyog'ining kamayishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston respublikasida ichimlik suvi sifatida ishlatilayotgan suvning ma'lum qismini yer osti suvlari tashkil qiladi. Insonlar xo'jalik faoliyatining boshqa tarkibiy qismlari singari yer osti suvlarining sifati va rejimiga kuchli ta'sir sezilmoqda. Shu sababdan ham sug'oriladigan hududlarda yer osti suvlari turli darajada ifloslangan va ko'p joylarda ichishga yaroqsiz darajaga kelmoqda. Samarqand viloyatining ko'pchilik tumanlarida bu muammo yanada sezilarli darajaga yetmoqda. Shuning uchun ham yer usti suvlarining ham tarkibiy o'zgarishlari doimiy analitik nazoratda bo'lishi lozimdir [1,2].

Ushbu ishning maqsadi analitik kimyo kafedrasida ko'p yillardan beri amalga oshirilib kelinayotgan ilmiy tadqiqotlardan biri bo'lgan yer osti ichimlik suvlarining mineral tarkibini analitik nazorat qilish bilan birgalikda bunday suvlarning radioaktivlik xususiyatlarini ham o'rganish va ularning kimyoviy tarkibidagi ingrediyentlarning va ba'zi radioaktiv moddalarning inson organizmiga ijobiy ta'sir darajasidan foydalanish imkoniyatlarini o'rganishdan iborat. Masalan, radon-222 izotopining ruxsat etilgan me'yor darajasigacha bo'lgan miqdori foydali xususiyatlarga ham ega. Uning bu jihatidan tibbiyotda inson salomatligini tiklashda foydalaniladi va u radioterapiya usuli deyiladi. Tabiiy va sun'iy radonli suvlarga boy bo'lgan radonli vannalar hozirgi paytda eng keng tarqalgan davolash usullaridan biri bo'lib, maxsus sanatoriyalar va markaziy dam olish maskanlariga o'rnatilgan. Ulardan nafaqat vannalar, balki dushlar va ichish yo'li bilan ham amalga oshiriladi. Natijada teridagi mikrosirkulyatsiya jarayoni yaxshilanadi, yurak ishi normallasadi, arterial bosim muvofiqlashadi, immun tizim oshadi, shamollashga qarshi ta'sir kuchayadi, qonning zardoblashuvi va morfologik tarkibi normallasadi, to'qimalarning regeneratsiya jarayoni stimullashadi va asosiy almashinuv ta'sirlarining normallasishiga yordam ko'rsatadi.

Inson organizmida radionuklidlarning to'planishi, ularni ichkaridan nurlanishiga olib keladi. Insonlarning oladigan nurlanish miqdori, nurlanishning xavfsiz deb belgilangan chegaraviy miqdoridan ortib ketganda sog'lom kishilarda patologik jarayonlar-nasl kasalligi, pushtsizlik, teri kasalligi, saraton kasalligi kabi hayot uchun xavfli bo'lgan kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun ham suv va havo tarkibidagi radonning minimal va maksimal darajadagi miqdorlarini, uning migratsiyasini doimiy nazorat qilish, uni kamaytirish usullarini izlash va qo'llash radioekologik nuqtai nazardan dolzarb muammo hisoblanadi [3,4].

Analiz ob'yekti sifatida tanlangan yer osti ichimlik suvi Samarqand viloyati Nurobod tumani, Nurbuloq qo'rg'onidan olingan bo'lib, shifobaxsh radonli suv hisoblanadi. Ushbu mineral, radonli suvning chuqurligi yer sathidan 610 metrdan yuqori bo'lib, 42-43°C issiqlikni tashkil qiladi. Radonning suvda erishi, suvning haroratiga bo'g'liq bo'lib, harorat ko'tarilishi bilan suvda radonning erishi kamayadi. Radonning suvlardagi erishi suvning kimyoviy tarkibiga ham bog'liq bo'ladi [5,6]. Suvda erigan minerallar qancha ko'p bo'lsa, radonning unda erishi shuncha kam bo'ladi. Tekshirilayotgan suv ob'yektlaridan radonli suv bilan davolash shaxobchalarida bo'g'im kasalliklari-artrozlar, artritlar, poliartritlar va revmatizmni, asab tizimi kasalliklaridan osteoxondrozlar, bel-bo'yin churrallari, pratruiyalar, radikulit, polinevrit, pleksit, nevroz, gipertoniya, I-II bosqich, ateroskleroz, ekzema, allergik dermatitlarni, erkak va ayollar jinsiy organlari shamollashlarini, buyrak

shamollashlarini, kuyishdan keyingi holat va oshqozon ichak kasalliklarini davolashda foydalanishni tavsiya qiladilar.

Tanlangan yer osti suv obyekti tarkibidagi mineral moddalarning miqdoriy ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.


Jadval

Yer osti suvlarining mineral tarkibini analitik baholash natijalari

$n=3$, $\bar{P}=0.95$, $\Delta\bar{X}_{t.p.} = 4.30$, 2019 yil mart.

№	Aniqlangan ion va kattaliklar	$\bar{X}$	S	Sr, %	$\Delta\bar{X}$
1	pH	7.3600	0.09271	1.26	0.2304
2	Quruq qoldiq, mg/l	0.0056	0.00008	1.41	0.00019
3	Um. qattiqlik, mg-ekv/l	1.3100	0.01519	1.16	0.03777
4	Ca^{2+} -mg/l	0.8200	0.01082	1.32	0.02690
5	Mg^{2+} -mg/l	0.1720	0.00225	1.31	0.00256
6	K^{+} -mg/l	0.2400	0.00305	1.27	0.00757
7	Na^{+} -mg/l	0.0681	0.00090	1.33	0.00225
8	SO_4^{2-} -mg/l	56.110	2.02223	1.45	5.02635
9	Cl^{-} -mg/l	18.5163	0.22034	1.19	0.54767
10	HCO_3^{-} -mg/l	0.2296	0.00261	1.14	0.00650

Jadval natijalaridan o'rganilgan yer osti suvining muhiti me'yor darajasida ekanligini va qolgan analitik ko'rsatkichlar miqdori ham shunday suvlar uchun ruxsat etilgan darajadan ortmaganligini, hatto suvning umumiy qattiqligi ham 1.31 g-ekv/l bo'lib, juda yumshoq suvlar qatoriga kirishini ko'rsatadi. Analizlar kimyoviy, elektrokimyoviy va optik usullar yordamida foydalanib amalga oshirilgan va aniqlash natijalari matematik statistika usullari yordamida metrologik qayta ishlandi, tasodifiy xato qiymati esa 1.14 dan 1.45 % gacha bo'lgan oraliq qiymatlarini tashkil etdi.



1-rasm. Yer osti suvi tarkibidagi radon-222 ning solishtirma faolligini aniqlash natijasi

Tadqiq qilinayotgan yer osti suvlarining radioaktivlik xususiyatlarini suv tarkibidagi radonning miqdoriy ko'rsatkichlari orqali baholadik. Yer osti suvlarining gamma-spektrlari Samarqand davlat universiteti Atom va yadro fizikasi kafedrasi qoshidagi "Yadro fizikasi" ilmiy laboratoriyasida ssintilyatsion gamma-spektrometr (NaI (Tl) Ø 80 x 80 mm, 662 keV Cs^{137} sohasida energetik ruxsati 8,5 %) yordamida o'lchanadi. Gamma-spektrometr sorbsion detektorning faollashtirilgan ko'miriga cho'ktirilgan, faolligi 680 Bk bo'lgan Ra^{226} andozali manba yodamida darajalangan.

Namunaning gamma-spektrometrik ma'lumotlari ASW, NTS RADEK dasturiy ta'minlash qurilmasi yordamida gamma-spektrometrning qayd qiluvchi qismida amalga oshirildi. Qurilmaning PPR qiymatlardagi xatosi 15-40% oraliqlardagi qiymatlarda bo'ladi. Uning minimal aniqlash darajasi 9 mk Bk/m²s ga teng. Etalon manbaning spektrometri va spektrlarni qayta ishlash metodikasi D.I.Mendeleyev nomidagi VNIIM da sertifikatlangan.


Quyidagi rasmda keltirilgan gamma-spektrlar asosida o'rganilgan radonning miqdoriy o'lchash natijalari keltirilgan. Fon sifatida distillangan suvdan foydalanilgan. Gamma-spektrni o'lchash vaqti 29.03.2019.

Nuklid	Faolligi, Bk	Tasodifiy xato, %	Solishtirma faolligi, Bk/kg	Mutlaq xato, Bk/kg	Nisbiy xato, % ($\bar{P}=0.95$)
Rn-222	62.558	0.07	62.558	8.6	13.7

Mart oyida tekshirilgan suv ob'ekti tarkibidagi radonning miqdori shunday suvlar uchun ruxsat etilgan me'yor (63 Bk/l) darajasida ekanligini qayd etib, foydali xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin va davolash maqsadlarida ham foydalanish imkoniyatiga ega.

Xuddi shunday chuqurligi 650 metrdan yuqori bo'lgan boshqa yer osti ichimlik suv manbasidan olingan namunaning radioaktivlik xususiyatlari o'rganilganda, uning tarkibidagi radonning miqdori (may oyida) aniqlanganda olingan natijalar quyidagi rasmda keltirilgan.

Radonli suv bilan davolash shaxobchalari joylashgan Nurbuloq qo'rg'onidagi yer osti suv manbalaridan ikkinchisi tarkibidagi mineral moddalar miqdori ham birinchi namuna tarkibidagi kalsiy, magniy, kaliy, natriy va anionlardan sulfatlar, xloritlar va gidrokarbonantlar miqdoriga, taxminan mos keladi. Uning muhiti esa 4.6 ni tashkil etib, suvning umumiy qattiqligi 1.5 mg-ekv/l ga tengligini ko'rdik. Kimyoviy tarkibi jihatdan aniqlangan ionlarning konsentratsiyasi davolovchi suvlarga qo'yiladigan talabga ham javob beradi. Ushbu suvdan ichish maqsadlarida foydalanish ham mumkin.



2-rasm. Yer osti suvi (2-manba) tarkibidagi radon-222 ning solishtirma faolligini aniqlash natijasi.

Olingan natijalar asosida yangi suv namunasi tarkibidagi radonning miqdori 2.911 Bk/kg ga tengligini ko'rish mumkin va ushbu miqdor oldingi suv manbasidagi radonning miqdoridan 21.5 martagacha kamligini ham kuzatish mumkin. Ushbu miqdor ham radonning miqdori bo'yicha davolash maqsadlarida ishlatishga muvofiq keladi, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

1. Ruziyev J.E., Ergashev I.M., Ruziyev E.A. Yer usti suvlarining analitik monitoringi xususida. //SamDU. Ilmiy axborotnoma. 2018. №1.b.121-126.

2. Ruzyev J.E., Abduhamidov M.Q., Ruzyev E.A. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida kimyoning o'rni. //Resp.ilm.-amal.anj.mater. III qism.-Samarqand.2018.b.15-17.
3. Tuxsanov F.S., Ruzyev E.A., Xushmurodov Sh.X. SamDU. Ilmiy axborotnoma. 2017, №1.b.57-61.
4. Bobanazarova S., Qozoqov A., Xushmurodov Sh., Ruzyev E.A. III Resp.ilm.-amal.konf. ilmiy maqolalar to'plami. – Termiz.2010b.151-152.
5. Ruzyev J.E., Tuxtayev U.U., Ruzyev E.A. O'zbekiston yosh fiziklari V respublika anjumani ma'ruzalari to'plami. – Toshkent. 2018.b.179-185.
6. Ruzyev J.E., Nurboyev H.I., Ruzyev E.A., To'xtayev U.U. Biorganik kimyo muammolari IX Respublika yosh kimyogarlar konferensiyasi materiallari. II T. – Namangan.2019.b.39-40.

УДК: 541.64.542.952

ХИМИЧЕСКОЕ ИНИЦИРОВАНИЕ ПОЛИМЕРИЗАЦИИ ЭТАКОДИДИМЕТИЛЭТИЛЭТИНИЛАТА В РАСТВОРЕ

Шарипов Ш.Р.¹, Зиёев Б.Т.¹, Рузиев И.Х.²

¹Джизакский государственный педагогический институт,

²Самаркандский государственный университет

Аннотация. Изучена закономерность химического инициирования полимеризации этакодидиметилэтилэтинилата в присутствии таких растворителей, как н-гептан и н-диоксан. Показано равномерное снижение значения относительной скорости (W_s/W_m) изученных процессов с возрастанием доли растворителя, что указывает на идентичность механизма их протекания.

Ключевые слова: мономер, инициирование, хлорангидрит итаконовой кислоты, термостойкость, триэтиламин, гель-эффект, этакодидиметилэтилэтинилат, н-гептан, н-диоксан.

Etakodidimetiletiletinilatning eritmadagi polimerlanishini kimyoviy initsirlash

Annotatsiya. Etakodidimetiletiletinilatning n-heptan va n-dioksan singari erituvchilar ishtirokidagi polimerlanishining kimyoviy initsirlanish qonuniyati o'rganilgan. O'rganilgan jarayonlar nisbiy tezlik qiymatini (W_s/W_m) erituvchi ulushi ortishi bilan bir tekis pasayishi ko'rsatilgan bu esa jarayon borish mexanizmini identifikatsiyalash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: monomer, initsirlash, itakon kislotasi xlorangidriti, termobarqarorlik, trietilamin, gel-effekt, etakodidimetiletiletinilat, n-heptan, n-dioksan.

Chemical initiation of polymerization of ethacididimethylethylene ethoxide in solution

Abstract. The regularity of the chemical initiation of ethacididimethylethyl ethynylate polymerization in the presence of solvents such as n-heptane and n-dioxane was studied. A uniform decrease in the relative velocity (W_s / W_m) of the studied processes with an increase in the solvent fraction is shown, which indicates the identity of the mechanism of their occurrence.

Keywords: monomer, initiation, itaconic acid acid chloride, thermal stability, triethylamine, gel effect, ethacididimethylethylethyl, n-heptane, n-dioxane.

Введение

В последние годы значительный интерес представляет исследование полимеризации виниловых мономеров, содержащих в своем составе наряду с двойной и тройную связь.

Такое повышенное внимание к таким мономерам обусловлено, с одной стороны, их недостаточным исследованием, а во-вторых, в большинстве случаев, образованием из них полимеров, обладающих повышенной термостойкостью, полупроводниковыми, магнитными и каталитическими свойствами.[1]

Как известно[2], радикальная полимеризация виниловых мономеров в среде различных органических растворителей является одним из эффективных методов регулирования скорости процесса и свойств образующихся полимеров.

Исходя из этого, в работе приводятся результаты исследования химически инициированной и радиационной полимеризации этакодидиметилэтилэтилата(ЭДДЭЭ) в присутствии растворителей - н-гептан и н-диоксан.

Обсуждение результатов

При выборе данных веществ, прежде всего, исходили из их принадлежности к разным классам органических соединений, широкой доступности и дешевизны радиационной чувствительности, хорошей растворимости в них исходных мономеров, легкости очистки от возможных примесей и ряда других факторов.

Исходный мономер(ЭДДЭЭ) получали прямым взаимодействием метилэтилэтилкарбинола с хлорангидридом итаконовой кислоты в присутствии триэтиламина в среде серного эфира. Выход мономера в зависимости от условий синтеза находился в пределах 70-80 % от теоритического. После двукратной перегонки он имел следующие физико- химические показатели; $T_{кип}=360/10\text{ }^{\circ}\text{C}$ d^{20}_{400} 0,9243, n^{20}_D 1,4397 $P_{найд.}=46,30$. $P_{выч.}=46,41$.

Полимеризация различных мольных соотношений мономера и растворителя во всех случаях проводили в присутствии $11,6 \cdot 10^{-3}$ моль/л ДАК, при температуре 343K в течении двух 2 часов. Результаты эксперимента для изученных мономеров приведены в табл-1

Таблица

Химически инициированная полимеризация ЭДДЭЭ в присутствии различных количеств растворителей

Нурбаев Х.И.¹, Рузиев Э.А.²

¹Самаркандский медицинский институт

²Самаркандский государственный университет

E-mail: e-ruziyev@mail.ru

Аннотация: Проведено алкилирование 2-тиоксо-, -селеноксо-6-метил (фенил) пиримидинон-4 алкил галогенидами н-бутил и н-пентил бромиды. Показано, что в зависимости от условий реакции и соотношения реагентов получают бис-продукты.

Ключевые слова: алкил, фенил, моно-, ди-, спектр, реагент, метил, триплет.

Alkillash reaksiyalari yuli bilan bis-mahsulotlarning olinishi

Annotatsiya: 2-tiokso-, -selenokso-6-metil(fenil) pirimidinon-4 larning n-butil va n-pentil bromidlar bilan alkillash reaksiyalari o'rganildi. Reaksiya natijasida erituvchi va reagentlarning nisbatiga qarab, bis-mahsulotlar hosil bo'lishi kuzatildi.


Kalit soʻzlar: alkil, fenil, mono-, di-, spektr, reagent, metil, triplet.

Obtaining bis products by alkylation reactions

Abstract. The alkylation of 2-thioxo-, -selenoxo-6-methyl (phenyl) pyrimidinones-4 alkyl with the halides of n-butyl and n-pentyl bromides was carried out. It was shown that, depending on the reaction conditions and the ratio of reagents, bis products are obtained.

Keywords: alkyl, phenyl, mono-, di-, spectrum, reagent, methyl, triplet.


Реакция алкилирования двух замещенных пириимидинов-4 как и в случае 2-оксо-, -тиоксо-, -амино аналогов идет в разных направлениях. Имеется также различие в направлении реакции между этими двумя системами. Хотя анионы 2-тиоксо-, -селеноксо-6-метил (фенил) пириимидин-4-она аналогично 2-оксо аналогов имеют в которых делокализован от атома кислорода в сторону других гетероатомов [1].



где, $R=CH_3$; C_6H_5 $X=S$; Se .


Алкилирование 2-тиоксо-6-метил (фенил) пириимидинона-4 н-бутил бромидом в абсолютном спирте идет с образованием 2-тиоксо-3-н-бутил-6-фенил-пириимидинона-4. Аналогичные данные были проведены при проведении реакции в CH_3CN в присутствии гидрида натрия. В его спектре ПМР имеется сигнал протонов при 3,25 м.д. в виде триплета, характерный для N^3 метиленовой группы.

Алкилирование 2-тиоксо-6-метил (фенил) пириимидинона-4 с избытком н-пентил бромидом в ДМФА. Так же дает продукт диалкилирование 2-н-пентилтио-3-н-пентилпириимидинон-4.



Структура его подтверждена данными ИК, масс-спектров.

В его ИК-спектре присутствуют полосы поглощения CO при 1682 см^{-1} CN при 1625 см^{-1} и исчезает полосы поглощения NH при 3100 см^{-1} .



Масс спектры продукта характеризуется наличием пика молярного иона с m/Z 288. В дальнейшем появляются пики ионов с m/Z 316.

$(M^+ - 28)$, $260 (m^+ - 56)$, $232 (m^+ - 84)$, $204 (m^+ - 112)$

Алкилирование 2-селеноксо-6-метил пириимидин-4-она избытком н-бутил бромида приводит к образованию продукта диалкилирования. Так, при взаимодействии указанного

субстрата с н-бутил бромидом в спирте при соотношении реагентов 1:5 был получен 2-н-бутилселено-3-н-бутил-6-метилпиримидин-4-он [2].

В ИК - спектре его имеются полосы поглощения при 1678 см^{-1} (CO), 1630 см^{-1} (CN). Полоса поглощения, характерная для NH исходного соединения при 3115 см^{-1} , отсутствует. В его масс-спектре обнаруживается пик молекулярного иона с $m/Z\ 300/302(m^+)$.

Дальнейший распад M^+ идет с отщеплением в основном алкильной группы или ее фрагментов. Таким образом, направление реакции алкилирования 2-селеноксо-6-метилпиримидин-4-она зависит соотношения используемых реагентов.

Ранее было показано, что алкилирование 2-селеноксо-6-метил пиримидин-4-она йодистым метилом, метилтозилатом, бензил бромидом в различных растворителях (спирт, ацетонитрил, диоксан...) идет исключительно по атому селена [3].

Продукт алкилирования N^1 – атома азота наблюдается только при метилировании его йодистым метилом в ДМФА при нагревании. Такое различие обусловлено пространственным эффектом н-бутильной группы, а также сольватацией N^3 – центра протонным растворителем.

Экспериментальная часть

ИК – спектры сняты на спектрофотометре UR-20 в таблетках KBr на приборе PERKIN ELMER System – 2000 FT- IR, масс-спектры на спектрофотометре MX-1303, MX-1321, MX-1310 и хромато масс-спектрометре MS25RS, спектре ПМР на приборе JNM-4H-100 и Tesla BS-567A (внутренний стандарт – ТМС, ГМДС, шкала δ). Значение R_f определены на пластинках “Silufol” UV-254 (ЧССР). Проявитель: пара йода. Растворители (ацетонитрил, спирт, ДМФА, ДМСО) очищены и абсолютированы по стандартной методике.

Общая методика алкилирования.

В трехгорловую колбу, снабженную капельной воронкой, механической мешалкой и обратным холодильником с хлоркальциевой трубкой помещают 2,5 ммоль исходного вещества, растворяют в 10 мл абсолютного растворителя, добавляют 0,06 г (2,5 ммоль) гидрида натрия или 0,14 г (2,5 ммоль) едкого калия и 2,5 ммоль алкилирующего агента в 2 мл того же растворителя. Реакцию проводят в течении 24 часов на кипящей водяной бане. Реакционную смесь разлагают с 50 мл холодной воды, образовавшийся осадок отфильтровывают. Растворитель отгоняют, остаток промывают эфиром. Соотношение алкилпродуктов определяют методом ПМР - спектроскопии.

Алкилирование 2-тиоксо-6-фенил пиримидинона-4 с избытком н-пентилбромида.

Аналогично вышеописанному из раствора 20мл абсолютного ДМФА, 0,14г (5,0 ммоль) едкого калия, 0,51 г (2,5 ммоль) исходного соединения и 1,5 мл (12,0 ммоль) бромистого пентила получили 0,02 (14%) продукта с $T_{пл} = 138-141^\circ\text{C}$ (гексан) ИК-спектр: 1672 (CO) , 1540 , 1510 (C=C) 1568 (C=N) масс спектр: m^+ (I отн.%) $344\text{ (}m^+; 12\text{)}$, $301\text{ (}m^+ - 43; 25\text{)}$, $288\text{ (}m^+ - 56; 29\text{)}$, $274\text{ (}m^+ - 70; 42\text{)}$, $241\text{ (}m^+ - 103; 27\text{)}$, $231\text{ (}m^+ - 113; 53\text{)}$, $214\text{ (}m^+ - 130; 19\text{)}$, $204\text{ (}m^+ - 140; 100\text{)}$, $172\text{ (}m^+ - 172; 21\text{)}$, $117\text{ (}m^+ - 227; 25\text{)}$, $105\text{ (}m^+ - 239; 19\text{)}$, $104\text{ (}m^+ - 204; 31\text{)}$.

Алкилирование 2-селеноксо-6-метилпиримидин-4-она с избытком н-бутилбромида.

К раствору 0,56 г (10 ммоль) КОН в 10 мл абсолютного спирта добавили 0,95 г (5 ммоль) исходного соединения, перемешивали 30 минут при комнатной температуре, добавили 6,85 г (5,5 мл, 50 ммоль) н-бутил бромида и нагревали на водяной бане 4 часа. Охлаждали, экстрагировали хлороформ, сушили над безводным сульфатом натрия. Хлороформ отгоняли. Выпавший осадок отфильтрован и перекристаллизован из смеси ДМФА + вода. В итоге было получено 0,44г (29%) 2-н-бутилселено-3-н-бутил-6-метилпиримидин-4-она с $T_{пл} = 82-85^\circ\text{C}$.

Масс-спектр: m/Z (I отн. %) $301\text{ (}m^+ - 28; 100\text{)}$, $246\text{ (}m^+ - 53; 33\text{)}$, $237\text{ (}m^+ - 64; 33\text{)}$, $204\text{ (}m^+ - 97; 33\text{)}$, $202\text{ (}m^+ - 99; 33\text{)}$, $191\text{ (}m^+ - 110; 91\text{)}$, $189\text{ (}m^+ - 112; 50\text{)}$, $166\text{ (}m^+ - 135; 75\text{)}$, $152\text{ (}m^+ - 149; 33\text{)}$, $143\text{ (}m^+ - 158; 33\text{)}$, $128\text{ (}m^+ - 173; 41\text{)}$, $111\text{ (}m^+ - 180; 58\text{)}$, $110\text{ (}m^+ - 191; 83\text{)}$.

Литература

1. Нурбаев Х.И., Захидов К.А., Орипов Э.О., Самиев Р.А., Шахидоятов Х.М., Узбекский химический журнал. Ташкент: 1996. №1-2. С.96-101.
2. Захидов К.А., Орипов Э.О., Нурбаев Х.И., Шахидоятов Х.М.. Матер.науч.практ.конф. Самарканд: 1994. С.35.
3. Нурбаев Х.И. Алкилирование полидентных анионов 2-оксо-, -тиоксо-, -селеноксо-,

-метилтио-, -амино-6-метил, 2-тиоксо-6-фенилпиримидинонов-4 алкилгалогенидами C₄-C₉. Дисс. на соиск.уч.степ.канд.хим.наук.-Ташкент, 1998.

УДК: 547.944.6

СТРОЕНИЕ 12-ДЕМЕТИЛРЕГЕЛИНОНА

Аликулов Р.В., Тураев Х.Х., Суюнов Ж.Р., Гелдиев Ю.А.

Термезский государственный университет

E-mail: rv_alikulov@rambler.ru

Аннотация. В статье изучено выделение алкалоида фенольного характера 12-деметилрегелинона экстрагированием 3-х процентной уксусной кислотой измельченных листьев стеблей *Colchicum kesselringii*. Установлено строение выделенного алкалоида 12-деметилрегелинона по спектральным данным и химическим превращениям. Показано, что выделенный алкалоид относится к группе гомопропорфинового ряда.

Ключевые слова: алкалоиды фенольного характера, 12-деметилрегелинон, экстракция, *Colchicum kesselringii*, гомопропорфин, кесслрингин, регелинон, O,O – диацетил-12-деметилрегелинон.

12-demetilregelinonning tuzilishi

Annotatsiya. Maqolada *Colchicum kesselringii* o'simligining maydalangan poyasini 3% sirka kislotasi bilan ekstraksiya usulida ajratilgan, fenol xarakterdagi 12-demetil regelinon alkaloid o'rganilgan. Spektral ma'lumotlar va kimyoviy o'zgarishlar yordamida 12-dimetil regelinonning tuzilishi isbotlangan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ajratilgan alkaloid gomoproporfin qatori alkaloidlari guruhiga kiritildi.

Kalit so'zlar: fenol xarakterli alkaloidlar, 12-demetilregelinon, ekstraksiya, *Colchicum kesselringii*, gomoproporfin, kesselringin, regelinon, O,O-diatsetil-12-demetilregelinon.

Structure of 12-demetilregelinon

Abstract. The article studied the isolation of the alkaloid phenolic character of 12-demethylregelinone with extraction of crushed leaves of the *Colchicum kesselringii* with 3% acetic acid. The structure of the selected alkaloid 12-demethylregelinone was established from spectral data and chemical transformations. It is shown that the isolated alkaloid belongs to the group of the homoporphorphin series.

Keywords: phenolic alkaloids, 12-demethylregelinone, extraction, *Colchicum kesselringii*, homoporphorphin, kesselringin, regelinone, O, O - diacetyl-12-demethylregelinone.

Введение

Растения родов безвременника (*Colchicum* L.) и мерендеры (*Merendera* Ramond) широко распространены в Центральной Азии и относятся к наиболее алкалоидоносным в семействе лилейных. На территории Центральной Азии произрастает шесть их видов – безвременник кесслринга (*C. kesselringii* Rgl.) безвременник желтый (*C. luteum* Baker), мерендера крупная (*M. robusta* Bge.), мерендера йоланты (*M. jolante* E. Czerniak), мерендера гиссарская (*M. hissarica* Rgl.) и мерендера отпрысконосная (*M. sobolifera* C.A.M.). Первые четыре исследовались как потенциальные источники ценных противоопухолевых соединений колхицина и колхамина, а также новых групп изохинолиновых оснований [1, с.47].

Главным алкалоидом растения *C. kesselringii* Rgl. является кесслрингин. В 1961 г. из безвременника кесслринга был выделен кесслрингин – первый алкалоид из среднеазиатских видов безвременника и мерендеры [2, с.25]. Этот алкалоид, не содержащий и отличие от колхицина трополонового кольца, был охарактеризован целым рядом реакций превращения и производным. Однако строение его и ряда аналогов, выделенных из растений, оставалось не установленным [3, с.86; 4, с.26].

Наша цель - выделить алкалоиды из наземных частей *C. kesselringii* Rgl. произрастающих из Центральной Азии (Сурхандарьи). Для получения экстракта с алкалоидами применяли 3% уксусной кислоту. При этом получили 0,16% алкалоидов нейтрального характера, из которых достоверно идентифицировали колхицин. Смесь алкалоидов основно-фенольного характера обнаружили соединения, не содержащие трополоновое кольцо.

В результате изучения качественного состава сумма алкалоидов установлено, что фракция алкалоидов нейтрального характера на всех исследованных нами видах растений состоит в основном из трополоновым алкалоидов (колхицин и др.) и небольшого количества их фотохимических изомеров (β -люмиколхицин). Фракция алкалоидов фенольного характера из листьев и стеблей безвременника кесселрингина включает в основном 2-деметил- β -люмиколхицин, в клубнелуковицах и семенах преобладает 3-деметилколхицин. Во фракциях фенольных алкалоидов из клубнелуковиц и семян этих растений также содержится, в основном, 3-деметилколхицин. Фракция кислых веществ во всех растениях состоит исключительно из трополоновых соединений афракции сильных оснований в одних растениях [5, 6].

Экспериментальная часть

Состав основания $C_{18}H_{16}O_5N$, имеет т.пл. 316-317⁰. 12-деметилрегелинон имеет в УФ-спектре максимумы поглощения при 235 и 273 нм, в ИК – спектре – полосы поглощения гидроксильной группы ($3530-3535\text{ см}^{-1}$), карбонильной группы (1682 см^{-1}) и $C=C$ –связей бензольного кольца (1608 см^{-1}).

В ПМР-спектре основания (в CF_3COOH) присутствуют резонансные сигналы протонов от одного метоксильного группу (3,78 м.д.) и одного геминального по отношению к гидроксильной группе протона (3,88 м.д.). В О-ацетильном производном сигнал этого протона сдвигается в слабое поле (5,08 м.д.). Полуширина сигнала (~6 гц) свидетельствует об экваториальной ориентации этого протона, и следовательно, аксиальной ориентации гидроксильной группы основания.

В масс-спектре регелинона обнаруживаются пики ионов с m/e 327 (M^+ , 100%), 315, 300, 272, 256, 244, 242, 228, 205, 202 которые являются азотсодержащими фрагментами.

По спектральными данным 12-деметилрегелинон резко отличается от ранееизвестных изохинолиновых оснований и не удалось отнести его к одной из рассмотренных нами групп веществ безвременников.

УФ-спектры снимали на спектрометре СФ-4А в метаноле, ИК-спектры – на двухлучевом спектрометре UR-10 в KBr, спектры ПМР – на приборе XL-100 фирмы «Varian» в $CDCl_3$.

Индивидуальность и подлинность веществ контролировали методами БХ. Радиальную БХ на бумаге марки Filtrak осуществляли с помощью подвижных фаз: н-бутиловый спирт-соляная кислота-вода, 50:7,5:13,5 (система 1) и : р-бутиловый спирт – 5% CH_3COOH (1:1, органическая часть) (система 2). Пятна веществ проявляли модифицированным реактивом Драгендорфа и параами йода.

Выделение алкалоидов. 1,8 кг высушенных измельченных листьев стеблей безвременника заготовленного периодах цветения и отцветания пятикратно экстрагировали трёхпроцентной уксусной кислотой. Фракция алкалоидов получали по ранее описанной методики.

Количества фракций алкалоидов составляли:

Алкалоиды нейтрального характера	- 2,88 г (0,16%)
Фенольные алкалоиды	- 1,81 г (0,10%)
Алкалоиды кислого характера	- 2,16 г (0,12%)
Щелочнонерастворимые основание	- 3,59 г (0,20%)
Фенольно – основные алкалоиды	- 2,34 г (0,13%)
Сумма фракций алкалоидов	- 12,78 г (0,71%)

Результаты и их обсуждение

12-деметилрегелинон (1, схема) (R_f 0.69, система 1) во фракции фенольно – основных алкалоидов идентифицировали подлинным его образцом. Во фракции оснований обнаружили неизвестные соединения с R_f 0,16, 0,58, 0,72.

Выделение 12-деметилрегелинона. В маточном растворе после кристаллизации регелинона содержатся, кроме этого алкалоида (R_f 0,35, система 2) соединение с R_f 0,35, 0,17 и 0,34. Первые два из них хроматографически идентифицировали с изорегелиноном и изореколином соответственно при обработки этой смеси водой выделяли 0,07 г вещества с

R_d0,69 которое отличается по физическом константом и спектральном данном от известных алкалоидов. Это новое основания оказалось 12-деметилрегелиноном. Т.пл. 316-317° из воды.


О,О – Диацетил-12-деметилрегелинон (2, схема). 0,04 г основания растворяли в 2 мл свежеперегнанного уксусного ангидрида и в раствор прибавляли одну каплю концентрированной серной кислоты. Через 2 часа, после окончания реакции, избыток уксусного ангидрида удаляли прибавлением в реакционную смесь небольшого количества метанола и упариванием. Затем продукт реакции растворяли в воде. Водный раствор подщелачивали аммиаком и экстрагировали хлороформом.

Выделили О,О – диацетильное производное 12-деметилрегелинона.

О-метил-12-деметилрегелинон (3, схема). 0,10 г регелинон растворяли в 3 мл метанола и в раствор при взбалтывании прибавляли избыточное количества насыщенного раствора диазометана превратили О-метильное производное. Которое при гидролизи 5% серной кислоте образовала вещества, хроматографически идентичное с 12-деметилрегелиноном.

После окончания реакции растворитель отгоняли и оставшееся вещество растворяли в хлороформе и воде. Разделив хлороформный и водный слои смеси, хлороформную часть ее еще дважды промывали водой, сушили над сульфатом натрия и растворитель отгоняли.

Схема



Выводы

1. В результате проведенных исследований получены фракция алкалоидов нейтрального, кислого и фенольного характера и щелочнонерастворимые основания с экстрагированием трёхпроцентной уксусной кислотой измельченных листьев стеблей безвременника.

2. Из фенольно-основных фракции выделен 12-деметилрегелинон и идентифицировали бумажной хроматографией. Установлено строение 12-деметилрегелинона по спектральным данным и химическим превращениям, выделенный алкалоид относится к группе гомопрорпорфинового ряда.

Литература

1. Садыков А.С., Юсупов М.К. Динамика накопления алкалоидов в *Colchicum kesselringinii* RGL и *Merendera robusta* Bge // Узб.хим.журн. 1959 г. №6 с.47-52.
2. Юсупов М.К., Усманов А.М., Касимов А.К., Турдикулов Х. Строение регелинона. // Химия природ. соед. 1977, № 6 с. 867-868.
3. Аликулов Р.В., Чоммадов Б., Пратова Д.М., Юсупов М.К. Синтез регелинона. // Химия природ. соед. 1986, № 4 с. 464-465.

4. Аликулов Р.В. Алкалоиды Colchicum kesselringii Rgl. и Merendera robusta Bge. строения новых гомопрорпорфиновых и гомоапорфиновых алкалоидов. Дисс. на соиск.уч.степ. к.х.н., Ташкент, 1993. С. 26-31.
5. Аликулов Р.В., Алимназаров Б.Х., Нуралиев Г.Т., Гелдиев Ю.А. Строение нового гомопрорпорфинового алкалоида регеколкина // Universum: Химия и биология : электрон. научн. журн. Аликулов Р.В. [и др.]. -2019. -№ 2(56). URL: <http://7universum.com/ru/nature/archive/item/6893>
6. Аликулов Р.В., Алимназаров Б.Х., Гелдиев Ю.А., Рузиева Б.Ю. Universum: Химия и биология: электрон. научн. журн. Аликулов Р.В. [и др.]. -2018. -№ 3(45). URL: <http://7universum.com/ru/nature/archive/item/5592>

UDK 547.665.652.541.124

SANOAT CHIQINDILARIDAN ETILATSETAT SINTEZI JARAYONINING KINETIK QONUNIYATLARI

Musulmonov N.X.¹, Sidikova G.A.², Qodirov O.Sh.²¹Samarqand davlat universiteti,²Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Annotatsiya. Ishdaspirt korxonalarining EAFsini tozalash bo'yicha tadqiqot ishlari natijalari keltirilgan bo'lib, etil spirtining sirka kislota bilan etirifikatsiyasida etilatsetat olish uchun turli tashkilotlar EAF namunalari tekshirildi – "Qo'qonspirt" AJ, Andijon "Biokimyo" AJ, Yangiyo'l "Biokimyo" AJ tarkibi aniqlandi. Shu bilan birga sirka kislotaning etirifikatsiyalanish reaksiyasi tezligiga turli omillarning – kislota miqdorining, haroratning ta'siri o'rganildi va reaksiyaning quyidagi maqbul sharoiti tanlandi: etilatsetat sintez jarayoni katalizator miqdori sirka kislota miqdoridan 1,75% bo'lganda, EAF:sirka kislotaning nisbati 1,2:1 va temperatura 80°C - 85°C bo'lganda reaksiya unumi maksimal bo'ladi.

Kalit so'zlar: efir-aldegid fraksiyasi, harorat, sirka kislota, etil spirti, sulfat kislota, katalizator.

Кинетические закономерности синтеза этиацетата из промышленных отходов.

Аннотация. В данной статье приведены результаты очистки ДСП завода по производству спирта. А на предприятиях, таких как СК «Quqonspirt», Андиганский «Биокиме», Янгйульский «Биокиме», исследована реакция этилового спирта с уксусной кислотой с целью получения этилацетата. Также было выбрано влияние различных параметров, таких как количество кислоты, температура на скорость реакции и оптимальные условия реакции реакции синтеза этилацетата: количество катализатора в уксусной кислоте составляет 1,75%, соотношение уксусной кислоты EAF "1,2: 1 и температура 80-85°C.

Ключевые слова: сложно-альдегидная фракция, температура, уксусная кислота, этиловый спирт, серная кислота, катализатор.

Kinetic laws of ethylacetate synthesis from industrial waste

Abstract. In this paper results of purification of EAF of spirit producing plant are given. And samples from the enterprises as "Quqonspirt" SC, Andijan "Biokimyo" SC, Yangiyul "Biokimyo" SC of the reaction of ethyl alcohol with acetic acid in order to prepare ethylacetate is investigated. As well as impact of different parameters as amount of acid, temperature on the reaction rate and optimal reaction conditions of the ethylacetate synthesis reaction were chosen: catalyst amount to acetic acid is 1,75%, EAF"acetic acid ratio 1.2:1 and temperature 80-85°C.

Keywords: ester-aldehyde fraction, temperature, acetic acid, ethyl alcohol, sulfuric acid, catalyst.

Kirish

Respublika iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishi - tabiiy boyliklarni o'zlashtirish, ularni kompleks ishlatish, ko'p sohali modernizatsiya, sanoat sohasini texnik va texnologik yangilash, hozirgi zamon ilmiy yutuqlarni va progressiv innovatsion texnologiyalarni tezlashtirish, raqobatbardosh va import mahsulotlar o'rnini bosadigan, katta qo'shimcha qiymatli xalqaro bozorda muhim bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishdan iborat [1].

Davlatimiz oldida turgan ikkinchi muhim masala ikkilamchi resurslarni safarbar qilish, ularni to'liq va har tamonlama ishlatish. Bu masalani yirikroq muammo – atrof muhitni himoyalashning tarkibiy qismi deb qarash kerak, chunki tabiatdan olinadigan 90% va planetadan chiqariladigan moddalar chiqindi bo'ladi va biosferani ifloslaydi.

Chiqindisiz kimyoviy korxonalarda ekologik toza texnologiya yaratish, ishlab chiqarishga rekuperatsiya, yangi jarayonlar va sanoat chiqindilarini qayta ishlash O'zbekiston olim va injener-texnik xodimlari uchun dolzarb muammo bo'lib qolmoqda [2-3].

Sirka kislotaning etil efiri organik sintezda xomashyo sifatida ishlatiladi hamda sanoatning turli sohalarida erituvchi sifatida ishlatiladi. Etilatsetat nitrotselyulozani, atsetilselyulozani, smolali yog'li laklar, mumlar, yog'larni va spirt bilan aralashmasi sun'iy teri ishlab chiqarishda ishlatiladi. Undan tashqari suvdagi eritmadan organik moddalarning ekstragenti va erituvchisi sifatida flaksografik bosmada ishlatiladi.

Etilatsetat muhim erituvchilardan biri. U tabiiy kauchuk, laklar, bo'yoqlar, sintetik tolalar, erituvchi sifatida, hamda plastifikator sifatida ishlatiladi.

Lak-bo'yoq, rezina-texnika sanoatlari uchun respublikaga MDH davlat-laridan har yili 10 ming tonnagacha erituvchi (etilatsetat va atseton) sotib olinadi. Nomlangan efirlarga respublika sanoatining ehtiyoji bir necha tonnani tashkil etadi.

Murakkab efirlarni ishlab chiqarishning sintetik usullari, ularni tozalash va ajratish hamda ular fizik – kimyoviy xossalarni o'rganishga bir qator [4-7] ishlar bag'ishlangan.

Tajribaviy qismi

Eterifikatsiya suyuq yoki bug' fazasida amalga oshirilishi mumkin. Suyuq fazada jarayon pastki qismi issiq bug' bilan isitiladigan tarelkali kolonnada o'tkaziladi. Kolonnaga etirifikatsiya aralashmasi va sulfat kislota kiritiladi. Bug' fazali eterifikatsiyada kislota va spirt (ortiqcha miqdorda) aralashmasi qattiq katalizator (ThO_2 , TiO_2 va b.) ustidan $280-300^\circ\text{C}$ da o'tkaziladi. Quyi karbon kislotalar efirlarining ikki fazada ham unumi 95% ga etadi.

Eterifikatsiya reaksiyasining maqbul sharoiti: biror komponentning ortiqcha bo'lishi va hosil bo'lgan mahsulotni reaksiya zonadan kislota yoki ishqor borligida tez chiqarib olishdan iborat.

Eterifikatsiya reaksiyasining qonuniyatlarini N.A.Menshutkin o'rgangan. U aniqladiki, birlamchi spirtlarning molekulyar massasi oshgan sari reaksiya tezligi pasayadi: izomer spirtlar reaksiyalari turlicha o'tadi: birlamchilar tezroq, uchlamchisi sekinroq.

Tadqiqot obyektlari – efiroaldegid fraksiya (EAF) – biokimyoviy sanoat chiqindisi, muzsimon sirka va sulfat kislotalar.

EAF rangsiz suyuqlik bo'lib, o'ziga xos hidga ega. EAF tarkibiga metil va etil spirtlar, aldegidlar, efirlar va boshqa aralashmalar kiradi. Etanol miqdori 80-95% ga yetadi.

Natijalar va ularning muhokamasi

Spirt korxonalarining EAFsini tozalash bo'yicha tadqiqot o'tkazish maqsadida (sirka kislota bilan eterifikatsiyasida etilatsetat olish) turli tashkilotlar EAF namunalari tekshirildi – “Qo'qonspirt” AJ, Andijon “Biokimyo” AJ, Yangiyo'l “Biokimyo” AJ tarkibi aniqlandi.

Olingan EAF namunalari tekshirilgan laboratoriya sharoitida aniqlangan tarkibi 1-jadvalda berilgan.

1-jadval


Respublika korxonalari EAF tarkibi

№	Korxonaning nomi	Asosiy komponentlar tarkibi, mass. %					
		CH_3OH	$\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$	R-CHO	R-COOH	H_2O	Boshqa qo'shimchalar
1	AO «Qo'qonspirt»	0,65	92,3	0,25	0,46	4,8	1,54
2	Andijon «Biokimyo» AJ	1,2	89,8	0,16	0,67	6,9	1,27
3	«Bektemirspirt»AJ	0,82	93,4	0,34	0,78	3,9	0,76
4	Yangiyo'l «Biokimyo» AJ	0,74	90,6	0,28	0,68	6,5	1,2


Jadvaldan ko‘rinadiki, EAF tarkibi bir xil emas va asosiy modda miqdori 90 – 95% tashkil etadi. Metanol, aldegidlar, ketonlar – engil uchadigan aralashmalar; suv, kislotalar va sivush moylari – qiyin uchuvchan aralashmalar.

Katalizatorlar miqdorining etilatsetat unumiga ta‘sirini o‘rganish maqsadida qo‘shiladigan sulfat kislota miqdorini sulfat kislota massasiga nisbatan 0,25 dan 2,0% gacha o‘zgartirildi.

Sulfat kislota miqdori 1,75% ga etguncha etilatsetat unumi oshishi aniqlandi.



1-rasm. Etilatsetat unumini katalizator miqdoriga bog‘liqligi



2-rasm. Etilatsetat unumining EAF:sirka kislota nisbatiga bog‘liqligi (T=80°C)

Katalizator miqdorining yana ham oshirilishi etilatsetat unumiga ta‘sir etmaydi. Shunga asosan sulfat kislota miqdori keyingi tajribalarda sirka kislota miqdorining 1,75% ga teng olindi.

2-jadval

Katalizat tarkibiga temperatura ta‘siri

№	Harorat, °C	Katalizat tarkibi, hajmiy % larda		
		Etilatsetat	Etanol	Suv
1	68,4	74,0	16,0	10,0
2	71,2	93,4	6,0	0,6
3	75,4	86,0	11,0	3,0
4	80,0	72,0	21,0	7,0
5	85,0	65,0	24,0	11,0

Etilatsetat sintezining maqbul texnologik parametrlarini aniqlash maqsadida jarayonga temperatura, boshlang‘ich komponentlarning molyar nisbati o‘rganildi. Katalizator – sulfat kislota hamma vaqt sirka kislota massasiga nisbatan 1,75% qo‘shildi. Tozalangan EAF va sirka kislota molyar nisbati 1,1:1 ni tashkil etadi. 2-jadvalda katalizat tarkibiga temperatura ta‘siri ko‘rsatilgan.

Jadvaldan ko‘rinadiki, katalizatni haydash temperaturasi oshgan sari uchlamchi komponent tarkibi o‘zgaradi. Haydash temperaturasi qancha past bo‘lsa, katalizat tarkibidagi etanol va suv miqdori shuncha kam bo‘ladi. Etilatsetatning eng katta unumi 93,4% haydash temperaturasi 71,2°C bo‘lganda kuzatildi. Bunda katalizatda etanol va suv miqdorlari 6% va 0,6% ga teng. Temperaturaning 70°C - 80°C tanlandi.

EAF va sirka kislota molyar nisbati 2:1 dan 1:1,1 intervalda o‘zgartirildi. Olingan natijalar 2-rasmda berilgan.

Rasmdan ko‘rinadiki, katalizator konsentratsiyasi 1,75% va haydash temperaturasi 70°C bo‘lganda etilatsetat unumi EAF; sirka kislota molyar nisbatiga bog‘liq va maksimumdan o‘tadi. Aniqlandiki, EAF: sirka kislota molyar nisbati katta bo‘lganda tarkibida 50% etil spirt bo‘ladi, uni ajratish qiyin va pirovard mahsulot tannarxi oshadi. EAF: sirka kislota nisbati 1:1 bo‘lganda efirizatorida anchagina sirka kislota ortib qoladi. EAF:sirka kislota nisbatining maqbul qiymati 1,2:1,0 va temperatura 70°C - 75°C. Bunda olingan etil spirtga nisbatan nazariyga qaraganda 92% ga yetadi.

Katalizatdan haydash olingan etilatsetat suv bilan yuvish keyinchalik kalsiy xlorid bilan quritish va rektifikatsiya usulida ajratib olindi. Olingan etilatsetat tozalik darajasi 99-99,5%.

Xulosa

Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatdiki etilatsetat sintez jarayoni katalizator miqdori sirka kislotasi miqdoridan 1,75% bo'lganda, EAF:sirka kislotaning nisbati 1,2:1 va temperatura 80°C - 85°C bo'lganda intensiv ravishda o'tadi.

Adabiyotlar

1. Postanovlenie Prezidenta Respubliki Uzbekistan № PP-1442 ot 15.12.2010 «O prioriteta razvitiya promyshlennosti Respubliki Uzbekistan v 2011-2015 godax». 4 s.
2. Esterification of carboxylic acid with ethanol accompanied by pervaporation /Kita Hidetoshi, Sasaki Shigeaki, Tanaka Kazuhiro, Okamoto Kenichi, Yamamoto Masuji //Chem.Hett.-1988. -№ 12. -R.2025-2028. -Angl.
3. Ерышов Б.Я. Этерификация. Сообщение 1-6 //Тр.Бурят. ин-та эстеств. наук. /Бурят.фил.сиб.отд.АН СССР.1977. № 14. С.210-232.
4. Авт. свит. УС № 1505925. Песпрозванный М.А. и др. Способ получения сложных эфиров. Б.И. № 33, 1989.
5. Патент РФ. № 2174974. Гревсва А.Ф., Губрий Г.Г., Коломийсева М.В., Мусиенко Е.В., Петыхин Ю.М. Смесевой растворитель на основе сивущного масла. Б.И. № 8, 2001
6. Юсупов Д., Миркамилов Т.М., Турабджанов С.М., Жумаева З.Е. Узб. хим. журн., 1998, № 1. С.31-33.

UDK: 543.421

OPTIK KIMYOVIY SENSORLAR XOSSALARIGA ZOL-GEL JARAYONIDA QO'LLANILGAN KATALIZATOR TABIATINING TA'SIRI

Mirzayev Sh.E., Buronov A.O., Isaqulova M., Begimkulova Sh., Zohidov Q.O.,

Nasimov A.M., Haydarov G', Sh.

Samarqand davlat universiteti

E-mail: xurshiduz@rambler.ru

Annotatsiya. Ushbu ishda zol-gel jarayonining borish sharoitlarini, yakuniy material xossalari katalizator tabiatining ta'siri o'rganilgan. Zol-gel jarayoni komponentlarni molekulyar masshtabda boshqarish va kerakli xossaga ega materialni olish imkonini bergadi. Shuning uchun jarayonni o'rganish uchun turli omillarning ta'siri muhokama qilingan. Ayniqsa, ishda katalizator sifatida ishlatiladigan turli mineral kislotalar va sirka kislotasi ta'siri o'rganilgan. Biriktirilgan dopant fotokimyoviy xossalari tayyorlash jarayonidagi omillar ta'siri ham bayon qilingan.

Kalit so'zlar: TEOS, zol-gel, katalizator, dopant, gidroliz.

Влияние природы катализатора, используемого в золь-гель процессе, на свойства оптико-химических сенсоров

Аннотация. В данной работе были изучены условия золь-гель процесса и влияние природы катализатора на свойства конечного материала. Золь-гель процесс позволяет контролировать компоненты в молекулярном масштабе и получать нужные материалы. Следовательно, эффекты различных параметров были обсуждены. Особенно изучено влияние кислотных катализаторов как минеральных кислот, так и уксусной кислоты. Также было дано влияние различных параметров на фотохимические свойства допанта.

Ключевые слова: ТЭОС, золь-гель, катализатор, легирующая добавка, гидролиз.

Effect of nature of catalyst utilized in sol-gel process on properties of optical chemical sensors

Abstract. In this work conditions of the sol-gel process and effect of the nature of catalyst on the final material properties were studied. Sol-gel process allows controlling components in molecular scale and obtaining desired materials. Hence, effects of different parameters were discussed. Especially effect of acid catalysts as mineral acids and acetic acid were studied. Effect of various parameters on the photochemical properties of the immobilized dopant was also given.

Keywords: TEOS, sol-gel, catalyst, dopant, hydrolysis.

Kirish

Zol-gel jarayonini tasvirlashda gidroliz, alkohol kondensatsiya va suvli kondensatsiya reaksiyalaridan foydalaniladi [1]. Lekin ayni zol-gel noorganik zanjirning bu xususiyat va xossalari bir qancha omillarga bog'liq. Bu omillarga gidroliz va kondensatsiya reaksiyalari tezligi, suv-alkoksid molyar nisbati (R), erituvchi turi, katalizator tabiati va konsentratsiyasi, pH, harorat, quritish vaqti va sharoitlarini kiritish mumkin [2]. Omillarning ta'sirini boshqargan holda esa zol-geldan tayyorlangan noorganik zanjirning xossalari keng ko'lamda o'zgartirish mumkin. Zol-gel jarayoni boshqariladigan g'ovaklik va morfologiyasi yuzasidan qator afzalliklarga ega. Bular termik, mexanik va kimyoviy barqarorlik, sodda kimyoviy reaksiyalar asosida olinish, yakuniy materialni turli shaklda (qatlam, tola va monolit) olish imkoniyati va h.k [2-3]. Biriktirilayotgan dopantning tabiatiga qarab zol-gel eritmasini ham tanlash lozim bo'ladi.


Zol-gel jarayonini amalga oshirishda turli xil katalizatorlar, jumladan mineral kislotalar: HCl, HNO₃, organik kislotalar, masalan CH₃COOH keng qo'llaniladi [4-6]. Tadqiqotlar kislotali katalitik zol-gel jarayonida chiziqli polimer, asosli katalizator qo'shilganda esa tarmoqlangan zanjirli polimer hosil bo'lishini ko'rsatdi.

Oldingi tadqiqotlarimizda kislotali katalizator ishtirokida turli dopantlar, jumladan noorganik gazlarni aniqlash uchun optik sensorlarga materiallar tayyorlashda ishlatilgan edi [7,8]. Ushbu tadqiqotimizning maqsadi esa turli katalizatorlarning zol-gel qatlam tuzilishiga va dopantning forokimyoviy xossalari ta'sirini o'rganishdan iborat.

Tajribaviy qism

Kerakli reaktivlar

Tetraetoksisilan (TEOS) Haihang Industry Co.,Ltd (XXR), xlorid kislota (HCl), nitrat kislota (HNO₃), sirka kislota (CH₃COOH) fiksantlaridan 0,1 g-ekv/l, bidistillangan suv (H₂O), metil spirt (CH₃OH 99,9%), etil spirt (C₂H₅OH 99%), izopropil spirt (C₃H₇OH 99%), izobutil spirt (C₄H₉OH 99%), butanol-1 (C₄H₉OH 99%) dan foydalanildi.



Optik qatlam hosil qilish

Tajribalarimizni dastlab tetraetoksisilanni etanol muhitida zol-gel reaksiyasini amalga oshirishdan boshladik. Zol-gel sintezni quydagicha: TEOS : Erituvchi : Katalizatorlarning mol nisbatlarini turli xil ko'rinishlarda amalga oshirildi. Biz o'tkazgan sinov tajribalarimizda optimal tarkib sifatida TEOS: 4ROH: 4H₂O mol nisbatlar tanlandi. Hisoblashlar natijasida yuqoridagi mol nisbat uchun 4 ml TEOS, 4,1ml C₂H₅OH va 1,3 ml 0,1M HCl eritmalaridan maxsus o'lchov pipetkalarida olib foydalanildi. Buning uchun dastlab TEOS va C₂H₅OH 30 daqiqa davomida magnitli aylantirgichda (600 aylanish/daqiqa) aralashtirildi, so'ngra 0,1M HCl eritmasidan qo'shildi va 90 daqiqa davomida magnitli aylantirgichda (600 aylanish/daqiqa) aralashtirildi so'ngra 0,1M indikator eritmasidan qo'shildi. Indikator sifatida bromtimol ko'ki (BTK) va bromkrezol qirmizisi (BKQ) dan foydalanildi. Chunki bromkrezol qirmizisi (BKQ) va bromtimol ko'ki (BTK) ning tanlanishiga sabab u UB-ko'rinadigan spektroskopiyada tadqiqotlar uchun eng yaxshi fotokimyoviy xossalarga egaligidir.

Keyingi bosqichlarda TEOS asosidagi zol-gel sintezida eirtuvchi mol nisbati kamaytirilib, katalizator miqdori oshirib borildi, ammo barcha jarayonlar aynan 4 soatda to'xtatildi. Bundan asosiy maqsad borayotgan jarayonning xossalarini o'rganish hisoblanadi. Zol-gel texnologiyasi yordamida zolning polimerlanishi gidroliz va kondensatsiya reaksiyasi hisobiga sodir bo'ladi, natijada uning qovushqoqligi ortib boradi.

Olingan zol-gel aralashmalarni o'lchamlari 0,8 x 7,5 sm bo'lgan oddiy mikroskop shishalariga yotqizildi. Buning uchun mikroskop shishalari avval HNO_3 ning 0,1N eritmasida 24 soat davomida saqlandi. Keyin shishalar avval etanolida bir necha marta yuvilib, keyin distillangan suvda yuvildi va quritildi. Yuqoridagi reaksiyalardan hosil bo'lgan zol-gel aralashmalari ikki xil tartibda shisha ustiga yotqizildi:

- 1) avtomatik pipetka yordamida kerakli miqdorda olinib shisha ustiga tomizib qoplash;
- 2) shishani eritmaga botirib qoplash (shishaning bir tomoni yoki ikki tomoniga qoplandi);

Bu usulda qatlam substratga bir xil, gomogen yopishish imkoniyatiga ega.

So'ngra olingan optik sensor bir sutka davomida xona haroratida qoldirildigandan so'ng 24 soat davomida 70°C da quritish shikafida (Germaniya Memmert) quritildi. Quritilgan shishalar bir sutka davomida xona haroratida bidistillangan suvda cho'ktirib qo'yildi. So'ngra shishalar tekshirish uchun 1 haftaga salqinroq joyda qoldirildi. Keyingi tajribalarimizni katalizator sifatida nitrat kislota (HNO_3) hamda sirka kislota (CH_3COOH) larning miqdorlarini turli xil nisbatlarda olib zol-gel jarayonini amalga oshirdik. Ilmiy tadqiqot davomida olti xil organik erituvchi (etanol (96%), metanol (99%), propanol-1(99%), izopropanol(99%), butanol-1(99%) va izobutanol(99%) lar, indikator (kislota muhitini o'rganish uchun 0,1M bromtimol ko'ki hamda asos xossalarini o'rganishda 0,1M bromkrezol qirmizisi) lardan va uch xil katalizator (xlorig kislora, nitrat kislota va sirka kislota) lardan foydalanib sinovlar o'tkazildi. Bunda eng yaxshi katalizator xlorig kislora va nitrat kislotalarning 0,1 normalli eritmaları ekanligi aniqlandi. Tayyorlangan zol-gel eritmalar tarkibi 1-jadvalda keltirilgan.



1-jadval


Tayyorlangan zol-gel eritmalar tarkibi

TEOS $\text{Si}(\text{OC}_2\text{H}_5)_4$ (mol nisbati)	Erituvchi (spirt) (mol nisbati)	H_2O (mol nisbati)	C, mol/l Katalizator (kislota)	C, mol/l Indikator (BKQ yoki BTK)	Jarayonga ketgan vaqt soat
1	4	1	0,1	$1,11 \cdot 10^{-6}$	4
1	4	2	0,1	$1,11 \cdot 10^{-6}$	4
1	4	3	0,1	$1,11 \cdot 10^{-6}$	4
1	4	4	0,1	$1,11 \cdot 10^{-6}$	4
1	4	5	0,1	$1,11 \cdot 10^{-6}$	4
1	4	6	0,1	$1,11 \cdot 10^{-6}$	4

Natijalar va ularning tahlili


Tadqiqotlarimiz davomida zol-gel jarayonida turli katalizatorlar yordamida BTK va BKQ dopantga ega optik sensorlar tayyorlanib, ularning gomogenligi tekshirildi. Optik sensorlarni tayyorlash uchun olib boriladigan zol-gel jarayoniga katalizator tabiatining ta'siri muhim ekanligini tadqiqotlarimiz tasdiqladi. Katalizator sifatida HNO_3 va HCl lardan foydalanib jarayon amalga oshirilganda indikatorlar zol-gel qatlamlarga gomogen bo'lib birikkanligi aniqlandi. BTK zol-gel qatlamlarga gomogen birikishi, bu birikish $\text{pH}=1$, R nisbat esa 4 bo'lganda eng optimal sharoit bo'lganligi aniqlandi. Buni tayyorlangan qatlamlarning yuza sirtini yorug'lik mikroskopida kuzatish ham tasdiqladi.

TEOS : $\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$: HCl (BTK)TEOS : $\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$: HCl (BKQ)

TEOS : $i\text{-C}_4\text{H}_9\text{OH}$: HNO_3 (BTK)TEOS : $i\text{-C}_4\text{H}_9\text{OH}$: HNO_3 (BTK)

1-rasm. BTK va BKQ biriktirilgan zol-gel qatlamining yorug'lik mikroskopida 100 marta kattalashtirilgandagi tasviri.

Yuqorida ta'kidlanganidek, R va alkoksid molyar nisbati oxirgi materialning xossalariga kuchli ta'sir qiladi. Shuningdek, qatlam qalinligiga eritma pHi ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Katta R qiymati va quyi pH ancha qalin qatlam hosil bo'lishiga olib keladi.



2-rasm. Bromkrezol qirmizi biriktirilgan optik sensorning turli eritmada pH ga bog'liq yutilish spektri.

Tadqiqotlarimizda shuningdek katalizatorning optik qatlamga biriktirilayotgan dopant (indikator) fotokimyoviy xossalariga ta'sirini o'rganish maqsad qilingandi. Shuning uchun tayyorlangan sensorlar turli pH ga ega eritmalarda sinab ko'rilganda, pH kislotalikdan neytralga o'tishida avval 435 nm dagi yutilish maksimumining intensivligini kamayib borishini ko'rish mumkin (3-rasm). Spektrda alohida bo'lib qora chiziqda turgan neytral muhitdagi spektrda har ikkala 435 va 588 nm dagi yutilish maksimumlari mavjud. Eritma muhiti neytraldan ishqoriyga o'tganda 588 nm dagi yutilish maksimumi bir tekisda oshib boradi. Bu esa tanlangan indikator ayni optik qatlamda spektral xossalarini saqlab qolganligini ko'rsatadi.

Xulosalar

Zol-gel usuliga turli ta'sirlarning, chunonchi, alkoksidlar tabiati, ularning miqdoriy nisbati, erituvchi tabiati, alkoksid va suv miqdoriy nisbati, qizdirish ta'siri va boshqalarni o'rganish uchun ko'plab namunalar tayyorlanib, ularning fizik-kimyoviy xossalari o'rganildi va tegishli xulosalar chiqarildi. Zol-gel jarayoniga katalizator sifatida sirka kislota (CH_3COOH) ta'sir ettirilganda aralashmaning qovushqoqligi judayam past ekanligi va hosil bo'lgan plenlarda yoriqlar sonining judayam ko'p ekanligi, sirka kislota (CH_3COOH) zol-gel jarayoniga munosib katalizator emasligi ma'lum bo'ldi. Xlorid kislota (HCl) va nitrat kislota (HNO_3) zol-gel jarayoniga munosib katalizator ekanligini, olingan kompozitsion materiallarning bir tekis qatlam hosil qilganidan bilish mumkin. Bunday kompozitsion qatlamlarda indikator o'z fotokimyoviy xossalarini yaxshi saqlab qolishi aniqlandi.

Adabiyotlar

1. M.H.Noir'e, L.Couston, E.Douarre, D.Pouyat, C.Bouzon, P.Marty, *J. Sol-Gel Sci. Technol.* 2003, 17, pp. 131-135.
2. Yin, M.; Yao, X. & Zhang, L. *J. Zhejiang Univ. Sci.*, 2004, 5/4, pp. 422-427.
3. E.Wang, K.Chow, W.Wang, C.Wong, C.Yee, A.Persad, J.Mann, A.Bocarsly, *Anal. Chim. Acta*, 2005, 534, pp. 301-306.
4. C.J. Brinker, K.D. Keefer, D.W. Schaefer, R.A. Assink, B.D. Kay, C.S. Ashley, *J Non- Cryst Solids*, 63 1984, pp. 45–59.
5. A.S. Dorcheh, M.H. Abbasi, *J Mater Process Tech*, 199. 2008, pp. 10–26. \
6. Ö. Kesmez et al. *Journal of Non-Crystalline Solids* 357, 2011, pp. 3130–3135
7. Buronov A.O., Tashpulatov Kh.Sh., Nasimov A.M. Global scientific journals, Vol 6, Issue 3, 599-603 pp.
8. A.O. Buronov, Sh.E. Mirzayev, M. Isoqulova, A.M. Nasimov, Kh.Sh. Tashpulatov. Generating knowledge through research – Eurasian conference, April 4, 2019, Jawa Timur 61215, Indonesia, pp. 239-243.

UDK: 547.56.563.364

**L-(-)- MENTOLNING SUPRAMOLEKULAR
KOMPLEKSLARI VA AYRIM FIZIK KIMYOVIY
KONSTANTALARI**

Yettiboeva L.A.¹, Abduraxmanova U.K.¹, Matchanov A.D.²

¹Guliston davlat universiteti,

³O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi bioorganik kimyo instituti

E-mail: lola1981a@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada glitserizin kislotasining mentol bilan tarkibi bir necha xil nisbatlarda (2:1; 4:1; 9:1) olingan yangi supramolekulyar komplekslarini sintez qilish va fizik-kimyoviy xossalari to'g'risidagi ma'lumotlar berildi. Olingan supromolekulyar komplekslarning tuzilishini IQ-spektroskopiya usulida tahlil qilinib, sifat va miqdoriy jihatdan baholashda zamonaviy usullardan biri yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX) usulidan foydalanildi.

Kalit so'zlar: glitserizin kislota, mentol, retseptor, substrat, supramolekulyar kompleks, IQ -spektrtrskopiya, YuSSX, elyuent, detektor, "mehmon-mezbon".

Супрамолекулярные комплексы и некоторые физико-химические константы

L - (-) - ментола

Аннотация. В статье приведены сведения о синтезе и физико-химических свойствах новых супрамолекулярных комплексов, полученных в нескольких соотношениях (2: 1; 4: 1; 9: 1) с глицирризиновой кислотой. Структура полученных супромолькулярных комплексов была проанализирована с помощью ИК-спектроскопии, и одним из самых современных методов качественной и количественной оценки было исследовано высоко эффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ).

Ключевые слова: глицерризиновая кислота, ментол, рецептор, субстрат, супромолькулярный комплекс, ИК-спектр, хроматография, органический растворитель, система «гость-хозяин».

Supramolecular complexes and some physico- chemical constants of L - (-) - menthol

Abstract. The article provides the information on the synthesis and physicochemical properties of new supramolecular complexes obtained in several ratios (2: 1; 4: 1; 9: 1) with glycyrrhizic acid. The structure of the obtained supromolecular complexes was analyzed by using IR spectroscopy, and one of the most modern methods of qualitative and quantitative evaluation was investigated by high performance liquid chromatography (HPLC).

Keywords: glycyrrhizic acid, menthol, receptor, substrate, supramolecular complex, IR-spectrum, chromatography, organic solvent, "guest-host" system.

Kirish

Yuqori biologik faollikka ega bo'lgan moddalar asosida olingan dori vositalari o'zining kam zaharliligi, organizmga nojo'ya ta'sir kursatmasligi va o'ziga xos xususiyatlari bilan sintetik usulda olingan dori vositalaridan ajralib turadi. Ana shunday turdagi birikmalardan biri shirinmiya o'simligi ildizi tarkibiga kiruvchi GK va uning hosilalari hisoblanadi. GK va uning ayrim tuzlari asosida olingan supramolekulyar kompleks birikmalari asosida turli xil dori vositalari yaratilgan va ularni bir qator ijobiy xususiyatlari o'rganilgan [1-3].

Supramolekulyar kompleks birikmalari hosil qilishda asosan nokovalent ta'sirlar jumladan: ion, ion-dipol, Van- der -vaals, gidrofob o'zaro ta'sirlar va vodorod bog'lanishlardir. Ushbu ta'sirlar kovalent bog'larga nisbatan kam energiyaga ega bo'lib ularning energiyasi kamdan-kam hollarda 100 kJ/molga yetadi. Ammo "mehmon-mezbon" o'rtasidagi ko'p sonli ta'sirlar supramolekulyar ansamblarning yuqori barqarorligini ta'minlaydi. Shuni ham alohida qayd etish lozimki, kovalent bo'lmagan ushbu o'zaro ta'sirlar birgalikda juda barqaror sistemalarni hosil qila olish xususiyatiga egadir [4].

Mentol ($C_{10}H_{20}O$) – yalpiz o'simligining efir moylari tarkibida uchraydigan terpenoid bo'lib, kristall modda, tiniq yoki oq rangda bo'lib, xona xaroratida qattiq va biroz yuqori temperaturada eriydi. Mentolning bir necha izomerlari mavjud, ba'zilar mentol hidli, ba'zilar hidsiz. Tabiatda kuchli aromatik hidga ega bo'lgan (-) mentol bo'lib, uning formal nomi(1R,2S,5R)-2-izopropil-5-metiltsiklogeksanol bo'ladi. Boshqa izomerlari izo mentol, neomentol, neoizomentol deb nomlanadi. Uning birikmalari kosmetika sohasida aromatik modda sifatida, tibbiyotda nerv kasalliklarida, ateroskleroz, gipertonik kasalliklarda, yuqori nafas organlarining shamollashida, migren, xoletsistit, stenokardiya, moddalarni almashinuvida, radikulit, yurak hapqirishiga taskinlik berishida, oshqozon ichak kasalliklarida, buyrak tosh kasalliklarida qo'llaniladi.

Mentol va uning hosilalari hozirgi kunda tibbiyotda ko'plab dori vositalari, parfyumeriya va oziq-ovqat sanoatida ham samarali qo'llanilmoqda. Mentol teriga surkalganda terini sovitadi, shu tufayli bosh og'riganida tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi, u antiseptik xossaga ham ega, burun va tomoqning shilliq pardalari yallig'langanda qo'llaniladi, og'riq qoldiruvchi dori va mazlarning tarkibiga kiritilgan [5].

(-) Mentol kuchli sovituvchi va tetiklantiruvchi vositalarning tarkibiga kiritilgan, (+) izomeri xossalari o'xshash ammo achchiq ta'mi va kam ta'sirchanligi bilan farq qiladi. (-) mentol (+) izomeriga nisbatan sovituvchi ta'siri to'rt marta ortiqroq. [6].

Turli xil dori vositalarining tarkibiga kirgan biologik faol moddalarning eruvchanlik muammolarini hal etish orqali farmakologik ta'sirini kengaytirish, zaharlilik xususiyatlarini kamaytirish bo'yicha glitsirrizinkislotasi (GK) ning bir qator suvda kam eriydigan birikmalar bilan supramolekulyar komplekslari olingan.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, GK bilan mentol (Mt) bilan hosil qilgan supramolekulyar kompleksining suvda eruvchanlik xususiyatlarini oshirish hamda qo'llanish miqdorini (dozasini) kamaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar ham dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Shuning uchun ushbu ishning maqsadi GK bilan mentolning turli xil molyar nisbatlardagi supramolekulyar kompleks birikmalarini olish, ularning fizik kimyoviy xususiyatlarini va spektral xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot ishida GK shirinmiya o'simligi ildizi tarkibidan adabiyotda ma'lum usul asosida olindi [7].

Olingan natijalar muhokamasi


GK bilan mentolning supramolekulyar komplekslari 1- sxemaga asosan olindi.

1 sxemadan ko'rinish turibdiki, Glitsirrizin kislotasining mentol bilan 2:1; 4:1; 9:1 molyar nisbatlardagi supramolekulyar komplekslari suv : aseton sistemasida olindi.

Olingan supramolekulyar kompleks birikmalarining ayrim fizik-kimyoviy xususiyatlari o'rganilib, ularning kimyoviy tuzilishlari IQ-spektroskopiya usulida tadqiq qilindi va ular 1-jadvalda keltirilgan.

Sxema 1.

GK bilan mentolning supramolekulyar komplekslarini olish



Bu yerda $n = 2, 4, 9$.

1-Jadvalda keltirilgan kattaliklardan ko'rinib turibdiki, olingan barcha kompleks birikmalar suvda yaxshi eriydi. Suyuqlanish harorati 200 va 230 °S oralig'ida ekanligini ko'rish mumkin bo'ladi.


1-jadval

GK va mentol supramolekulyar komplekslarining ba'zi fizik-kimyoviy tavsiflari

№	Moddalar	$T_{\text{suyuq}}, ^\circ\text{C}$	R_f^* Sistema)	Eruvchanligi	IQ spektri, cm^{-1}
1	GK: Mt 2:1	218-220 °C	0.8	Suv Spirt	3400- 3500(OH); 2924(CH ₃) 2857-(CH ₂); 1637-1725-(CO) 1085-(-O-)
2	GK: Mt 4:1	220-22 °C	0.9	Suv Spirt	3400- 3500(OH); 2924(CH ₃) 2857-(CH ₂); 1637-1725-(CO) 1085-(-O-)
3	GK: Mt 9:1	228-230 °C	0.8	Suv Spirt	3400- 3500(OH); 2924(CH ₃) 2857-(CH ₂); 1637-1725-(CO) 1085-(-O-)

Sistema : benzol : xloroform 3:1

Supramolekulyar komplekslarning tuzilishini o'rganishda organik molekulalarning elektromagnit nurlar bilan ta'sirlashuviga asoslangan fizikaviy usullar xususan, ularning IQ- (molekuladagi atomlarning tebranish chastotalari, $\lambda = 10^{-4} - 10^{-2} \text{ cm}^{-1}$) spektrlari keng qo'llaniladi. IQ spektroskopiya modda molekulasini tuzilishi va tarkibiga doir muammolarni xal qilish imkonini beradi. Bu usul yordamida alohida reagentlar va komplekslarning spektridagi farqlar asosida yangi ta'sirlashuv hamda bog'lar haqida xulosa chiqarish imkoni mavjudligi sababli olingan supramolekulyar komplekslarning tuzilishini tahlil qilishda ularning IQ –spektri ma'lumotlaridan foydalanildi.




1-rasm. GK ning mentol bilan hosil qilgan supramolekulyar kompleksining IQ-spektri.

1- jadvalda keltirigan IQ spektroskopiya natijalaridan ko‘rinib turibdiki, olingan kompleks birikmalar tarkibidagi gidroksil guruhlarining valent tebranishlari $3500-3400\text{cm}^{-1}$ sohada kuzatilsa, GK tarkibidagi karboksil guruhlarining karbonillari valent tebranishlari $1725-1690\text{cm}^{-1}$ sohada kuzatiladi. GK ning mentol bilan hosil qilgan supramolekulyar kompleksining IQ-spektrida $2924 - 2927\text{cm}^{-1}$ da esa- CH_3 guruhining asimmetrik valent tebranishlarini kuzatish mumkin. $2857-2860\text{cm}^{-1}$ chastotada - CH_2 guruhining kuchsiz simmetrik valent tebranishlari, 1085cm^{-1} sohada esa -O- guruhining valent tebranishlari mavjudligi qayd etildi.

L-(-)-mentol molekulasida xromofor guruhlar yo‘qligi sababli, ularning UB spektrlarida tavsifiy yutilishlar kuzatilmaydi. Shu sababli mentol va uning GK bilan kompleksining IQ spektrlari o‘rganildi.

Oradan 72 soat o'tgach, ya'ni dastlabki echkilarni birinchi qochirishdan oldin ular qoni tarkibida giprogesteronning miqdori 11 kunlik ko'rsatkichdan keyin 43,5% ga kamayishi kuzatildi. Bu holat odatda, estrofan ta'siri ostida tajriba hayvonlari tuxumdonidagi sariq tananing yalpisiga lizishlanishining boshlanishi bilan ta'min etiladi. Aynan mana shu davrda sinxronizatsiya qilingan hayvonlar yoppasiga (frontalravishda) qochiriladi. Demak, qo'rg'oqchilik kelgan yillari, mayda shoxli kavshovchilarni reproduktivlik xususiyatlarini to'lig'icha namoyon qilishlar uchun gormonal preparatlardan unumli foydalanish sohaning samarali jihatlari oshiradi. Foydalanilgan preparatlarni ta'sirini nazorat qilish uchun qon zardobining biokimyoviy ko'rsatkichlarini o'rganish talab qilinadi.

Bundan tashqari, tajriba hayvonlarining yoppasiga qochirish paytida ular organizmidagi o'talanish jarayonini yuqori darajada bo'lishini ta'minlash va har bir nasllik taka tomonidan qochirilishi mumkin bo'lgan ona echkilar sonini yuqori darajada bo'lishini ta'minlash maqsadida 3 kecha-kunduz mobaynida, qochirish uchun podaga qo'shilgan takalarni har kuni 450-500 gr atrofida konsentrat oziqa va ichimlik suvi bilan ta'minlash va kamida 2-3 soat davomida dam berish talab etilsa, qochirilayotgan ona echkilar esa dalada haydab boqilishini va ichimlilik suvi bilan ta'min etilishini ta'minlash talab etiladi.

Xulosa

Ko'yikmay qolgan mayda shoxli kavshovchi hayvonlarni sun'iy ravishda qochirish va ulardan olinadigan qo'zi va uloqlar sonini ko'paytirish maqsadida prostoglandinli preparatlardan unumli foydalanish bilan birga oziqlanish shart-sharoitlariga yetarlicha e'tibor berish ijobiy natijalar beradi.

Adabiyotlar

- 1.Аминова, А.Л. Новые биорегуляторы в биотехнике размножения крупного рогатого скота /А.Л. Аминова, И.Г. Зямилев, И.Х. Ситдилов, А.Б. Шарипов // Ветеринария.- 2006. - №1. - С. 39-42,
- 2.Калужский, В.Е. Магэстрофан - новый простагландин отечественного производства / В.Е. Калужский, Ю.Д. Клинский, А.М. Чомарев // Зоотехния. - 2000. -№10.- С. 25-27.
- 3.Кинзеев, В. Регулирование воспроизводительной функции мясного скота / В. Кинзеев // Молочное и мясное скотоводство. - 2000. - №7.- С. 9-14.
- 4.Клинский Ю.Д. Использование сыворотки жеребых кобыл – СЖК, для синхронизации охоты каракульских маток. Ж-л. Зоотехния 1990, № 10;- 23-25 с.
5. Мадисон, В. Синхронизация охоты крупного рогатого скота препаратами ПГФ2. / В. Мадисон // Молочное и мясное скотоводство. - 2000. - №7. - С. 9-14.

6.Мамаев, А. Коррекция половой функции коров / А. Мамаев, Л. Самусенко // Животноводство России. — 2009. — №4. — С. 39-40.

7.Христиановский П.И.Ж-л. Молочное и мясное скотоводство. - 2018.- №4.- С. 19-23.

UDK: 577.11

SOYAOQSILINI AJRITISHVA AMINOKISLOTALAR TARKIBINI O'RGANISH

EshboyevF.B¹,YusupovaE.G¹, PyakinaG.A¹, MejlumyanL.G¹,
ZiyavitdinovJ.F²,IshimovU.J², AzimovaSh.S¹.

¹O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi O'simlik moddolari kimyosi instituti.

²O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Bioorganik kimyo institute.

E-mail: farkhod.eshboev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida O'zbekistonda yetishtiriladigan 7 xil soya navlarining donlari tarkibidagi umumiy oqsillar miqdori o'rganilgan. Aniqlangan navlar orasidan eng oqsilga boy bo'lgan nav tarkibidagi oqsillar gel-filtratsiya usulida fraktsiyalarga ajratildi va ularning aminokislotalar tarkibi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: soya, oqsil, ε-aminokislotalar, HPLC, gel-filtratsiya, elektroforez, morfin, IFA.

Isolation and determination of composition of amino acids of soybean protein

Abstract.This study investigated the total protein content of the 7 different soybean varieties grown in Uzbekistan. Proteins of the highest protein content variety of soybean were divided into fractions by gel-filtration method, and their amino acid composition was studied.

Keywords:soybean, protein, ε-aminoacids, HPLC, gel-filtration, electrophores, morphine, ELISA.

Выделение и определение аминокислотного состава соевого белка

Аннотация. В статье изучалось общее содержание белка в 7 различных сортах сои, выращенных в Узбекистане. Белки в составе сорта с самым высоким содержанием, были разделены на фракции методом гель-фильтрации и изучен их аминокислотный состав.

Ключевые слова: соя, белок, ε-аминокислоты, ВЭЖХ, гель-фильтрация, электрофорез, морфин, ИФА.

Isolation and determination of the amino acid composition of soy protein

Abstract. The article studied the total protein content in 7 different soybean varieties grown in Uzbekistan. Proteins in the composition of the variety with the highest content were divided into fractions by gel filtration and their amino acid composition was studied.

Keywords: soy, protein, ε-amino acids, HPLC, gel filtration, electrophoresis, morphine, ELISA.

Soya o'simligi oqsilga boy o'simlik hisoblanadi, chunki soya doni massasining 30-50 % oqsillardan iborat va bu umumiy oqsilning 65-85 % ini tashkil qiladi. Bu esa ko'p miqdorda soya oqsilini ajratib olish va turli maqsadlarda foydalanish imkoniyatini beradi [1]. So'nggi yillarda ushbu oqsildan tibbiyot sohasida (gidrogellar, suyak plombalari, antibakterial polipeptidlar olishda), farmasevtika sohasida (IFA test-sistemalari ishlab chiqarishda) va oziq-ovqat sanoatida (bolalar kashasi, kolbasa va x.) xomashyo sifatida keng miqyosda foydalanilmoqda [2]. Shuning uchun ham bu oqsilni maqsadga qarab, ajratishning yangi usullarini ishlab chiqish, xususiyatlarini o'rganish va inson faoliyatining turli xil sohalarida foydalanishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Shu kunga qadar soya oqsilini ajratishning bir qator usullari ishlab chiqilgan bo'lib ular bir-biridan ekstraksya qilish usuli, ajratishda foydalanilgan erituvchilarining turli xilligi va boshqa shu kabi xususiyatlari bilan farqlanadi [3,4,5].

Bu tadqiqot ishining maqsadi, O'zbekistonda yetishtiriladigan asosiy soya navlari doni tarkibidagi oqsillar miqdorini aniqlash, ular orasidan eng oqsilga boy bo'lgan nav tarkibidagi oqsillarning aminokislotalar tarkibini o'rganish va u asosida narkotik moddalar iste'mol qiluvchi shaxslarni diagnostika qilishda qo'llaniladigan immunoferment analizi (IFA) uchun yuqori spetsifiklikka va sorbtion xususiyatga ega bo'lgan morfin kon'yugati sintezida foydalanish uchun eng optimal fraktsiyani aniqlashdir. Chunki, narkotik (opiatlar) qabul qiluvchi shaxslar qon zardobidan narkotik moddalarga qarshi hosil bo'lgan antitanalarni (IgA, IgM.) aniqlashda qo'llaniladigan immunoferment

tahlilining asosiy tarkibiy qismini narkotik modda antigeni ya'ni, gapten/oqsil kon'yugati tashkil qiladi. Sintez qilingan kon'yugat yuqori darajadagi adsorbsion qobiliyatga va spetsifiklikka ega bo'lishi zarur. Morfin-oqsil kon'yugatlarini olishda tanlangan oqsil tarkibidagi aminokislotalarning ahamiyati juda katta. Bunda gapten karboksil guruxi bilan oqsil tarkibidagi aminokislotalarning erkin amino guruhlari orasida kovalent bog' hosil qilish orqali kon'yugatlar olinadi. Shuning uchun tanlangan oqsil tarkibida ϵ -aminokislotalarning (lizin, arginin) miqdori qancha yuqori bo'lsa kon'yugatsiyalanish unumdorligi ham shuncha katta bo'ladi. Shu kunga qadar mualliflar tomonidan kon'yugatlar sintez qilish uchun buqa zardobi oqsili (BSA), ovalbumin, lizotsim, globulin kabi oqsillardan foydalanilgan [6,7]. Biroq bu oqsillar odam organizmida morfin-oqsil kon'yugatlari bilan umumiy antigen determinant uchastkalariga ega bo'lganligi uchun IFA tahlilida yolg'on natijalar berishi mumkin.

Metodlar

Soya o'simligi donida umumiy oqsillarni ajratish. Mazkur tadqiqot ishida 7 xil soya navlariga mansub soya o'simliklarining donlaridan umumiy oqsillar ajratildi. Soya donlaridan oqsillarni ajratish quyidagicha amalga oshirildi: har bir soya navi donidan 50 grdan soya donlari gomogenizator yordamida un holatiga kelguncha maydalandi va xona haroratida, bir soat davomida aseton bilan 10:1 nisbatda yog'sizlantirildi. Gomogenat filtrirlandi va filterda qolgan ekstrakt 24 soat davomida quritildi. Quruq holdagi yog'sizlantirilgan gomogenat 2 soat davomida, aralashtirib turgan holda, xona haroratida 0,2Mbufer (0,5 MTris-OH pH 7,4; 10% SDS; 0,5 MEDTA) bilan 10:1 nisbatda ekstraksiya qilindi. Keyin ekstrakt 30 daqiqa davomida 4500 aylanish tezligida sentrifuga qilindi va supernatant distillangan suvga qarshi 12 soat davomida dializ qilindi. Dializdan so'ng namunalar tarkibidagi umumiy oqsillar miqdori Louri usulida [8] aniqlandi va liofil quritildi.

Oqsillarning gel-elektroforez tahlili. Quruq holda olingan oqsil namunalarining poliakrilamid gelidagi elektroforez analizi Lemli usuli bo'yicha amalga oshirildi [9]. Elektroforez jarayoni «Mini-PROTEAN II Electrophoretic Cell» (BIO-RAD, AQSH) jihozida olib borildi. Bunda ikki xil gel tayyorlandi: Asosiy gel (Tris HCl (pH-8.8) 244 mM; Bis-Acrylamide 10%; TEMED 0.08%; APS 0.08%; SDS 0,01 %) va konsentirlovchi gel (Tris HCl (pH-6.8) 125 mM; Bis-Acrylamide 4%; TEMED 0.05%; APS 0.05%; SDS 0,01 %). Tris OH 25 mM, glitsin 192 mM va 0,2 % li SDS eritmasi elektrod buferi sifatida qo'llanildi. Namunalar 20 mkl da 60 mkg dan tayyorlandi va gelga tomizishdan avval ularni 0,004% bromfenol ko'ki (Sigma, AQSh), 10 % merkaptotanol va 4 % SDS eritmalari bilan 3 daqiqa davomida 90 °C da denaturatsiya qilindi. Namunalar kumassi G -250 ning suvdagi eritmasi bilan bo'yaldi. Yuvuvchi bufer sifatida uksus kislotasi, etanol va suv (10:10:80) eritmasidan foydalanildi.

Namunalar konsentirlovchi geldan asosiy gelga o'tgunga qadar -40 mA tok kuchi bilan va asosiy gelda jarayon yakunlangunga qadar -80 mA tok kuchi bilan jarayon olib borildi.

Umumiy soya oqsillarini gel-filtratsiya usuli yordamida fraksiyalarga ajratish. Tadqiqot ishida soya donidan ajratilgan oqsillar gel-filtratsiya usuli yordamida yuqori molekulyar massali qism va past molekulyar massali qismlarga ajratildi. Bunda quruq oqsil namunalari analitik tarozida o'lchab olindi va fosfat buferida eritildi, so'ng ohistalik bilan gel-filtratsiya kolonkasiga yuklandi. Tadqiqot ishida 2,5 x 70 sm o'lchamli gel-filtratsiya uchun mo'ljallangan kolonka qo'llanildi va sorbent sifatida Sefadeks G-75 gelidan foydalanildi. Shuningdek fosfat buferidan (1 X, pH 7,4) mobil yuvuvchi bufer sifatida foydalanildi, suyuqlik harakatlanish tezligi -1 ml/daq. Kalonkadan chiqqan suyuqlik 2,5 ml dan fraksiyalarka ajratilgan holda kollektor yordamida yig'ib borildi. Fraksiyalarning zichligi spektrofotometr yordamida 260/280 nm to'liq uzunligida aniqlandi. Tarkibida oqsil saqlovchi fraksiyalar birlashtirildi va tun davomida distillangan suvga qarshi dializ qilindi. Shundan so'ng oqsillar liofil quritildi.

Aminokislotalar tarkibini aniqlash. Oqsil fraksiyalari namunalarining gidrolizi 5,7 N HCl yordamida vakuum sharoitda 24 soat davomida 110 °C da amalga oshirildi.

Aminokislotalar tarkibini aniqlash feniltiokarbonil (FTK) hosilalarining sinteziga asoslangan Stiven A., Koen D [10] usuli bo'yicha amalga oshirildi. FTK-aminokislotalarining identifikatsiyasi HPLC (Agilent Technologies 1200) ning 75x4,6 Discovery HS C18 kolonkasida olib borildi. HPLC tahlili quyidagi sharoitda amalga oshirildi: A eritma: 0,14 M CH₃COONa + 0,05 % TEA, pH 6,4; B eritma: CH₃CN. Mobil fazaning tezligi 1,2 ml/min, nur sindirish ko'rsatgichi 269 nm. Gradient

%B/min: 1-6 %/0-2,5 min; 6-30 % /2,51- 40 min; 30-60 %/40,1-45 min; 60-60 %/45,1-50 min; 60-0 %/50,1-55 min.

Olingan natijalar va ularning tahlili


Bu tadqiqotda O'zbekiston Sholichilik institutidan olib kelingan 7 xil soya navlari donidan umumiy oqsillari ajratildi. Soya o'simligi donidan oqsillar asosan kuchli ishqoriy muhitda ekstraksiya qilish yo'li bilan olinadi [4]. Biroq bunday usulda ajratilgan oqsillar tarkibi jihatdan yuqori tozalikka ega bo'lmaydi. Mazkur ishda tanlangan ekstraksiya usulida ajratilgan oqsillarning tozalik darajasi birmuncha yuqori bo'ldi. Soya navlaridan ajratilgan oqsillar miqdori quyida keltirilgan (1-jadval).

Tanlangan navlar						
O'zbek-2	O'zbek-6	Nafis	Orzu	Parvoz	5280 navi	6405 navi
23,74	30,82	16,66	14,40	21,84	21,86	26,57


1-jadval. Turli navlardan ajratilgan umumiy oqsillar miqdori % hisobida

Jadvaldagi natijalarga ko'ra, O'zbek-6 navi eng oqsilga boy (30,82 %) nav ekanligi aniqlandi. Yuqorida keltirilgan navlardan ajratilgan oqsillarning poliakrilamid gelidagi elektroforez tahlili amalga oshirildi (1-rasm). Elektroforez natijalariga ko'ra, oqsillar miqdori turlicha bo'lishiga qaramay oqsillarning elektroforegrammasi bir biridan deyarli farq qilmadi.

O'zbek-6 navidan ajratilgan oqsillar gel-filtratsiya usulida 2 ta fraksiyalarga: yuqori molekulyar fraksiya va kichik molekulyar fraksiyalarga ajratildi. Tozalangan fraksiyalarning parallel ravishda poliakrilamid gelida elektroforez tahlili amalga oshirildi. Olib borilgan gel elektroforez natijalariga ko'ra yuqori molekulyar fraksiya 135-40 kD molekulyar massaga ega bo'lgan oqsillar va quyi molekulyar fraksiyaning tarkibida 35-17 kD molekulyar massali oqsillar borligi aniqlandi (2-rasm).




1-rasm. Umumiy soya oqsillarining elektroforegrammasi. M-marker; 1-6405 navi; 2-5280 navi; 3-Parvoz; 4-Orzu; 5-Nafis; 6-O'zbek-6; 7-O'zbek-2.




2-rasm. Fraksiyalarga ajratilgan soya oqsilining elektroforegrammasi. 1-marker; 2- quyi molekular fraksiya; 3- yuqori molekular fraksiya; 4- umumiy soya oqsili;

Aynan shu fraksiyalarning aminokislotalar tarkibi o'rganildi. Aminokislotalar tarkibini o'rganishda har bir namuna 3 marta qayta tekshirildi va olingan natijalarning o'zgarmasligiga shonch hosil qilindi. Olingan natijalar quyida keltirilgan (3,4-rasmlar; 2-jadval).



3-rasm. "O'zbek-6" soya navi oqsillarining yuqori molekular fraksiyasini aminokislotalar tahlili



4-rasm. “O‘zbek-6” soya navi oqsillarining quyi molekulyar fraksiyasini aminokislotalar tahlili

2- jadval.

Soya oqsili fraksiyalarining aminokislotalar tarkibi % hisobida

Amino kislotalar	Yuqori molekulyar fraksiya	Quyi molekulyar fraksiya	Amino kislotalar	Yuqori molekulyar fraksiya	Quyi molekulyar fraksiya
<i>Asp</i>	4,9436	7,9863	<i>Pro</i>	2,69	1,8186
<i>Glu</i>	0	10,735	<i>Tyr</i>	2,159	1,3291
<i>Ser</i>	3,2848	2,7102	<i>Val</i>	3,9094	2,0003
<i>Gly</i>	3,923	2,4028	<i>Met</i>	0	0,2945
<i>Asn</i>	0	0	<i>Ile</i>	5,502	3,1467
<i>Gln</i>	0	0	<i>Leu</i>	6,7436	3,1123
<i>Sys</i>	0,5014	0,7322	<i>His</i>	0	0
<i>Thr</i>	2,2597	1,632	<i>Trp</i>	0	0
<i>Arg</i>	6,8781	3,6215	<i>Phe</i>	2,4034	1,3404
<i>Ala</i>	2,9997	1,9397	<i>Lys</i>	1,2983	0,7047

Aminokislotalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, soya oqsilining yuqori molekulyar fraksiyasi past molekulyar fraksiyaga qaraganda ko‘p miqdorda ϵ -aminokislotalar tutishi aniqlandi. Bu esa soya oqsilidan ajratilgan yuqori molekulyar oqsillardan narkotik moddalar (opiatlar) iste‘mol qiluvchi shaxslarni aniqlashda qo‘llaniladigan IFA test to‘plamlari uchun morfin-oqsil kon‘yugatlarini sintez qilish maqsadida foydalanish imkonini beradi.

Adabiyotlar

- Lawrence J., Pamela W., Richard G., Soybeans Chemistry, Production, Processing, and Utilization, Academic Press and AOCS Press, 2015, 412-426.
- Chen F., Fang W., Zheng X., Huilin S., Yong F., Xiaozhi T., and Xinchun Sh., Characterization of Soybean Protein Adhesives Modified by Xanthan Gum, 2018, 1-13.
- Yongjae L., Haerang Ch., Jong-Bang E., Protein Extraction and Purification of Soybean Flakes and Meals Using a Lime Treatment Followed by Ultrafiltration. International Journal Of Modern Engineering Research (IJMER), Vol. 5, Iss.3, Mar. 2015., 7-16.
- Campbell K.A., Glatz C.E., Johnson L.A., Jung S., de Moura J.M.N., Kapchie V., Murphy P. Advances in aqueous extraction processing of soybeans. J. Am. Oil Chem. Soc. 88: 2011., 449-465.
- Kim T.H., Lee Y.J. Extraction and purification of cowpea, soybean, and fishmeal protein using membrane technology. 2014., 732-736.
- Anton P, Leff G., Mex. Pat. EP 1767221 A2 , European Patent Application, Art.158(3) EPA. 2007.
- A. Akbarzadeh, D. Norouzian and all. Rapid latex agglutination inhibition reaction test for morphine in urine. Research communications 2002., 57-60.

8. Р. Скоупс. методы очистки белков. «МИР», Москва, 1985., 341-342.
9. Martin H., Basic Methods for the Biochemical Lab., Springer-Verlag Berlin Heidelberg 2006., 7-8.
10. Steven A., Cohen David J. Analytical Biochemistry, (1988). V.17.-№ 1.1-16.

УДК:577.32

MITOXONDRIYA ATF GA BOG'LIQ K^+ KANALI FAOLLASHUVINI RUTAN, GETASAN VA EUFORBIN POLIFENOLLARI TA'SIRIDA BOSHQARISH

Usvanova F.A.¹, Fayziyeva Z.Sh.², Isamuhamedova D.R.², Mamatova Z.A.,
Abdullayeva G.T.³, Asrarov M.I.³

¹I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

²O'zbekiston Milliy universiteti

³Biokimyo va biofizika instituti

Annotasiya. Ushbu maqolada bazi polifenol birikmalarning kalamush jigari mitoxondriyasi ATF ga bogliq K^+ kanali faolligiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotlarda rutan, getasan va euforbin polifenollari ATF ga bogliq K^+ kanaliga ATF ning ingibirolovchi ta'sirini kamaytirishi va mitoxondriya membranasi K^+ ionlariga nisbatan o'tkazuvchanligini faollashtirdi.

Kalit so'zlar: ATF, polifenol birikmalar, mitoxondriya, ATF ga bogliq K^+ kanali (mito K^+ _{ATF}-kanali)

Регуляция АТФ зависимого калиевого канала митохондрий при действии полифенолов рутана, гетасана и эуфорбина

Аннотация. В данной статье изучены действия активностей некоторых полифенольных соединений АТФ зависимого K^+ канала митохондрий печени крыс. Установлено, что фенольные соединения: рутан, эуфорбин и гетасан уменьшают ингибиторное действие АТФ на АТФ зависимого K^+ канала митохондрий и оказывают активирующее действие на проницаемость иона K^+ в митохондриальных мембранах печени крыс.

Ключевые слова: АТФ, полифенольные соединения, митохондрий, АТФ зависимый K^+ канал (mito K^+ _{ATF}).

Regulation of ATP-dependent potassium channel of the rat liver mitochondria under the action of polyphenols rutan, hetasan and euphorbia

Abstract. In this article the active activity of some polyphenolic compounds of ATP-dependent K^+ channel of rat liver mitochondria was studied. It was found that phenolic compounds: Rutan, euforbin and GTA San reduces the inhibitory effect of ATP on ATP-dependent K^+ channel of mitochondria and have an activating effect on the permeability of the K^+ ion in the mitochondrial membranes of the rat liver.

Keywords: ATP, polyphenolic compounds, mitochondria, ATP-dependent potassium channels (mito K^+ _{ATP}-channels)/

Mavzuning dolzarbligi

Har qanday patologik holatning rivojlanishi asosida Mx lar fiziologiyasining buzilishi, hamda kislorod gomeostazi bilan bog'liq. Patologiyalar rivojlanish mexanizmlarini chuqur o'rganish Mx lardagi Mito K^+ _{ATF}-kanali faolligi muhim ekanligini ko'rsatdi. [6; 8]. Mito K^+ _{ATF}-kanali Mx lar fiziologiyasining normal kechishida, Mx hajmining barqaror bo'lishida [4]. Hamda organizmning turli ekstremal ta'sirlarga adaptatsiya jara'ida ahamiyatli hisoblanadi [8]. Manbaalar, Mito K^+ _{ATF}-kanali organizmni gipoksiyaga adaptatsiya mexanizmini ta'minlanishida muhim ishtirok etishi qayd qilingan [5]. Mito K^+ _{ATF}-kanali ATF-ga bog'liq kaliy kanallar oilasiga mansub bo'lib, ushbu turdagi barcha kanallar ATF ning belgilangan fiziologik konsentratsiyasi ta'sirida ingibirlanadi. Bundan tashqari, Mito K^+ _{ATF}-kanali K^+ ionlari uchun selektiv o'tkazuvchanlik hossasiga ega [4]. Mito K^+ _{ATF}-kanali e'kitoplazmatik membranadan K^+ ionlariga nisbatan o'tkazuvchanligining o'zgarishi membranani depolyarizatsiya holatiga olib keladi. Mito K^+ _{ATF}-kanali ATF dan tashqari sulfonilmochevina preparatlari ta'sirida boshqariladi. Bundan tashqari, Mito K^+ _{ATF}-kanali faolligini modulyatorlardan: aktivator (diazoksid, nikorandil) va ingibitorlar (ATF, glibinklamid) regulatsiya qilishda foydalaniladi [2]. Shuningdek Mito K^+ _{ATF}-kanali farmakologik agentlar uchun potensial "nishon"

sifatida qaralib, turli o'simlik faol moddalar ta'sirida boshqariladi. Ya'ni $\text{MitoK}^+_{\text{ATF}}$ -kanali disfunktsiyasini o'simlik faol birikmalari ta'sirida korreksiyalanadi.

Shuning uchun $\text{MitoK}^+_{\text{ATF}}$ -kanali faoliyatini o'simlik biologik faol moddalar ta'sirida boshqarish mexanizmlarini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, tibbiyot va farmakologiya sohalarida istiqbolli natijalarga olib keladi.

Tadqiqot materiallari va usullari

Kalamush jigari mitoxondriyalari differensial sentrifugalash *Schneider* [9] usuli yordamida ajratib olindi. Ajratish muhiti tarkibi: 250 mM saxaroza, 10 mM tris-xlorid, 1 mM EDTA, pH 7,4.


Mitoxondriyaning ATFga bog'liq kaliy kanali o'tkazuvchanligi (0,3-0,4 Mg/MI) 3 ml yacheykalarda 540 nm to'lqin uzunligida optik zichlikning o'zgarishi bo'yicha aniqlandi. IM quyidagicha: 125 mM KCl, 10 mM Hepes, 5 mM suksinat, 1 mM MgCl_2 , 2,5 mM K_2HPO_4 , 2,5 mM KH_2PO_4 , 0,005 mM rotenon va 0,001 mM oligomisin (pH=7,4) [1].

Olingan natijalar tahlili

$\text{MitoK}^+_{\text{ATF}}$ -kanali faoliyatini modulyatorlar ta'sirida boshqarilishi o'rganilayotgan hujayra turiga, tajriba sharoitiga hamda modulyatorlar va korreksiya sifatida tadqiq qilinaётgan moddalarning qo'llanilgan konsentrsiyalari bog'liq. Masalan, diazoksid va nikorandil $\text{MitoK}^+_{\text{ATF}}$ -kanali faoliyatini faollashtirish bilan bir qatorda, yuqori konsentrsiyalarda K^+_{ATF} kanaliga ham faollashtiradi. Biz $\text{MitoK}^+_{\text{ATF}}$ -kanali disfunktsiyasini rutan, getasan va euforbin polifenollari yordamida boshqarilish mexanizmlarini o'rganish ustida ilmiy tadqiqotlar olib bordik. Kanal faoliyatini izdan chiqarish maqsadida tajribalarda ATF ingibitoridan foydalandik.

Inkubasion muhitga ATF ning 200 mkM miqdorini qo'shish orqali $\text{MitoK}^+_{\text{ATF}}$ -kanalining K^+ ionlariga nisbatan o'tkazuvchanligini nazoratga nisbatan o'zgarish aniqlandi. Bu sharoitda ATF $\text{MitoK}^+_{\text{ATF}}$ -kanali faolligiga salbiy ta'sir qilib membranadan K^+ ionlari o'tishini ingibirlandi. K^+ ionlari o'tkazuvchanligining nazoratga nisbatan ingibirlanishi $83\% \pm 1,0$ ni tashkil qildi. ATF mavjud sharoitdagi $\text{MitoK}^+_{\text{ATF}}$ -kanali faoliyati rutanning ($5 < 20$ mkM) konsentrsiyalar diapazonida boshqarildi. Rutanning ($5 < 20$ mkM) konsentrsiyalari ta'sirida $\text{MitoK}^+_{\text{ATF}}$ faoliti boshqarildi. Rutan 20 mkM konsentrsiyada kanaldan K^+ ionlari o'tkazuvchanligini nazoratga nisbatan $96,3\% \pm 0,7$ oshirib $\text{MitoK}^+_{\text{ATF}}$ faolligiga samarali ta'sir qildi. Demak, rutan ATF ning $\text{MitoK}^+_{\text{ATF}}$ -kanaliga zararli ta'sirini kamaytirib $\text{MitoK}^+_{\text{ATF}}$ -kanaliga korreksiyalovchi ta'sir qildi (1-rasm.).


Manbaalarda, $\text{MitoK}^+_{\text{ATF}}$ -kanali faolligini boshqarishda qo'l keluvchi modulyatorlar haqida ma'lumotlar keng e'ritilgan [3]. Eksperimental sinov tajribalarida ushbu modulyatorlardan diazoksid va nikorandil kabilardan foydalaniladi [8]. Diazoksid ta'sirida $\text{MitoK}^+_{\text{ATF}}$ kanali ochiladi va natijada Mx matriksida K^+ ionlari konsentrsiyasi oshishi tajribalarda isbotlangan [7]. Biofaol moddalarning $\text{MitoK}^+_{\text{ATF}}$ -kanaliga ta'sirini kanal modulyatorlari bilan ta'siri bilan taqqosiy ko'rinishda o'rganish moddaning farmakologik qiymatini oshiradi. Shu sababli, keyingi tajribalarimiz $\text{MitoK}^+_{\text{ATF}}$ -kanali faollashuviga diazoksid qo'llanilgan sharoitda davom ettirildi.



1-rasm. Mitoxondriya ATF ga bog'liq K^+ kanali faollashuvini rutan polifenoli ta'sirida boshqarish.

Izoh: 125 mM KCl, 10 mM Hepes, 5 mM suksinat, 1 mM MgCl₂, 2,5 mM K₂HPO₄, 2,5 mM KH₂PO₄, 0,005 mM rotenon va 0,001 mM oligomisin, ATF 200 mkM (pH- 7,4); ($n=6$)


Tajribalarda IM ga diazoksidning 10 mkM miqdorini qo'shish ATF ishtirokidagi guruhga nisbatan MitoK⁺_{ATF}-kanalidan K⁺ ionlari o'tkazuvchanligini oshirdi. Bu ko'rsatkichlar diazoksid ta'sirida MitoK⁺_{ATF}-kanali ochiq holatga o'tganligini isbotlaydi. Bu sharoitda rutan polifenoli diazoksid ta'sirini yanada faollashtirib, MitoK⁺_{ATF}-kanaliga korrektsiyalovchi ta'sir qildi (2-rasm).



2-rasm. Mitoxondriya ATF ga bog'liq K⁺ kanali faollashuvini rutan va diazoksid ta'sirida boshqarish.

Izoh: 125 mM KCl, 10 mM Hepes, 5 mM suksinat, 1 mM MgCl₂, 2,5 mM K₂HPO₄, 2,5 mM KH₂PO₄, 0,005 mM rotenon va 0,001 mM oligomisin, ATF 200 mkM, diazoksid 10 mkM (pH- 7,4); ($n=6$).

Xuddi shuningdek ta'sir getasan va euforbin polifenollari ishtirokida ham kuzatildi. Biroq, getasan va euforbin polifenollari rutanga nisbatan biroz yuqori konsentratsiyalarda MitoK⁺_{ATF}-kanali faolligini boshqarishi aniqlandi. Tajribalarda euforbin (10<30 MkM) konsentratsiyalar diapazonida MitoK⁺_{ATF}-kanali faolligini boshqargan bo'lsa, getasan ta'sirida bu ko'rsatkichlar (10<25 mkM) ni tashkil qildi (3 –rasm (a)).




3-rasm. Mitoxondriya ATF ga bog'liq K⁺ kanali faollashuvini euforbin va getasan polifenollari ta'sirida boshqarish.

Izoh: 125 mM KCl, 10 mM Hepes, 5 mM suksinat, 1 mM MgCl₂, 2,5 mM K₂HPO₄, 2,5 mM KH₂PO₄, 0,005 mM rotenon va 0,001 mM oligomisin, ATF 200 mkM (pH- 7,4); ($n=6$).

MitoK⁺_{/ATF} kanalidan ATF taʼsirida ingibirlangan K⁺ ionlari oʻtkazuvchanligi getasan taʼsirida 93.3%±0,8 ga, euforbin taʼsirida 90.3%±0,9 nazoratga nisbatan oshdi (3-rasm (b)).

Getasan va euforbin polifenollari haM rutan polifenoli singari diozakosid bilan birgalikda MitoK⁺_{/ATF}-kanaliga samarali taʼsir qildi. Biroq getasan va euforbinning diazoksidi bilan birgalikdagi MitoK⁺_{/ATF}-kanaliga taʼsiri yuqori seriyadagi tajribalardagi kabi moddalarning yuqori konsentratsiyalar taʼsiri natijasida kuzatildi (4-rasm (a); (b)).



4-rasm. Mitoxondriya ATF ga bogʻliq K⁺ kanali faollashuvini euforbin (a) va getasan (b) polifenollarining diazoksidi bilan birgalikdagi taʼsirida boshqarish.

Izoh: 125 mMKCl, 10 mM HEPES, 5 mM suksinat, 1 mMMgCl₂, 2,5 mMK₂HPO₄, 2,5 mMKH₂PO₄, 0,005 mM rotenon va 0,001 mM oligomisin, ATF 200 mkM, diazoksidi 10 mkM (pH- 7,4); (n=6).

Olingan natijalar rutan, getasan va euforbin polifenollari MitoK⁺_{/ATF}-kanali funksional faolligini regulatsiya qilish xossasiga ega ekanligini bildiradi. Ular MitoK⁺_{/ATF} kanalidan K⁺ ionlariga nisbatan oʻtkazuvchanligini oshirib, mitoxondriyaga korrektsiyalovchi taʼsir qildi. Tajribalarda polifenollarning konsentratsiyasini oshirib borish, ularning yuqorida qayd qilingan taʼsir faolligini saqlab qoldi.

Tadqiqotlarda rutan, getasan va euforbin polifenollari MitoK⁺_{/ATF}-kanalini faollashtiruvchi biofaol moddalar ekanligi aniqlandi. Rutan, getasan va euforbin polifenollari MitoK⁺_{/ATF}-kanalini boshqaruvchanlik xossaga ega ekanligi istiqbolda kardioproteksiyada hamda gipoksiyada qoʻllanuvchi yangi dorivor vositalarining yaratishda foydalanish mumkin.

Adabiyotlar

1. Вадзюк О.Б., Костерин С.А. Индуцированное диазоксидом набухание митохондрий миометрия крыс как свидетельство активации АТФ-чувствительного K⁺-канала // Укр. биохим. журн. – 2008. – Т. 80(5). – С. 45-51.
2. Ardehali H., O'Rourke B. Mitochondrial KATP channels in cell survival and death // J Mol Cell Cardiol. – 2005. – V. 39(1). P. 7-16.
3. Er F., Michels G., Gassanov N., Rivero F., Hoppe U.C. Testosterone induces cytoprotection by activating ATP-sensitive K⁺ channels in the cardiac mitochondrial inner membrane // Circulation. – 2004. – V. 110(19). – P. 3100-3107.
4. Cardoso A.R., Queliconi B.B., Kowaltowski A.J. Mitochondrial ion transport pathways: Role in metabolic diseases // Biochimica et Biophysica Acta. – 2010. – V. 1797(6-7). – P. 832-838.
5. Garlid K.D., Paucek P., Mitochondrial potassium transport: the K⁺ cycle, Biochim. Biophys. Acta. – 2003. – V. 1606(1-3). – P. 23-41.
6. Grover G., Garlid K. ATP-sensitive potassium channels: a review of their cardioprotective pharmacology // J.Mol.Cell Cardiol. – 2000 – V. 32(4). – P. 677-695.
7. Kane G.C., Behfar A., Yamada S., Terzic C. P., O'Coilain F., Reyes S., Dzeja P.P., Miki T., Seino S., Terzic A. ATP-sensitive K⁺ channel knockout compromises the metabolic

- benefit of exercise training, resulting in cardiac deficits // Diabetes. – 2004. – V.53(3). – P. 169-175.
8. Oldenburg O., Cohen M.V., Downey J.M. Mitochondrial K_{ATP} channels in preconditioning. // J Mol. Cell. Cardiol. – 2003. – V.35. – P. 569-575.
9. Schneider W.C., Hogeboom G.H. Cytochemical studies of mammalian tissues: the isolation of cell components by differential centrifugation // Cancer. Res. – 1951. – 11. – P. 1-22.

UDK: 577.11

**TRANSFER VEKTORLARNI *PICHIA PASTORIS* ACHITQISIGA KIRITISHNING
ELEKTROPORATSIYA SHAROITLARINI OPTIMALLASHTIRISH**

**Ashirov O.N., Sasmakov S.A., Abdurahmonov J.M., Xasanov Sh.Sh., Sagdullayev T.X.,
Azimova Sh.S.**

E-mail: oybek2425@mail.ru

*O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi S.Yu. Yunusov nomidagi O'simlik moddalari
kimyosi instituti*

Annotatsiya. Tadqiqot ishida transfer vektorlarni *Pichia pastoris* achitqisiga elektroporatsiya usuli yordamida kiritishning maqbul sharoitlari o'rganildi. Ushbu maqsadda *Pichia pastoris* KM71 shtammiga pHIL-D2 transfer vektori (plazmid) elektroporatsiya usuli yordamida kiritildi. DNK miqdori 0,5 mkg eng optimal hisoblanib, bizning sharoitda $45 \cdot 10^4$ ta transformantlar hosil bo'lishiga erishildi. DNK miqdori ortib borishi, shuningdek halqa shaklidagi vektorlar elektroporatsiya unumini pasayishiga olib kelishi aniqlandi. Achitqi hujayralari zichligi $OD_{600}=2,0$ bo'lganda eng yuqori natija qayd etilib, transformantlar soni $53 \cdot 10^4$ tani tashkil etdi.

Kalit so'zlar: DNK, ekspressiya, elektroporatsiya, optik zichlik, *Pichia pastoris*, transfer vektorlar, transformatsiya.

**Оптимизация условий электропорации для внедрения трансферных векторов в дрожжи
*Pichia pastoris***

Аннотация. В ходе исследования были изучены оптимальные условия электропорации для внедрения трансферных векторов в дрожжи *Pichia pastoris*. Для этого штамм KM71 *Pichia pastoris* трансформировали вектором (плазмидой) pHIL-D2. Количество ДНК 0,5 мкг оказалось наиболее оптимальным, который привело образованию 45×10^4 трансформантов в наших условиях. Было обнаружено, что увеличение содержания ДНК и кольцевая форма снижает эффективность электропорации. Самый высокий результат был зафиксирован, когда плотность дрожжевых клеток составляла $OD_{600} = 2,0$ (53×10^4).

Ключевые слова: ДНК, экспрессия, электропорация, оптическая плотность, *Pichia pastoris*, трансферные векторы, трансформация.

**Optimization of the conditions of electroporation for introduction of transfer vectors into yeast
*Pichia pastoris***

Abstract. The optimal electroporation conditions for the introduction of transfer vectors in *Pichia pastoris* yeast were studied. The strain KM71 *Pichia pastoris* was transformed with the vector (plasmid) pHIL-D2. The amount of DNA of 0,5 μ g was the most optimal, which led to the formation of 45×10^4 transformants. It has been established that the increase of DNA amount and the ring form reduces electroporation efficiency. The highest result was recorded when the density of yeast cells was $OD_{600} = 2,0$ (53×10^4).

Keywords: DNA, electroporation, expression, optical density, *Pichia pastoris*, transfer vectors, transformation.

Kirish

Pichia pastoris rekombinant oqsillar ishlab chiqarishda keng qo'llanilayotgan ekspressiya tizimlaridan biri hisoblanadi. Har qanday organizmning molekulyar-genetik manipulyatsiyasining kaliti bu DNK ketma-ketligini qabul qilish va saqlash qobiliyatidir. Ekspressiya jarayoni turg'un bo'lishi uchun vektor plazmidalar hujayra genomiga o'rnavchilik qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, lekin transformatsiya unumi ancha past [1-3]. Bunga sabab shuki, boshqa achitqi tizimlaridan farqli o'laroq

plazmida *P. pastoris* xujayra xromosomal DNK sining maxsus qismiga ulanishi kerak [4]. DNKlar *P. pastoris* ga kiritilishining umumiy xususiyatlari odatda *Saccharomyces cerevisiae* ga o'xshashdir. Vektorlarni xujayrada avtonom replikatsilalanish xususiyatli elementlar sifatida saqlab turish yoki *P. pastoris* genomiga kiritish mumkin [5-8]. Integratsiya jarayoni *Saccharomyces cerevisiae* da bo'lgani kabi, vektor va *P. pastoris* genomi tomonidan taqsimlangan ketma-ketliklar o'rtasida gomologik rekombinatsiya natijasida sodir bo'ladi [9]. Shunday qilib, genlarni maqsadli yo'naltirish va almashtirish (genlarni taqsimlash) strategiyalari orqali genomning tanlangan pozitsiyalarida vektor ketma-ketliklarini ta'minlash *P. pastoris* da osongina amalga oshiriladi.

*Pichia pastoris*ga DNKni kiritishning asosan to'rtta usuli tarqalgan bo'lib ular qulaylik, transformatsiya tezligi va boshqa xususiyatlari bilan farqlanadi (1-jadval).

1-jadval.

P. pastoris transformatsiya usulining umumiy xususiyatlari.

Metodlar	Transformatsiya unumi/mkg DNK	Qulayligi	*Multikopi integratsiya
Sferoplast	10^5	Past	Bor
Elektroporatsiya	10^5	Yuqori	Bor
PEG ₁₀₀₀	10^3	Yuqori	Bor
LiCl	10^2	Yuqori	Bor

*- xujayra genomiga bir necha nusxa genning kirishi.

To'rtta transformatsiya protseduralarining har biri bilan vektorlarni avtonom elementlar sifatida yoki ularni *P. pastoris* genomiga kiritish mumkin. Sferoplast usuli eng yaxshi o'rganilgan bo'lib unumdorligi yuqori hisoblanadi ($\sim 10^5$ /mkg, dnk), ammo agarli muhitga ekilgandan so'ng xujayralarning tiklanish darajasi past xisoblanadi [1]. Qolgan uchta usul yordamida xujayralar agaroz gelining yuzasida buzilmagan yoki butun holda saqlanadi va xujayralarni ekish va keyingi tahlillarda ishlatishda qulaylik tug'diradi. Ammo PEG₁₀₀₀ va LiCl usullarida transformatsiya unumi nisbatan past va multikopi integratsiya mavjud emas. Elektroporatsiya usulida bu kabi kamchiliklar kuzatilmaydi. Shu bilan birgalikda bu usul oson, qulay va arzon metod hisoblanib, hozirgi kunda ko'pchilik olimlar tomonidan qo'llanilayotgan metod hisoblanadi [9].

Tadqiqot usullari

Tadqiqotimizda quyidagi firmalarning reagent va fermentlari ishlatildi: New England Biolabs, Termo-Fisher Scientific (AQSH), Sigma-Aldrich (Germaniya), Panreac (Germaniya), SBS Genetech (Kitay), BIOSSET (Rossiya), Himedia (Indiya). Elektroporatsiya jarayoni Eppendorf firmasining Elektroparator 2510 rusumli uskunasida olib borildi.

Vektor DNK (plazmida)ni tayyorlash. *E. coli* Neb-5a shtamidan pHL-D2 plazmidani ajratib olish ishqoriy lizis usuli orqali bajarildi va fenol-xloroform-izoamil spirt (25:24:1) eritmasi yordamida tozalandi. Ajratilgan DNK elektroforez usulida tekshirildi. Vektor DNK Termo-Fisher Scientific (AQSh) firmasining SacI restriktaza fermenti yordamida uzilib chiziqsimon holga keltirildi [9]. Kesilgan plazmida 0,9% agaroz gelida elektroforez qilinib tasdiqlandi.

P. pastoris elektrokompitent xujayralarini tayyorlash tartibi. *P. pastoris* hujayralari yangi tayyorlangan YPD agar (1% achitqi ekstrakti, 2% pepton, 2% glyukoza, 1,5% agar) chashkasidan olinib 5 ml YPD (1% achitqi ekstrakti, 2% pepton, 2% glyukoza) suyuq muhitga ekiladi va sheykerda 30°C xaroratda tun davomida ko'paytiriladi. Tungi kulturadan 0,1-0,5 ml olinib yangi tayyorlangan 200 ml YPD suyuq muhitga ekiladi va optik zichlik OD₆₀₀: 2-3 ga yetguncha o'stiriladi. Kultura 10 min, 4500 ay/min da sentrifugalanadi. Supernatant to'kib tashlanib 1:1 nisbatda sovuq steril qayta distrlangan(ddH₂O) suvda yuviladi va yuqoridagi tartibda cho'ktiriladi. Suv bilan chayish 1:0,5 nisbatda yana takrorlanadi. Cho'kmaga 20 ml elektroporatsiya bufferidan (100 mM LiAc, 10 mM DTT, 0,6 M sorbitol, 10 mM Tris-HCl, pH 7,5) qo'shilib 30 min 30°C da inkubatsiya qilinadi. Eritma cho'ktirilib 20 ml 1M sovuq sorbitolda eritiladi va sentrifugalash takrorlanadi. Cho'kma 200 mkl 1M sovuq sorbitolda eritilib 0,2 ml probirkalarga 80 mkl dan solib chiqiladi. Elektrokompitent xujayralar muz hammomida kun davomida saqlanishi mumkin.

Tayyor probirkadagi hujayralarga 0,5 mkg (0,5mkg/mkl) uzilgan xoldagi DNK qo'shiladi, 0,2 sm kyuvetaga joylanadi va muz hammomida 5 min. davomida ushlanadi. Elektroparator 2510 rusumli uskunasi 1,5 kV ga sozlanib kyuveta joylanadi va "Pulse" tugmasi ikki marta bosiladi. Jarayon

tugaganligi haqidagi signaldan so'ng kyuveta olinib ustiga sekinlik bilan 1 ml 1M sorbitol qo'shiladi. Suyuqlik kyuvetadan yangi 2 ml probirkaga olinib 30°C da tebranishsiz 1 soat davomida inkubatsiya qilinadi. Suyuqlikdan 100-500 mkl olinib yangi tayyorlangan RDB (1 M sorbitol, 1% (w/v) glyukoza, 0,00004% (w/v) biotin, 1,34% (w/v) achitqi azot asosi, va 2% agar-agar) agar chashkasining yuza qismiga maxsus yasalgan egri shisha naycha yordamida so'rib shimdiriladi. *Pichia pastoris* KM71 HIS4 geni bo'yicha mutatsiyaga uchraganligi sababli koloniyalar gistidinsiz muhitda o'sa olmaydilar. Hujayradagi *HIS4* geni vektor plazmidadagi nativ *HIS4* geni bilan almashtirilganligi sababli, koloniyalarni selektsiya qilish maqsadida gistidinsiz ozuqa muhitida (RDB) o'stirildi. Chashkalar koloniyalar hosil bo'lgunga qadar 2-3 kun, 30°C da inkubatsiya qilindi.

Natijalar va ularning muhokamasi

pHIL-D2 transfer vektori *Pichia pastoris* KM71 shtammiga elektroporatsiya usuli orqali kiritildi. Biz tadqiqot davomida elektroporatsiya jarayonini optimallashtirish maqsadida transfer vektor miqdori va hujayra optik zichliklarini ko'rib chiqdik.

Transformatsiya unumining DNK kontsentratsiyasiga bog'liqligi. pHIL-D2 transfer vektori *SacI* restriktaza fermenti bilan kesilib chiziqsimon holga keltirildi. Tajriba davomida 0,1; 0,2; 0,5; 1,0 va 2,0 mkg/mkl bo'lgan miqdorlarni belgilab oldik (1-jadval). Bundan tashqari, transformatsiya jarayoni plazmidalar ferment bilan kesilmasdan ya'ni, xalqasimon holda ham olib borildi (jadvaldan №6). Har birini ma'lum zichlikka ega bo'lgan hujayrada olib bordik. Jarayonning unumi hosil bo'lgan transformantlar soni misolida aniqlandi.

1-jadval.

Transformatsiya unumining DNK kontsentratsiyasiga bog'liqligi

№	DNK miqdori, mkg.	Hujayra zichligi OD ₆₀₀	Transformantlar soni
1	0,1	3,0	13x10 ⁴
2	0,2	3,0	31x10 ⁴
3	0,5	3,0	45x10 ⁴
4	1,0	3,0	26x10 ⁴
5	2,0	3,0	11x10 ⁴
6*	0,5	3,0	0,6x10 ³

* - transfer vektor *SacI* fermenti bilan kesilmagan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki DNK miqdori 0,5 mkg bo'lganda 45x10⁴ ta transformantlarga erishilgan. DNK miqdori ortib borgan sari elektr energiya chastotasining intensivligi tushib boradi shu sababli unum pasayib boradi. Ferment bilan kesilmagan plazmidalarda unum 6x10² ekanligi aniqlandi. Demak, xalqasimon DNK molekulasiga hujayra devoridan o'tishi, chiziqsimon DNK molekulasiga nisbatan ancha past.

Transformatsiya unumining hujayra optik zichligiga bog'liqligi.

Elektrokompetent hujayralarni tayyorlash jarayonida 3-jadvalda ko'rsatilganidek har xil zichlikda o'stirildi va tajriba bir xil miqdordagi DNK asosida (0,5mkg/mkl) olib borildi. Hujayralarning zichligi spektrofotometrning 600 nm to'lqin uzunligida o'lchandi.

3-jadval.

Transformatsiya unumining hujayra optik zichligiga bog'liqligi.

№	Hujayra zichligi OD ₆₀₀	DNK miqdori, mkg.	Hujayra zichligi OD ₆₀₀
1	0,5	0,5	29·10 ⁴
2	1,0	0,5	45·10 ⁴
3	2,0	0,5	53·10 ⁴
4	3,0	0,5	48·10 ⁴
5	5,0	0,5	27·10 ⁴
6	7,5	0,5	11·10 ⁴

Jadvaldan ko'rinadiki hujayraning zichligi OD₆₀₀ 2,0 bo'lganda transformantlar soni 53x10⁴ ga erishildi. Zichlik 3,0 dan oshib borgan sari transformatsiya unumi tushganligini kuzatishimiz mumkin. Buning sababi hujayralar qarib borgan sari ularning elektroporatsiya jarayonidan so'ng, regeneratsiya xususiyatlari pasayib borishini keltirishimiz mumkin. Mazkur jarayonning eng optimal unumdorligini

ta'minlash uchun achitqi hujayralarini OD₆₀₀ 1,0-3,0 zichlikda o'stirish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

Xulosa

pHIL-D2 transfer vektori *Pichia pastoris* KM71 shtammiga elektroporatsiya usuli orqali muvaffaqiyatli kiritildi. Biz tadqiqot davomida elektroporatsiya jarayonini optimallashtirish maqsadida transformatsiya unumini transfer vektor miqdori va xujayra optik zichligiga bog'liqligini o'rgandik. Tajriba natijalariga ko'ra optimal DNK miqdori 0,5 mkg ekanligi aniqlandi va 45×10^4 ta transformantlarga erishilgan. Ferment bilan kesilmagan plazmidalarda unum ancha past, 6×10^2 ekanligi aniqlandi. Optimal unum hujayraning optik zichligi OD₆₀₀ 2,0 bo'lganda aniqlandi va chashkalarda 53×10^4 ta koloniyalarga erishildi.

Adabiyotlar

1. Invitrogen. Multi-copy *Pichia* Expression Kit, Version E. Carlsbad, CA. 1999.
2. Cregg, J.M. and K.A. Russell. Transformation, *In* D. Higgins and J. Cregg (Eds.), *Pichia* Protocols. Humana Press, Totawa. 1998. 27-39 pp.
3. Rosenfeld, S. Methods Enzymol. 1999, 306, 154-169 pp.
4. Struhl, K., D.T. Stinchcomb, S. Scherer, and R.W. Davis. Proc. Natl. Acad. Sci. USA 1979, 76: 1035-1039 pp.
5. Cregg, J. M., Barringer, K. J., Hessler, A. Y., and Madden K. R. (1985 Mol. Cell. Biol. 5, 3376-3385.
6. Cregg, J. M., Madden, K. R., Barringer, K. J., Thill, G. P., and Stillman, C. A. Mol. Cell. Biol. 1989, 9, 1316-1323 pp.
7. Liu, H., Tan, X., Wilson, K., Veenhuis, M., and Cregg, J. M. , J. Biol. Chem. 1995, 270, 10, 940-10, 951.
8. Waterham, H. R., de Vries, Y., Russell, K. A., Xie, W., Veenhuis, M., and Cregg, J. M. Mol. Cell. Biol. 1996, 16, 2527-2536 pp.
9. James M. Cregg, *Pichia* Protocols, Second Edition. Methods in molecular biology™, 2007, 389, 27-28 pp.

UDK: 551.4(575.1)

**LANDSHAFTLARNI MUHOFAZA QILISHDA EKOTURIZMNING AHAMIYATI
(AYDAR-ARNASOY KO'LLAR TIZIMI MISOLIDA)****Sabirova N.T.***Samarqand davlat universiteti*E-mail: nilufar.samsu@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada landshaftlarni muhofaza qilishda ekologik turizmning ahamiyati Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi misolida berilgan. Ko'lining noyob landshaftlari o'rganilgan va ko'l ekoturizmiga ta'rif berilgan. Ekoturistik imkoniyatlari baholangan. Kelajakda ko'l ekoturizmini yanada rivojlantirish uchun takliflar berilgan.

Kalit so'zlari: noyob landshaftlar, tabiiy landshaftlar, qo'riqxonalar, Ramsar konvensiyasi, ekologik turizm, ko'l ekoturizmi, ekotur.

**Значение экотуризма при охране ландшафтов
(на примере Айдар-Арнасайской озёрных систем)**

Аннотация. В данной статье дано значение экотуризма при охране ландшафтов на примере Айдар-Арнасайской озёрных систем. Изучены уникальные ландшафты озёр и дана характеристика озерному экотуризму. Оценены эко-туристические возможности. Дается предложение по развитию озёрного экотуризма в будущем.

Ключевые слова: уникальные ландшафты, природные ландшафты, заповедник, конвенция Рамсара, экологический туризм, экотуризм озёр, эко-тур.

**The value of ecotourism in landscape protection
(on the example of Aydar-Arnasay lake systems)**

Abstract. This article gives the value of ecotourism in the protection of landscapes on the example of Aydar-Arnasay lake systems. The unique landscapes of the lakes were studied and a characteristic of lake eco-tourism was given. Ecotourism features are evaluated. An offer for the development of lake eco-tourism in the future is given.

Keywords. Unique landscapes, natural landscapes, nature reserve, Ramsar Convention, eco-tourism, lake ecotourism, eco-tour.

Kirish

Tabiat va jamiyatning o'zaro aloqasi jadal rivojlanib borayotgan bir vaqtda, tabiiy landshaftlarni muhofaza qilish eng asosiy muhim masalalardan biri hisoblanadi. Landshaftlarni muhofaza qilishda uning har bir komponenti e'tiborga olinadi. Globalashuv davrida tabiatni, tabiiy landshaftlarni muhofaza qilish uchun yangicha yo'nalishlar ishlab chiqilmoqda. Ulardan biri ekoturizm yoki ekologik turizmdir. Ekologik turizmga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiiy komponentlarni muhofaza qilish, ularni saqlash, ko'paytirishga qaratilgan turistik yo'nalishlaridan biri deb qaraladi [4;1-23]. Uning mazmuni va mohiyatini birinchi bo'lib meksikalik ekolog-iqtisotchi Hector Ceballos Lascrain «Ekoturizm – bu tabiatga xushyor munosabatlar, tanishish quvonchini birlashtiruvchi va flora, fauna namunalarini o'rganishga, himoya qilishga yordam berish imkoniyatlariga asoslangan turistik faoliyatdir» deb ta'riflagan [8; 24].

Undan tashqari, ekologik turizm, turizm tarmoqlari ichida e'tiborga molik bo'layotgan eng yosh va rivojlanib borayotgan yo'nalishlaridan biridir. Isboti tariqasida shuni aytish joizki, jahon «Conservation International» tashkiloti ko'pgina turizm turlari yiliga o'rtacha 5 foizga ortib borayotgan bir paytda, ekologik turizm 20-30 foizga ko'payib borayotganligini xabar qiladi. BMTning «Butunjahon turistik tashkiloti» esa, 2020 yilga borib, dunyo bo'yicha ekoturistik oqimni 2 barobarga ko'payib, umumiy turistik bozorning 25 %ni tashkil qilishini bashorat qilmoqda [6;352]. Shunday ekan, bugungi kunda ekoturizm tarmog'ini rivojlantirish, uni geografik ob'ektlar bo'yicha o'rganib tahlil qilish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Lekin hozirgi kungacha ekoturizmning umumiy e'tirof etilgan nazariyasi va amaliyoti etarli darajada shakllanmagan. Aksariyat ilmiy tadqiqotchilarning ishlari ko'proq ekoturistik marketing, menejment, ta'lim va tarbiyaga bag'ishlangan bo'lib, ularda tabiiy turizm bilan ekoturizm o'rtasida aniq bir chegara o'rnatilmagan [5;75-88]. O'zbekistonda ham hali ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari

to'liq o'rganilmagan [9;23]. Bizning tadqiqot ishimizda geografik ob'ektni alohida ekoturistik ob'ekt sifatida ajratib olib, uni ko'l ekoturizmi deb nomlab, unga ta'rif berganmiz. Chunki, har bir ekoturistik obyektni geografik nuqtai nazarda baholash aniq natijani beradi. Natijada, o'sha hududda ekoturizmni rivojlantirish uchun imkoniyat bor yo'qligini aniqlashga yordam beradi. Aks holda, ekoturizm yoki ekologik turizm shunchaki mavhum tushunchaligicha qolaveradi.

Ishning maqsad va vazifasi

Tadqiqot obyekti Aydar- Arnasoy ko'llar tizimi va uning noyob landshaftlari bo'lib, ularni muhofaza qilishda ekologik turizm yo'nalishidan samarali foydalanish masalalari o'rganiladi. Shuning uchun tadqiqot ob'ektiga qarab ekoturizmni mazmuni va mohiyati ham qisman o'zgaradi. Biz quyidagi ko'l ekoturizmini tadqiqot predmeti sifatida qarab uni o'rganishni maqsad qildik. Demak, ko'l ekoturizmi bu-ko'l sohil bo'yida dam olish, ekzotik tabiiy komponentlarini tomosha qilish, sog'lomlashtirish, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar o'tkazish, tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, ko'l fauna va florasini muhofaza qilish, saqlash, ko'paytirishga ko'maklashish hamda tabiatni muhofaza qilish dasturlari me'yorlariga rioya qilgan holda turistik faoliyatni olib borishdir. Ushbu bergan ta'rifimiz tadqiqot ob'ektimiz Aydar-Arnasoy ko'llari tizimi uchun xos. 2017-yilning mart oyida «Aydar-Arnasoy ko'llari tizimining biologik resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlashga doir tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining qarori» qabul qilindi. Qarorda, 2017-2021 yillar davomida Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi atrof hududlarda turizmni, havaskorlik va sport, baliq ovini rivojlantirish hamda ekoturizmga doir maqsadli tadbirlar o'tkazishni tashkil etish kabi masalalari ko'rsatib o'tildi. Bu kabi muammolarni yechimini topishda, eng avvalo, hududni tabiiy sharoiti, noyob va kamyob landshaftlari o'rganiladi. Ulardagi biologik resurslar va rekreatsiya imkoniyatlari aniqlanadi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

Odatda, landshaftlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi;

1. Landshaftlarni tabiiy holda saqlash. Landshaftlar tabiiy holda jamiyatning ehtiyojlariga qoniqarli javob beradigan bo'lsa, demak uni tabiiy holda saqlash maqsadga muvofiq. Bundan tabiiy landshaftlar qo'riqxonalar, milliy bog'lar shaklida xo'jalikdan ajratilgan holda saqlanadi va muhofaza qilinadi.

2. Landshaft komponentlari va ularning elementlari orasidagi o'zaro aloqalarni buzmasdan, cheklangan holda ekstensiv foydalanish. Bunday landshaftlarda asosiy e'tibor profilaktika, sanitariya tadbirlarini amalga oshirishga, o'simlik va hayvonlarning ko'payishiga, suv sifatini va rejimini yaxshilashga, tabiatning go'zalligi va musaffoligini saqlab qolishga qaratiladi [11;84].

Lekin, bu yo'nalishlar tabiiy landshaftlar va ularning boyliklaridan oqilona foydalanishning asosiy yo'nalishi bo'la olmaydi. Chunki, landshaftlarni jamiyatdan uzoqroq, ajratib muhofaza qilib bo'lmaydi.

Landshaftlarni bugungi kunda saqlash va ko'paytirishda hamda undan oqilona foydalanishda ekoturizm yo'nalishidan foydalanish eng samarali usul hisoblanadi [1;27-30].

Ekoturizmning rivojlanishi esa, eng avvalo o'rganilayotgan hududning tabiiy sharoitiga, undagi ekoturistik imkoniyatlarning mavjudligiga hamda geografik o'rni bog'liq bo'ladi. Chunki, tabiiy sharoit hududning ekoturistik imkoniyatlarini va uning qaysi turlarini rivojlantirish mumkinligini aniqlashga imkon beradi. Har bir tabiiy komponentlarni ekoturistik nuqtai nazaridan baholash amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ma'lumki, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi geografik jihatdan Navoiy viloyatining Nurota tumani va katta qismi Jizzax viloyatining Forish tumanlari hududlarida joylashgan. Birgina, Jizzax viloyatining o'zida jami, 267 ta ekoturistik manzillar mavjud bo'lib, bularning barchasini ekoturistik nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish, o'rganish, tadqiq etish va dasturlarini ishlab chiqish haligacha dolzarb vazifaligicha qolmoqda. Shunday ekoturistik manzillardan eng yirigi sifatida Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi kiritilgan. Bu ko'l nafaqat viloyatlardagi, shu bilan birga O'zbekistondagi eng yirik ko'l ekoturistik manzillardan biridir. Ko'lning maydoni qarib 4000 km²ga teng bo'lib, irrigatsion-tashlama suvlaridan hosil bo'lgan ko'l sanaladi. Ko'l Sharqiy Qizilqum, janubi-sharqiy tomoni Mirzacho'l, janubiy qismi Nurota tog' tizmasi bilan chegaradosh bo'lgan, ko'l+ cho'l+tog' uchligining o'ziga xos tabiiy sharoitini yuzaga keltiradi. Bunday tabiiy sharoit Aydar-Arnasoy ko'llari tizimi uchun juda katta

ekoturistik, rekreatsion imkoniyatlarni va resurslarni hosil qiladi [2;99-102]. Ko'lda ekologik turizmini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi tabiiy komponentlarni va turistik potentsiallarini tahlil qilishimiz mumkin.

Jumladan, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi juda katta biologik resurslarga boy. Ko'lda baliq etishtirish, baliq ovlash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu erda baliqlarning 22 turi mavjud, ulardan faqat 13 turi mahalliy hisoblanadi. 1960 yillarda O'zbekistonda baliqlardan xalq xo'jaligida foydalanish uchun iqlimlashtirish ishlari olib borilganda Aydar botig'ining kichik-kichik ko'llarida va Tuzkon ko'lida qimmatli ovlanadigan oq do'ngpeshona va oq amur baliq turlari ko'l iqlimiga moslashtirilgan. Baliqlarning 14 turi (laqqa, zog'orabaliq, oqcha, oqqayroq va boshqalar) qimmatli ovchilik ahamiyatiga ega. Ulardan bir turi- Turkiston usachi – (*Barbus capito ssp.conocephalus* Kessler) O'zbekiston «Qizil Kitob»ga kiritilgan.

Ko'lda safari ekotur yo'nalishlarida ham faoliyat olib borilmoqda. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi atrofida va Sharqiy Qizilqumning janubi-g'arbida hayvonlarning 39 turi va 6 ta turkumi uchraydi. Ulardan 2 turi (ondatra va nutriya) ko'l atrofi sharoitlariga moslashtirilgan. Ko'l atrofida yashaydigan hayvonlarning 7 turi xalqaro «Qizil Kitobi» ga va 4 turi O'zbekiston «Qizil kitobi»ga kiritilgan [12].

Ko'l ornitologik ekotur yo'nalishi bo'yicha barcha imkoniyatlarga ega, lekin ulardan oqilona foydalanish talab darajasida emas. Chunki, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi noyob qushlarning qo'nim topadigan va bolalaydigan maskanidir. Ko'l sohillarida 14 turkumga mansub 220 tur qushlarni uchratish mumkin [13]. Bu yerda ko'proq umumbashariy havf ostida turgan jingalak saqoqush (*Pelecanus crispus*), oqboshli o'rdak (*Oxyura leucocephala*), ola qanotli o'rdak (*Aythya nyroca*), qironqora (*Aquila heliaca*), uzun quyruq suv burguti (*Haliaeetus leucoryphus*), tasqara (*Aegypius monachus*), yo'rg'a tuvaloq (*Chlamydotis undulata*) uchraydi. Ko'l atrofidagi cho'llarda esa qushlarning 9 turini uchratish mumkin. Ko'lda mavjud 13 turdagi qushlar Xalqaro «Qizil kitob»ga va 24 turi O'zbekiston «Qizil kitobi»ga kiritilgan.

Ko'l sohili floralarga ham juda boy bo'lib, o'simliklarning 47 turi mavjud, ularning 6 turi O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan, 16 turi esa, Markaziy Osiyo endemikalari hisoblanadi. Shuningdek, ko'l sohillari to'qayzorlar bilan o'ralgan bo'lib, u sayyohlarga zavq bag'ishlaydi.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi xalqaro ahamiyatga ham ega bo'lib, 2008 yil Ramsar Konvensiyasi ro'yxatiga kiritilgan. Bu konvensiya 1971 yilning 2 fevralida Eronning Ramsar shahrida "Suvda suzuvchi qushlarning asosiy yashash manzili bo'lgan xalqaro ahamiyatga ega suvli-botqoq erlar to'g'risida"gi konvensiya nomi bilan qabul qilingan. Konvensiyaning vazifasi suvli va botqoqli hududlarni muhofaza qilishga va ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan [7;429-485]. Ko'lning xalqaro ahamiyatga ega ekanligi, ko'l ekoturistik mavqeini yanada oshishiga yordam beradi.

Alohida muhofaza etiladigan hududlar qo'riqxonasi, buyurtma, milliy bog'lar ham ekoturistik resurslar tarkibiga kiradi. Ko'l havzasida xuddi shunday tabiiy, botqoq landshaftlar mavjud bo'lib, ular hozirda muhofaza etiladigan hududga aylantirilgan. 1977 yilda ko'lning Tuzkon ko'li qismida 63000 gektardan iborat bo'lgan Arnasoy qo'riqxonasi barpo qilingan. Bu qo'riqxonada, cho'l ekosistemasiga xos efemer-juzg'un, yantoq-efemer o'simliklar assotsiatsiyasi keng tarqalgan va asosan, u erda juzg'un (*leucocladum*), illoq (*Physodes*), astrogal (*Astragalus*), yantoq (*Pseudalhagi*) kabi o'simlik turlari ko'p uchraydi. Undan tashqari, qo'riqxonasi to'qayzorlarida ondatra (*Ondatra zibethica*), bo'ri (*Canis lupus*), tulki (*Vulpes*), bo'rsiq (*Meles*), to'qay mushugi (*Feles chaus*) kabi hayvonlarni va ko'l akvatoriyasida sazan (*Cyphinus carpio*), som (*Silurus*), oq amur (*Ctenopharyngodon idella valen*), turkiston usachi (*Barbus capito*) va boshqa qimmatli baliq turlarini hamda qushlardan eshkak oyoqlilar (*Pelecaniformes*), uzunoyoqlilar (*Ciconiformes*), g'ozsimonlar (*Anseriformes*), lochinsimonlar (*Falconiformes*), turnasimonlar (*Gruiformes*) oilasiga kiruvchi qushlarni uchratish mumkin.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi noyob landshaftlarida ba'zi shunday hayvonlar mavjudki, hatto ular CITES - (*Convention of International Trade in Endangered Species of wild fauna and flora*) yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvonlar va o'simliklar turlari bilan savdo qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya ilovalariga kiritilgan. Mamlakatimizda CITES ma'muriy organi vazifalari O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga yuklangan va bu ro'yxatga ko'lda yashovchi to'qayzor mushugi (*Felis chaus*), sahro mushugi (*Felis libyeca*), bo'ri (*Canis lupus*), qushlardan farla sochli saqoqush (*Pelecanus crispus*), qora laylak (*Ciconia nigra*), oddiy kolpitsa (*Platalea leucorodia*), flamingo (*Phoenicopterus*), qizil buqoqli kazarka (*Branta ruficollis*), savka (*Oxyura leucocephala*), churraq quldiroq (*Anas Formosa*), lochinsimonlar

(*Falconiformes*), turnasimonlar (*Gruiformes*), botqoq boyo'g'lisi (*Aslo flammeus*), O'rta Osiyo toshbaqasi (*Testudo horsfieldi*), kulrang echkamar (*Varanus grislus*) va boshqa shunga o'xshash kamyob hayvonlar kiritilgan [10;145].

Bugungi kunda ko'l atrofi hududlarida ekoturistik yo'nalishlarida sayyohlarga turistik xizmat ko'rsatish rivojlantirilmoqda. Bugungacha, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi atrof hududlarida ekoturizmning quyidagi yo'nalishlari eng ko'p rivojlantirilgan. Bularga baliq ovlash, suv havzalariga sayohat, ornitologik, safariy ekologik turizm yo'nalishlarini aytishimiz mumkin. Undan tashqari sayyohlar ko'l sohili bo'yidagi zamonaviy kempinglar va milliy o'tovlarda mazmunli hordiq chiqarishi, tuya va otda sayr qilishi, rekreatsiya-sohil bo'yida dam olishi va sog'liklarini tiklashlari mumkin bo'ladi.

Demak, ko'ldan ekoturistik maqsadlarda foydalanish eng avvalo tabiatni muhofaza qilish dasturlari me'yoriga rioya etgan holda, ko'l sohil bo'yida dam olish, ekzotik tabiiy komponentlarini tomosha qilish, sog'lomlashtirish, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar o'tkazish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, fauna va florasini muhofaza qilish, ularni saqlash, ko'paytirishga ko'maklashish ishlarini amalga oshirish mumkin. Undan tashqari, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi noyob landshaftlaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish orqali, ko'lda ekoturizm ravnaqini yanada oshirish mumkin:

- noyob hayvonot va o'simlik dunyosi bilan tanishish;
- kino, teleko'rsatuv va foto tasvirlar olish, videoroliklar tayyorlash;
- ilmiy ekspeditsiyalar: geografik, botanik, zoologik, ekologik, gidrologik va hokazo.

Aytib o'tganimizdek, Aydar-Arnasoy ko'llari tizimi atrofi hududlari ekotur resurslarga boy bo'lishi bilan ular orasida noyob turlar, ekologik xavf ostida bo'lgan tabiiy komponentlar uchraydi. Demak, bu komponentlardan maqsadli foydalanilar ekanmiz, eng avvalo, sayyohlar ekoturlardan foydalanganda mutaxassislar bilan birga bo'lishlari shart.

Xulosa

Xulosa o'rniida aytadigan bo'lsak, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi ekoturistik imkoniyatlarga juda boy. Ko'lining boy, rang-barang ekoturistik salohiyatidan kelib chiqib kelajakda quyidagi ko'l ekoturlarini yanada rivojlantirish mumkin: 1) ilmiy ekotur, 2) rekreatsiya ekoturi, 3) ma'naviy-ma'rifiy ekoturi, 4) sport ekoturi, 5) otda va tuyada sayr qilish ekoturi, 6) kemada sayr qilish ekoturi, 7) ovchilik ekoturi va boshqalari.

Umuman, Aydar-Arnasoy havzasida ekologik turizm potentsiallarini yanada rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Faqat, bu salohiyat va imkoniyatlarni oshirishda jahonda ekoturizm taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda oqilona foydalanish maqsadga muvoffiq. Biz, noyob landshaftlarni muhofaza qilish, saqlash, o'simlik va hayvonot dunyosini ko'paytirishga xizmat qilishdagi eng muhim yo'nalish bu ekologik turizm ekanligini ko'rsatdik, lekin aytish lozimki, ekoturizmda ko'rsatilgan qonun-qoidalarga rioya qilmaslik aksincha, turizm ekologiyasini keltirib chiqarishi mumkin. Shu kabi masalalarni bartaraf etishda birinchidan, ekologik turizm taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasini o'rganish, ikkinchidan, soha bo'yicha salohiyatli kadrlarni tayyorlash, uchinchidan, ularni chet ellardagi oliy o'quv yurtlarida o'qitish hamda malakasini oshirish kabi ishlarni amalga oshirish zarur. Bu kabi chora-tadbirlar noyob landshaftlarni saqlash va ko'paytirishga yordam berishi bilan birga mamlakatimizda ekoturizm ko'rsatgichlari ravnaqini yanada oshishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Аббасов С.Б., Сабирова Н.Т. Международная научно-практическая конференция.-Т., 2017. –Б. 27-30.
2. Аббасов С.Б., Сабирова Н.Т. /Международная научно-практическая конференция. – Нукус. 2018. -Б. 99-102.
3. Акбаров З. Фарғона водийсида экотуризмни ривожлантириш истикболлари. – Наманган, 2016. Б.-124-125.
4. Walker K. & Weiler B. of Ecotourism, 2017. –P. 1-23. (Online) DOI: 10.1080/14724049.2016.1245736.
5. Mcgahey S. Ethics, obligations, and stakeholders of ecotourism marketing. //Intellectual economics. 2012, Vol. 6, No. 2(14), -P. 75–88

6. Preview G., Bricker K., Black R. Sustainable Tourism & the millennium development Goals Effecting Positive Change. ISBN-13: 9781449628239. 2014. - 352 pp.
7. Skov H. et al. UN Convention on Wetlands (RAMSAR): Implications for Human Health. //Encyclopedia of the Anthropocene, 2018. –P. 479-4858. Ceballos-Lascurian H. (1991) Tourism, ecotourism, and protected areas . Ecotourism and Resource Conservation: A Collection of Papers. -Madison, 1991. -Vol. 1. – pp. 24
9. Шамуратова Н.Т. _Ўзбекистонда экологик туризм ва унинг табиий географик жихатлари. Дисс. Автореф. – Т., 2011. -23 б.
10. Ўзбекистон учун экспорт, импорт объектлари хисобланган ҳайвонлар ва ўсимликларни аниқлагиш. – Т., 2016. -145 б.
11. Гуломов П. Инсон ва табиат. – Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2009. -84 б.
12. <http://sgp.uz/base>
13. <http://eco.uz/uz/kutubkhona>

УДК: 551.4 (575.1)

АНАЛИЗ ГИДРОХИМИЧЕСКОГО РЕЖИМА РЕКИ ЗЕРАВШАН

Халбеков К.А.¹, Мягков С.С.²

¹Самаркандский государственный университет

²Самаркандское областное управление жилищно-коммунального обслуживания

Аннотация. В данной работе анализируется динамика общей минерализации реки Зеравшан. Анализ гидрохимического режима реки Зеравшан показывает, что водные ресурсы бассейна реки Зеравшан подвержены значительному антропогенному воздействию, что в свою очередь показывает острую нехватку водных ресурсов реки и при увеличении антропогенной нагрузки неизбежно приведет к дефицит водных ресурсов по качеству и пригодности к использованию.

Ключевые слова: река Зеравшан, водные ресурсы, антропогенное воздействие, минерализация, гидрохимический режим.

Zarafshon daryosini gidroximyaviy rejimini o'rganish

Annotasiya. Ushbu maqolada Zarafshon daryosi umumiy minerallashuvi dinamikasi tahlil qilindi. Zarafshon daryosining gidro-kimyoviy rejimini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Zarafshon daryosi havzasining suv resurslari sezilarli antropogen ta'sirga duchor bo'lmoqda, bu o'z navbatida ichimlik suv resurslarining etishmasligi va antropogen ta'sirning ortishi bilan namoyon bo'ladi. Muqarrar ravishda suv sifati tanqisligi va foydalanish uchun yaroqsizligiga olib keladi.

Kalit so'zlar: Suv resurslari, antropogen ta'sir kuchlari, menirallashuv darajasi, gidrokimyoviy rejimi

An analysis of the hydrochemical regime of the Zerafshan river

Abstract. In this paper, the dynamics of the general mineralization of the Zerafshan River is analyzed. An analysis of the hydro-chemical regime of the Zerafshan River shows that the water resources of the Zerafshan River basin are subject to significant anthropogenic impacts, which in turn shows an acute shortage of drinking water resources and, with an increase in anthropogenic load, will inevitably lead to a water quality deficit in quality and suitability for use.

Keywords: Zerafshan River, water resources, anthropogenic impact, mineralization, hydrochemical regime.

Введение

Формирование водных ресурсов реки Зеравшан происходит на территории Таджикистана, в основном за счет ледникового и снегового таяния, на выходе из горной части долины содержание химических элементов практически соответствует фоновому. Свое начало Зеравшан берет от многочисленных отрогов Туркестанского и Зеравшанского хребтов, и протекая с востока на запад, между двумя этими хребтами, пополняется в основе своей левыми притоками Фандарья и Магиандарья. Река Зеравшан относится к снеголедниковому типу

питания. Поэтому наибольший сток в ней приходится на лето (июль, август), в холодный период года Зеравшан несет мало воды ¹.

Река Зеравшан по классификации Рубиновой и Иванова входит в седьмой гидрохимический район [2]. При диапазоне средних взвешенных высот водосбора от 1,1 до 4,0 км средняя годовая минерализация воды в зоне формирования стока колеблется в пределах от 123 до 485 мг/дм³. Высокая удельная увлажненность территории и литологический состав пород обуславливает преобладание слабоминерализованных вод.

В зоне формирования стока реки расположены объекты горно-обогатительного комбината Республики Таджикистан, которые загрязняют реку токсичными металлами, сурьмой, ртутью ³.

На территории Узбекистана река Зеравшан начинает более интенсивно использоваться на сельскохозяйственные и производственные нужды. Равнинная часть долины реки Зеравшан густо населена - города Самарканд, Каттакурган, Навои, Бухара, Каган. Поэтому она имеет большее хозяйственное значение, а ее воды полностью используются для орошения. Важным критерием для определения пригодности воды для орошения является общая минерализация и гидрохимический режим.

Актуальность исследования гидрохимического режима реки Зеравшан объясняется возрастанием антропогенной нагрузки на водные ресурсы в связи с освоением территорий и строительством промышленных предприятий. Антропогенная нагрузка на водные ресурсы в бассейне реки Зеравшан будет неуклонно возрастать. Для анализа были использованы опубликованные материалы Узгидромета за период 1990-2017 гг. ⁴.

Гидрохимический режим реки Зеравшан

Наблюдения за гидрохимическим режимом реки Зеравшан проводятся на следующих пунктах: нижний бьеф Раватходжинской плотины; в пределах города Самарканд (выше гидроузла Аккарадарьинского водodelителя); ниже устья коллектора Сиаб, г. Каттакурган (выше устья коллектора Чегонак); в пределах города Навои (ниже сбросов АО «Навоиазот»). Расстояние между пунктами наблюдений 233 км, от Раватходжинской плотины до г. Самарканд - 34 км, от г. Самарканд до коллектора Сиаб - 26 км, от коллектора Сиаб до г. Каттакурган - 55 км, от г. Каттакурган до г. Навои - 118 км.

В период 1990-2017 гг. средние годовые величины минерализации воды реки Зеравшан в этих пунктах колебались от 252,6 до 2117,7 мг/дм³. В пункте нижний бьеф Раватходжинской плотины средние годовые величины минерализации изменялись в пределах 252,6-318,8 мг/дм³, в пункте г. Самарканд - 266,0-481,2 мг/дм³, в пункте ниже устья коллектора Сиаб - 323-540,2 мг/дм³, в пункте г. Каттакурган - 343-549,2 мг/дм³, в пункте г. Навои - 618,5-2117,7 мг/дм³. Минерализация воды р. Зеравшан изменяется от 289,57 мг/дм³ у нижнего бьефа Раватходжинской плотины до 1349,46 мг/дм³ у пункта ниже г. Навои.




Рис. 1. График общей минерализации воды в реке Зеравшан за период 1990-2017 годы.




Рис. 2. Повышение общей минерализации по длине реки Зеравшан и уравнение аппроксимации.

На Рис.1. приведен график динамики общей минерализации по створам реки Зеравшан. Заметно увеличение минерализации воды в низ по течению реки Зеравшан, что объясняется ростом количества сбросов с сельскохозяйственных угодий и промышленных предприятий, включая сточные воды городов. Заметно также значительное увеличение значений минерализации в пределах города Навои, практически во все годы превышающее ПДК, которое для общей минерализации составляет 1000 мг/л. Вода реки Зеравшан до г.Навои приходит практически не пригодная к использованию в питьевом водоснабжении без дополнительной очистки. Эта ситуация объясняется тем, что после использования воды, многочисленные сбросы с орошаемых территорий насыщают воду реки с различными минеральными солями. Кроме того, имеющиеся сбросы промышленных предприятий так же насыщают воду различными загрязнениями.

Как и следовало ожидать, по длине реки Зеравшан общая минерализация так же возрастает. На рис.2 приведен график изменения общей минерализации воды в реке Зеравшан от верхнего до нижнего створа. График построен по среднегодовым значениям. На графике также приведена аппроксимирующая линия тренда и степенное уравнение аппроксимации, по которому можно определить среднее значение минерализации для различного расстояния от верхнего створа. Данное уравнение возможно использовать при проектировании водозаборов при определении среднего значения минерализации отбираемой воды на хозяйственные или иные нужды потребителей.

По величине индекса загрязнения воды (ИЗВ) качество воды р. Зарафшан за период 1990-2017 гг. в пунктах нижний бьеф Раватходжинской плотины, ниже коллектора Сиаб, г. Каттакурган относились ко II классу – чистых вод и III классу – умеренно загрязненных вод. В пункте ниже "Навоиазот" по величине ИЗВ качество воды в 1990, 1991, 1998, 2011 и 2014 гг. относилось IV классу – загрязненные воды⁵.

Гидрохимический режим реки Зеравшан в среднем течении и низовьях в основном формируется за счет загрязнений, поступающих в ствол реки со стоков промышленных предприятий городов Самарканд, Каттакурган, Навои, а также коллекторно-дренажных вод ирригационных территорий.

Особенностью Узбекистана является использование более 90% всех доступных водных ресурсов на нужды ирригации. Уже в настоящее время регион испытывает значительный дефицит водных ресурсов, в том числе для питьевых целей. В условиях аридной зоны, с ростом численности населения увеличивается антропогенная нагрузка и рост потребности в воде, что создает дополнительные экологические, экономические и социальные нагрузки на густонаселенные территории. Острой проблемой, из-за изменения климата, является дефицит и загрязненность водных ресурсов, особенно в сельской местности. В этих условиях проявляется тенденция увеличения уровня заболеваемости бактериальными и вирусными острыми кишечными инфекциями (ОКИ) на 10%-13%.²

Заключение

Анализ гидрохимического режима реки Зеравшан показывает, что водные ресурсы бассейна реки Зеравшан подвержены значительному антропогенному воздействию, что в свою очередь показывает острую нехватку водных ресурсов реки и при увеличении антропогенной нагрузки неизбежно приведет к дефициту водных ресурсов по качеству и пригодности к использованию.

Для повышения экологической устойчивости реки Зеравшан необходимо проводить очистку сточных вод и осуществлять контроль за сбросами.

Литература

1. Рубинова Ф.Э., Иванов Ю.И. Качество воды рек бассейна Аральского моря и его изменение под влиянием хозяйственной деятельности. НИГМИ, Узгидромета. – Ташкент. – 2005. 186 с.
2. Мягков С.В. Экологический вестник. – Ташкент, 2009. - № 8. – С. 22.
3. Kulmatov R., Opp C., Groll M. and Kulmatova D. Assessment of Water Quality of the Trans-Boundary Zarafshan River in the Territory of Uzbekistan. Journal of Water Resource and Protection. 2013. V 5. PP. 17-26.

4. Ежегодники качества поверхностных вод. – Ташкент; Узгидромет. 1990-2017 г.г.
5. Хикматов Ф.Х., Хайдаров С.А., Ярашев К.С. и др. Зарафшон дарёси хавзасининг гидрометеорологик шароити ва сув ресурслари. - Т.: “Фан ва технология”, 2016. 276 с.

UDK: 550:36

TABIIY RESURLAR ASOSIDA NOAN'ANAVIY ENERGIYA ISHLAB CHIQUARISH IMKONIYATLARINI O'RGANISH

(Mirzacho'l vohasi misolida)

Nazarov X.T., Ibragimov L.Z., G'aniev Z.A

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mirzacho'l vohasi tabiiy resurslaridan (suv, shamol, quyosh radiatsiyasi) elektr energiyasi olish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, vohada noan'anaviy energiya resurslaridan ratsional foydalanish imkoniyatlari bo'yicha olingan natijalar asosida taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: quyosh radiatsiyasi, tabiiy resurslar, uglevodorod resurslari, shamol energiyasi, suv energiyasi, shamol tezligi.

Изучение возможностей нетрадиционного производства энергии на основании природных ресурсов (на примере Мирзачульского оазиса)

Аннотация. В данной статье анализируются возможности получения электроэнергии с помощью природных ресурсов (вода, ветер, солнечная станция) Мирзачульского оазиса. А также, представлены предложения и рекомендации на основании результатов, полученных по возможностям рационального использования нетрадиционных энергоресурсов оазиса.

Ключевые слова: солнечная станция, природные ресурсы, углеводородные ресурсы, ветреная энергия, водная энергия, скорость ветра.

Study of the possibility of production of non-traditional energy based on the natural recourses

Abstract. Possibilities of taking electricity from Mirzachul oasis natural resources (water, wind, oxygen) (A case study of Mirzachul oasis) will be analyzed. Moreover, suggestions and recommendations will be given based on rational use of energy resources.

Keywords: sun radiation, natural resources, hydrocarbon resources, wind energy, water energy, wind speed.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgach barcha sohalardagi qatori tabiatdan oqilona foydalanish borasida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda Respublikada atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan istiqbolli Davlat dasturi mavjud va bu dastur ijrosini amalga oshirish yuzasidan yo'l xaritalari ishlab chiqarilgan bo'lib hozirgacha bajarilgan qator ishlarda o'z ifodasini topmoqda. Tabiatdan oqilona foydalanish hamda uni muhofaza qilish sohasidagi butun ilmiy va amaliy faoliyat shu dastur asosida tashkil etilgan. Dasturga asosan qilinayotgan ishlarni - "Hududlarda tabiiy sharoitlarni tabiiy zahiralaridan samarali va kompleks foydalanishni ta'minlaydigan darajada aniq maqsadga qaratilgan, ilmiy asoslangan tarzda o'zgartirish lozim" - deb ko'rsatib o'tilgan. Hududlar tabiiy resurslaridan foydalanish uchun ularni ilmiy tomondan kompleks o'rganish va atrof muhitga ta'sir etmaydigan texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Biz ilmiy tadqiqotimizni Mirzacho'l vohasi shamol, suv va quyosh radiatsiyasidan olinishi mumkin bo'lgan ekologik toza noan'anaviy energiya ishlab chiqarish imkoniyatlarini o'rganishga yo'naltirganmiz. Ushbu dolzarb masalani kompleks ilmiy o'rganish asosida tabiiy resurslardan (suv, shamol, quyosh radiatsiyasi) energiya ishlab chiqarish asosida hududni iqtisodiy rivojlantirish va aholini energiyaga bo'lgan ehtiyojini ma'lum darajada ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Muqobil energiya ishlab chiqarish imkoniyatlarini ilmiy o'rganish va kelajakda ishlab chiqarishga tadbiiq etish tabiiy uglevodorod resurslarini (gaz, ko'mir, neft) tejashga va shu bilan birgalikda atrof-muhitga chiqadigan CO₂ gazlari kamayadi, bu esa atmosfera havosini ifloslanishini qisman kamayishiga olib keladi.

Asosiy qism

Hozirgi kunda Respublika elektr energiyasining 90% issiqlik elektrostansiyalarida ishlab chiqariladi. Ularni ishlatish jarayonida katta miqdorda uglerod dioksidi va bir qancha zaharli gazlar ajralib chiqadi. Respublikamiz atrof-muhitni ifloslantirishni oldini olish yuzasidan qator xalqaro tashkilotlarga a'zo, jumladan Kioto protokolida ko'rsatib o'tilgan majburiyatlari bajarish yoqiladigan uglevodorod yoqilg'i miqdorini bosqichma-bosqich asta-sekinlik bilan kamaytirish hisobiga ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni kam ifloslantiruvchi energetik resurslardan foydalanish orqali ekologik holatni optimallashtirish belgilab berilgan. Shunday qilib, tiklanadigan energiya resurslarini, xususan, suv, shamol va quyosh issiqligi energiyasini o'zlashtirish hozirgi kunda eng istiqbolli hisoblanadi. Bu esa respublikamizda mavjud suv, shamol va quyosh radiatsiyasi resurslarini tadqiq qilishni qanchalik dolzarbligini belgilab beradi. Yaqin kelajakda dunyo bo'yicha asosiy energiya manbalari muqobil energiya bo'ladi. Shuni hisobga oladigan bo'lsak, ushbu masalani hal etish bugungi kunning dolzarb masaladir. Misol uchun ekspluatatsiya davomida shamol elektr stansiyasi amalda hech qanday yoqilg'i talab etmaydi, 1 mVt quvvatli ShES 20 yilda taxminan 29 ming tonna ko'mir yoki 92 ming barrel neftni tejash imkonini berish bilan atrof-muhitga hech qanday zaharli gaz chiqmaydi.

O'zbekistonning shamol energetik manbalari yiliga 520 ming mVt quvvat va 1 milliard megavat/soat elektr energiyasiga ega. Boshqa energiya ishlab chiqaruvchilardan farqli ravishda ular zararli chiqindilar bilan atrof-muhitni ifloslantirmaydi. 1 mVt quvvatli bunday SHES sayyoramiz atmosferasiga har yili chiqarilayotgan karbonat angidrid (CO_2) gazini 1800 tonnaga, sulfat oksidi (SO_2) gazini 9 tonnaga, azot oksidini 4 tonnaga qisqartiradi. 2050 yilga kelib jahon shamol energetikasi foydalanish hisobiga issiqlik elektr stansiyalaridan atmosferaga chiqarilayotgan CO_2 gazining yillik hajmini 1,5 milliard tonnaga qisqartirar ekan. SHESlarning yana bir afzallik tomoni shundaki, ular muayyan sharoitlarda qayta tiklanmaydigan boshqa energiya manbalari bilan raqobatlasha oladi. Eng muhimi, SHES uchun energiya manbai bo'lgan shamol tabiatan bitmas tuganmas bo'lib mutaxassislarning aniqlashlaricha, shamol energiyasi manbasi sayyoramizdagi barcha daryolarda mavjud suv energiyasi (gidroenergiya) manbalaridan 100 barobardan ortiqroq. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yer sathidan 7-14 kilometr balandlikdagi shamol oqimlarining tezligi yer sathidagidan ko'ra 10-15 barobar yuqori va bu oqimlarning tezligi yil davomida deyarli o'zgarmaydi. Kelajakda ularni ilmiy o'rganish va foydalanish shamol energetikasi katta istiqboliga ishonch bilan qarashga umid uyg'otadi.

O'zbekiston Respublikasi, jumladan Mirzacho'l vohasi nafaqat quyosh, balki shamol va gidro resurslariga boy hududlardan hisoblanadi. Elektr energiya beradigan shamol resurslarini o'rganish uchun hududda joylashgan meteorologik stansiyalar ma'lumotlarini to'plash, shamol yo'nalishi va tezligini o'rganish vohadagi (Jizzax, Sirdaryo viloyatlaridagi) bo'limlaridan olingan ma'lumotlar asosida gidroenergetik quvvatga ega bo'lgan daryo va soylarni aniqlash hamda ular quvvatidan elektr energiya olish imkoniyatlarini tahlil qilish lozim. Bu esa muqobil energiya ishlab chiqarish imkoniyatlarini yanada boyitadi.

Vohada hozirgi mavjud meteorologik stansiyalar yetarli emas (9 ta meteorologik stansiya), ular vohaning hamma hududlarini qamrab olmagan. Bundan tashqari meteorologik stansiyalarda shamol tezligi va yunalishi 10 metr balandlikda o'lchanadi. Aholi manzilgohlaridagi binolar, baland daraxtlar shamol tezligiga ma'lum darajada to'siq bo'ladi. Shu sababli ham aholi punktlarida 20-40 metr balandliklarda qo'shimcha kuzatish ishlarni olib borish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Joyning rel'efiga, suv havzalarining yaqin-uzoqdaligiga bog'liq holda ham, mahalliy shamollar hosil bo'ladi, ba'zi hududlarda (Forish tumanining Aydarko'l ko'li bilan tutash hududlarida, Baliqlitog' va Pistalitog'lar oralig'i, Jilliguli soyligida, Arnasoy ko'li bo'yidagi hududlarda) esa yilning ma'lum fasllarida, oylarida vaqtincha, lekin, uzoq vaqt esadigan shamollar mavjud. Bunday joylardagi shamollarni ekspeditsiya uyushtirish orqali yoki yarim statsionar o'lchashlar orqali o'rganish mumkin. Hududlarda olingan ma'lumotlarni umumlashtirish, statistik tahlil asosida qayta ishlash lozim. Olingan natijalar asosida hududlar alohida-alohida shamol tez va doimiy, shamol o'rtacha domiy, shamol asta sekin va hokozo.

Shamol resurslarini o'rganish va kartasini tuzish bo'yicha Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti xodimlari prof.O.Raxmatullayev rahbarligida 2014-yildan buyon tadqiqot ishlar olib borishmoqda. Biz ushbu tadqiqot jarayonida o'rttirgan tajribalarni Mirzacho'l vohasida qo'llamoqchimiz. Avvalo, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining hududidagi va yaqin chegara hududlarda joylashgan mavjud meteorologik stansiyalar va meteorologik stansiyalar yo'q joylarda bir

nechta postlar tashkil qilgan holda shamol tezligi, yo'nalishi va ularni o'zgarish dinamikasini tahlil qilgan holda shamol kartalarini tuzish va shamoldan foydalanish bo'yicha takliflarimizni beramiz.

Shamol tezligi 3 metr sekunddan boshlab samarali elektr energiya bera boshlaydi. Meteorologik stansiyalar ma'lumotlari bo'yicha Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining tekislik hududlarida shamolning o'rtacha yillik tezligi 3,0 m/sec dan oshadi. Yer yuzasidan 10 metr balandlikdagi bahor va yoz oylari oylik o'rtacha tezlik yillik o'rtacha me'yordan bir necha barobar yuqori bo'lishi, 30-40 metr balandliklarda, shamol tezligi yanada kuchli bo'lishi kuzatilgan. Germaniya Federativ Respublikasining "GEONET" kompaniyasi O'zbekistonda shamol resurslarini o'rganish bo'yicha olib borgan tadqiqot ishlarida ham Jizzax va Sirdaryo viloyatlari elektr energiya beradigan shamol resurslariga boyligi ta'kidlangan. Chunki vohaga atrofidagi tog'lardan esuvchi tog'-vodiy shamollari va Farg'ona vodiysidan esuvchi "Bekobod" shamolini doimiy esib turishi sabab bo'ladi.

Mirzacho'l vohasiga shimoli-g'arbdan va shimoldan keladigan shamollar ancha kuchli esadi. Chordara bo'yida esgan shamollarning 43% i shimoliy shamollarga to'g'ri keladi. Vohaning janubi-sharqi uchun qishki kuchli janubi-sharqiy shamollar xosdir. Shamolning kuchi o'rtacha ko'p yillik hisobda Paxtakorda 2,6-3,8 m/sec, Jizzaxda 3,4-3,2 m/sec, Mirzacho'lda 2,3-3,6 m/sec, Xovosda 3,3-3,8 m/sec ga teng. Mirzacho'l uchun xos bo'lgan mahalliy shamol Bekobod shamolidir. Bekobod shamoli asosan qishda esadi va shamol tezligi 30-40 m/sec gacha etadi. Yozda shamolning tezligi 15-20 m/sec dan oshmaydi. Vohaga tog'lardan esuvchi tog'-vodiy shamollari ham o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, vohaning ayrim tog' oldi hududlarida doimo esib turishi bilan xarakterlanadi.

To'plangan ma'lumotlar asosida Mirzacho'l vohasining shamol resurslari iqtisodiy samaradorligi jixatidan o'rganiladi va kartasi tuziladi. Mirzacho'l vohasida 1,5 milliondan ortiq aholi yashaydi, asosiy qismi qishloq tumanlariga to'g'ri keladi. Voha aholisining energiyaga bo'lgan ehtiyoji va ushbu hududdagi qishloq xo'aligi ishlab chiqarish korxonalarini energiya bilan ta'minlashda shamol energiyasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni qurish tez va katta mablag' talab etmaydi. Shu xususiyatlariga ko'ra vohada shamol energiyasidan foydalanish istiqbolli hisoblanadi.

Mirzacho'l vohasida aholining asosiy qismi tog' oldi tekisliklarida, cho'l hududlarda yashaydi. Ular yoqilg'i uchun Molguzar, Nurota tog'laridagi tabiiy o'rmonlar, buta va daraxtlarni, Aydarko'l bo'yida esa turong'il, saksovul va boshqa butalarni ayovsiz kesib yuborgan. Natijada tog' yonbag'irlarida tuproqlar yuvilib buloq va soy suvlari kamayib ketmokda, sel hodisasi kuchaymokda, tekislik hududlarida esa tuproq eroziyasi jadallashmoqda. Ushbu salbiy jarayonlarning oldini olish uchun mahalliy aholini yoqilg'i energiyasi bilan ta'minlash zarur. Qishloqlarda shamol, kuyosh energiyalaridan qancha tez va keng masshtabda foydalansak, aholini energiyaga bo'lgan talabi qondirilsa atrof-muhitning tabiatini yaxshilash bo'yicha eng katta tadbirni amalga oshirgan bo'lar edik. Ya'ni shamol va suv energiyasidan foydalanish asosida yoqilg'i uchun daraxtlarni kesish xillari keskin kamayadi va tabiatda barqarorlik tarkib topadi.

Shamol energiyasidan foydalanish tog' oraliq tekisliklarda, olis yaylov chorvachiligi va sug'orma dehqonchilik mavjud hududlarda yer osti suvlarni yer yuzasiga chiqarish va bu suvlar bilan sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish imkoniyatlarini ochadi. Shamol energetikasining rivojlanishi yangi ish joylarini tashkil qilishga katta imkoniyatlar yaratadi. Hozir dunyo bo'yicha shamol energetikasi industriyasi sohasida 600 mingdan ortiq kishi faoliyat yuritmoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda yer yuzidagi jami qazilma yoqilg'i resurslari insoniyat ehtiyoji uchun 130 yilga yetar ekan xolos, shunday ekan energetikaning noan'anaviy turlaridan kengroq foydalanishni davrning o'zi taqozo qilmoqda. Shamol elektr stansiyalari tashkil etish aholini bandlik darajasiga ham ijobiy ta'sir etadi va yangi ish o'rinlari yaratishga imkoniyat yaratadi.

Vohaning tekislik hamda tog'oldi hududlarida juda ko'p shamol resurslari mavjud. Tekislik qismida, ko'pincha 5 m/s dan yuqori tezlikda shamollar esishi kuzatiladi. Shuning uchun ushbu tezlikda ishlashni boshlaydigan shamol qurilmalari bu erda kam muddatda bo'sh turib qolib ishlaydi (30% vaqtdan kam). Viloyatning shimoliy katta hududida, Paxtakor, Arnasoy, Do'stlik, Mirzacho'l, Zafarobod va Forish qishloq tumanlarining katta qismi tekisliklardan iborat bo'lib shamol elektrostansiyalarining doimiy ishlashi imkoni bordin. Vohaning tog'oldi hududlarida shamol tezligi o'rtacha 2,6-3,5 m/s ni tashkil etadi. Shuning uchun tog' oldi hududlarining katta qismida shamol energiyasi qurilmalari uzoq vaqt bo'sh turub qolib ishlaydi. Bundan istisno sifatida tog' oldilarining alohida yerlarini keltirish mumkin (Jilliguli, G'allaorol, Baliqlitog' va Pistalitog'lar oraliq qismlarida

5-6 m/s tezlikda), ular tog' adirlaridan chiqish yerlarida joylashgan. Ushbu hududlarda quyosh panellari joylashtirish orqali energiya uzulishini oldini olish mumkin.

Shamoldan elektr energiya olish asosan ikki omil bilan bog'liq: shamol tezligiga va parraklar uzunligiga. Shamol tezligi 2 m/sec dan boshlab parraklar jadal aylana boshlaydi va kam elektr beradi. Bu tezlikda 3.0 m uzunlikdagi parraklar 0.01 kVt, 4.0 m uzunlikdagi parraklar 0.02 kVt energiya beradi. Parraklar diametri 7 m bo'lsa 3m/sec va 4m/sec tezlikdan shamollar shu tezliklarga mos ravishda 0.23 kVt va 0.56 kVt elektr energiya beradi.

Mirzacho'l vohasining Sangzor vodiysi hududida to'rtta metrologik stansiyalar Baxmal, G'allaorol, Bahorikor unga yaqin bo'lgan Bulung'ur metrologik stansiyalarida shamolning yil bo'yi o'rtacha tezligi 3-5 m/sec dan kam bo'lmadi. Shu bois Sangzor vodiysining hamma hudud va qishloqlarida shamol generatorlari o'rnatilgan, ulardan katta miqdorda elekt energiya olish mumkin. Ammo ayrim vaqtlari bir necha kun shamolsiz kunlar uzoqroq davom etishi ham mumkin. Bu vaqtlarda shamol energiyasi bilan birga kuyosh batareyalaridan ham birgalikda foydalanish ancha katta samara beradi.

Hozir faoliyat ko'rsatayotgan meteorologik stansiyalar va postlar soni Jizzax viloyatida 6 ta, Sirdaryo viloyatida 4 ta- jami 10 ta. Bu stansiya va postlarda shamol tezligi va yunalishi 10 metr balandlikda o'lchanadi. Loyiha rejasi bo'yicha biz yana 4 ta yangi post tashkil qilamiz va ularning barchasida shamol tezligi 40 metr balandlikda o'lchanib, quyosh radiatsiyasi intensivligi aniqlanadi. Bulardan tashqari rejamizda qo'l anemometrlari yordamda shamol tezligining vaqti-vaqti bilan o'lchash ishlari bajariladi, agarda avtomatik yozib oladigan asboblarni qo'llanilsa, yana bir nechta statsionar post tashkil qilish mumkin.

Olingan ma'lumotlar bazasi vohaning elektr energiya beradigan shamol va quyosh radiatsiyasi resurslarini ilmiy baholashga asos bo'ladi. Ma'lumotlarni ilmiy tahlil qilgan holda, Mirzacho'l vohasining shamol va kuyosh radiatsiyasi resurslari kartalari tuziladi. Kartalarda shamol tezligi, yunalishi hamda elektr energiya beradigan shamol quvvati ranglar, jadvallarda, chizma va raqamlarda aniq ko'rsatiladi. Bundan tashqari quyosh radiatsiyasi intensivligi, fasllar bo'yicha o'zgarishi ham xaritalarda aks ettiriladi. Tuzilgan kartalar shamol va quyosh qurilmalarini o'rnatishga ilmiy asos bo'lishi bilan birga aholini energiya taminotini taqsimlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan masalalarni hal qilish dolzarb vazifa bo'lib, buni bajarish respublikamiz iqtisodiyotini yuksalishida muhim rol o'ynaydi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalar kabi tabiiy resurslar asosida noan'anaviy energiya ishlab chiqarishga davlat miqyosida e'tibor qaratilganligi va sohani rivojlantirish maqsadida huquqiy-me'yoriy hujjatlar va amalga oshirish yuzasidan yo'l xaritalarini ishlab chiqilganligi muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari noan'anaviy energiyalardan foydalanuvchilariga iqtisodiy rag'batlantirish maqsadida soliq va to'lovlardan imtiyozlar yaratilganligi kelajakda sohani yanada izchil rivojlanishiga olib keladi, bu esa energiya ishlab chiqarishda atrof-muhit ifloslanishini kamayishiga sabab bo'lib ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Nazarov X., Nishonov S., Ismoilov Sh., Gulimmatov I. /Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida intellektual salohiyatli yoshlar mamlakat taraqqiyotining muhim omili. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2016, 6-9 b.
2. Nazarov Kh., Yusupova K. The issues of producing electric power from the wind resources in Jizzakh region. Science and world. – Volgograd, 2017. -p.134-136.
3. Nazarov Kh.T. Yusupova K. Comparative study fodder plant in desert condition. European science review. 2017. -p.24-26.
4. Nazarov X., Eshquvvatov B., Yusupova K. SamDU ilmiy axborotnomasi. – Samarqand, 2017.
5. Jeremy Shere. (2013). The World-Changing Power of Alternative Energy.
6. <http://parliament.gov.uz/uz/>

UDK: 551.31(575.144)

NAVOIY VILOYATI AHOLISINING MILLIY TARKIBI

Sherxolov O.I.

*Samarqand davlat universiteti*E-mail: olimsheer1982@gmail.ru

Annotatsiya. Maqolada Navoiy viloyati aholisi milliy tarkibining yillar davomida o'zgarish dinamikasi va hududlar bo'yicha tarqalishi yoritib berilgan. Aholi milliy tarkibi Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlariga asoslangan holda tahlil qilingan. Aholi milliy tarkibiga tabiiy ko'payish va migrasiyaning ta'sir ko'rsatganligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: millat, milliy tarkib, petroglif, migrasiya, tabiiy harakat, Buyuk ipak yo'li.

Национальный состав населения Навоийской области

Аннотация. В статье описывается динамика национального состава населения Навоийской области по годам и разбивка по регионам. Национальный состав населения был проанализирован на основе данных, предоставленных областным статистическим управлением. Изучено влияние естественного воспроизводства и миграции на национальный состав населения.

Ключевые слова: нация, национальный состав, петроглиф, миграция, естественное движение, Великий шелковый путь.

The national composition of the population of the Navoi region

Abstract: The article describes the dynamics of the national composition of the population of the Navoi region by years and the breakdown by region. The national composition of the population was analyzed based on data provided by the regional statistical office. The influence of natural reproduction and migration on the national composition of the population is studied.

Keywords: nation, national composition, petroglyph, migration, natural movement, the Great Silk Road.

Kirish

Aholining milliy tarkibini aniq bilish qiyin masala hisoblanadi. Chunki hududlarning milliy tarkibi yetarli o'rganilmagan. Bunga sabab, ayniqsa keyingi vaqtlarda turli millatlar o'rtasida nikohlarning ko'payishi millatlar aralashuviga olib kelmoqda. Bu esa tug'ilayotgan chaqaloqning qaysi millatga mansubligida noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Aniqroq aytadigan bo'lsa, aholi qaysi bir davlatda doimiy yashasa, o'sha joyda qaysi millat asosiy bo'lsa farzandining kelajakda turli lavozimlarda ishlashini xohlashi va boshqa sabablarga ko'ra, o'zi boshqa millatga mansub bo'lsa ham shu yerlik millatga moslab tug'ilganlik haqidagi guvohnoma va fuqarolik pasportlarini rasmiylashtirish holatlari kuzatiladi. Aholining milliy tarkibiga tabiiy ko'rayish va migrasiya katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, migrasion aloqalar kuchli bo'lgan hududlarda aholining milliy tarkibi xilma xil bo'ladi. Shuning uchun aholining milliy tarkibi faqat aholi ro'yxati o'tkazilganda nisbatan aniq o'rganiladi. Shunday bo'lsa ham, biz hududlarning aholi milliy tarkibini o'rganishda statistik ma'lumotlarga asoslanamiz.

Maqolada Navoiy viloyati aholisi milliy tarkibi Viloyat statistika ma'lumotlariga asoslanib o'rganiladi.

Asosiy qism

Navoiy viloyati hududi ham qadimdan aholi yashab kelayotgan manzilgohlardan biri hisoblanadi. Viloyat aholisining milliy tarkibi uzoq davom etgan tarixiy davr rivojlanishi bilan bog'liq. Ya'ni bu viloyat hududidan Buyuk Ipak yo'lining o'tganligi, arab, mo'g'ul, rus va boshqalar tomonidan bosib olinishi kabi voqealar aholining milliy tarkibiga o'z ta'siri ko'rsatgan.

Navoiy viloyatining qadimiy maskanlaridan biri Karmanadir. Quyi Zarafshon vohasida joylashgan bu go'zal diyor o'ziga xos tabiati, iqlim sharoiti, shifobaxsh zilol buloqlari, konchilik, kulolchilik, sangburlik va boshqa hunarmandchilik turlari, dehqonchilik va chorvachilik bilan qadim Turon zaminida yuksak mavqega ega bo'lgan. Sarmishsoy qoyalaridagi petrogliflar, Uchtut va Sangbur konlarining qoldiqlari, Qumrabot qazilmalari Karmananing inson sivilizatsiyasi beshiklaridan

biri ekanligini ko'rsatib turibdi. Endilikda turk, ozarbayjon va turkman xalqlari, qisman o'zbek xalqining bobokaloni bo'lgan saljuqlar Karmana mintaqasida xalq sifatida shakllanganlar va milliy tarkibiga o'z ta'sirini ko'rsatganlar [3].

1-jadval

Navoiy viloyati aholisining milliy tarkibi (foiz hisobida)

Yillar	Jami	o'zbeklar	tojiklar	ruslar	qozoqlar	qoraqalpoqlar	qirg'izlar	tatarlar	turkmanlar	koreyslar	ukrainlar	ozarbayjonlar	boshqa millatlar
1992	100	68,34	1,50	10,50	10,05	2,31	0,10	2,46	0,07	0,23	0,97	0,65	2,81
1995	100	71,91	1,53	7,81	10,38	2,39	0,10	2,03	0,06	0,21	0,70	0,62	2,26
2000	100	74,85	1,50	6,07	10,19	2,47	0,09	1,70	0,06	0,18	0,52	0,56	1,81
2005	100	79,11	1,52	4,50	8,24	2,49	0,09	1,33	0,06	0,14	0,37	0,53	1,61
2010	100	82,99	1,51	3,48	5,96	2,45	0,08	1,10	0,06	0,12	0,26	0,51	1,48
2015	100	87,33	1,47	2,00	3,97	2,42	0,07	0,75	0,08	0,11	0,12	0,46	1,23
2017	100	87,85	1,44	1,81	3,87	2,37	0,07	0,69	0,08	0,11	0,10	0,44	1,17
2017 yil 1992 yilga nisbatan o'zgarish %	0,00	19,51	-0,06	-8,70	-6,18	0,06	-0,04	-1,77	0,01	-0,12	-0,87	-0,21	-1,64

2-jadval

Navoiy viloyati tuman va shaharlari aholisining milliy tarkibi (% hisobida, 2018)

	Navoiy viloyati	Navoiy sh.	Zarafshon sh.	Tumanlar								
				Konimex	Qiziltepa	Navbahor	Karmana	Nurota	Tomdi	Uchquduq	Xatirchi	
Jami aholi	100	14,1	8,5	3,1	15,3	11,3	12,9	9,3	1,5	3,9	20,0	
Shu jumladan:												
O'zbek	100	13,3	7,6	0,9	16,8	12,4	14,1	8,9	0,4	3,0	22,5	
Qoraqalpoq	100	11,5	5,6	41,6	0,9	2,1	0,8	0,9	15,7	20,5	0,5	
Rus	100	58,7	24,5	0,8	1,0	1,5	0,8	0,9	0,2	9,7	2,0	
Ukrain	100	57,9	23,4	0,0	1,6	1,5	2,8	4,6	6,3	0,1	1,9	
Belorus	100	76,1	0,0	0,0	0,0	0,0	12,7	0,7	0,0	3,5	7,0	
Qozoq	100	2,2	20,6	32,0	0,0	0,6	0,1	22,9	18,7	2,7	0,0	
Ozarbayjon	100	45,1	14,5	0,0	6,0	1,8	4,7	0,9	2,3	19,6	5,1	
Qirg'iz	100	47,1	10,1	0,2	0,2	0,2	31,1	0,2	0,0	10,7	0,3	
Tojik	100	7,7	7,3	0,4	22,0	12,9	10,6	35,5	0,1	1,4	2,0	
Turkman	100	24,5	29,4	7,8	4,3	0,7	1,2	7,2	4,7	2,3	18,1	
Tatar	100	42,4	19,1	0,5	4,1	1,0	7,7	1,5	0,0	16,7	6,9	
Koreys	100	10,4	13,8	0,0	10,7	0,0	14,2	9,0	0,0	40,6	1,3	
Boshqa millatlar	100	28,7	7,7	4,9	6,8	9,6	14,9	5,4	3,9	13,0	5,1	

Bundan tashqari viloyatning janubiy va janubi-sharqiy hududlari ham qadimdan sivilizatsiya rivojlangan hududlardan hisoblanadi. Chunki bu hudud Samarqand va Buxoro kabi qadimdan dunyoga mashhur shaharlarning o'rtasida, qulay geografik o'rinda joylashganligi, Zarafshon daryosining oqib o'tishi, ayniqsa tog'li hududlarida buloq va soylarning mavjudligi bu yerda turli millat vakillarining qadimdan yashab kelishiga sababchi bo'lgan. Ayniqsa o'tgan asrning ikkinchi yarmidan keyin viloyat hududida foydali qazilmalarning ko'plab topilishi, ularning ishga tushirilishi sababli boshqa

mamlakatlardan ishchi kuchi sifatida ayniqsa rus, tatar, ukrain, qozoq va boshqa millatlarning ko'chib kelishi hisobiga ham viloyat aholisi milliy tarkibi o'zgara boshlagan. Hozirgi kunda viloyatda 30 dan ortiq millat va elat vakillari yashamoqda.

Statistik ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, bu viloyatda ham boshqa viloyatlardagi kabi aholisi milliy tarkibida o'zbeklar birinchi o'rinni egallaydi. Masalan, 1992 yilda viloyat aholisining 68,34 % ini o'zbeklar tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilga kelib esa qariyb 88% ni tashkil qilgan, ya'ni o'zbeklar 19,51 % ga oshgan. 1992 yil viloyat aholisi milliy tarkibida 2-chi o'rinni 10,5 % bilan ruslar egallagan bo'lsa, 2017 yilda esa 1,44 % ni tashkil etgan, ya'ni -8,7 % ga kamaygan. 1992 yilda aholi milliy tarkibida 3-chi o'rinda 10 % bilan qozoqlar turgan bo'lsa, 2017 yilda esa 3,87 % ni tashkil etgan, ya'ni -6,18 % ga kamaygan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bunday holatni boshqa millatlarda ham ko'rish mumkin. Faqatgina 1992 yilga nisbatan 2017 yilda qoraqalpoqlar 2,31 % dan 2,37 %, ya'ni 0,06 % ga, turkmanlar 0,07 % dan 0,08 %, ya'ni 0,01 % ga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, aholi milliy tarkibining bunday o'zgarishiga, avvalo, tashqi migratsiya ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, keyingi o'rinda boshqa millatlarga nisbatan o'zbek millatida tabiiy ko'payishning nisbatan yuqoriligi boshqa millat vakillarining kamayishi ta'sir ko'rsatgan.

Viloyat aholisi milliy tarkibini shahar va tumanlar kesimida tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, 2018 yil 1 yanvar holatiga ko'ra viloyatning milliy tarkibida 1-o'rinda o'zbeklar, 2-o'rinda qozoqlar, 3-o'rinda qoraqalpoqlar, 4-o'rinda ruslar asosiy millatlar hisoblangan. Viloyatning tuman va shaharlari ichida asosiy millat vakillaridan o'zbeklar salmog'i 22,5 % bilan Xatirchi tumani 1-chi o'rinni, 16,8 % bilan Qiziltepa tumani 2-chi o'rinni egallagan bo'lsa, 0,4 % bilan esa Tomdi tumani oxirgi o'rinni egallagan. Ruslar salmog'iga ko'ra 58,7 % bilan Navoiy shahri 1-chi, Zarafshon shahri 24,5 % bilan 2-chi o'rinda turgan bo'lsa, oxirgi o'rinni 0,2 % bilan Tomdi tumani egallab turibdi. Qoraqalpoqlar salmog'iga ko'ra 41,6 % bilan Konimex tumani 1-chi, 20,5 % bilan Uchquduq tumani 2-chi, oxirgi o'rinni 0,5 % bilan Xatirchi tumani egallagan. Qozoqlar salmog'iga ko'ra 32,0 % bilan Konimex tumani 1-chi, 22,9 % bilan Nurota tumani 2-chi, 20,6 % bilan Zarafshon shahri 3-chi o'rinda turgan bo'lsa, Qiziltepa va Xatirchi tumanlarida esa 0,1 % ga ham yetmaydi.

Xulosa va natijalar

Umuman olganda viloyatning har bir tuman va shahrida qaysidir millat vakillari asosiy o'rinni egallaydi. Navoiy va Zarafshon shaharlarida viloyatdagi mavjud barcha millat vakillari yashaydi, lekin tumanlarning har birida qaysidir millat vakillari ko'proq yashashadi. Masalan, Konimex tumanida viloyatdagi qoraqalpoqlarning 41,6 %, qozoqlarning 32 %, turkmanlarning 7,8 % yashaydi, Qiziltepa tumanida esa viloyatdagi tojiklarning 22,0 %, o'zbeklarning 16,7 %, koreyslarning 10,7 %, Karmana tumanida qirg'izlarning 31,1 %, o'zbeklarning 14,1 %, koreyslarning 14,2 %, tojiklarning 10,6 %, beloruslarning 12,7 %, Nurota tumanida tojiklarning 35,5 %, qozoqlarning 22,9 %, Tomdi tumanida qozoqlarning 18,7 %, qoraqalpoqlarning 15,7 %, Uchquduq tumanida koreyslarning 40,6 %, qoraqalpoqlarning 20,5 %, ozarbayjonlarning 19,6 % tatarlarning 16,7 %, Xatirchi tumanida o'zbeklarning 22,5 %, turkmanlarning 18,1 %, beloruslarning 7 % asosan istiqomat qiladi.

Viloyat aholisining milliy tarkibi o'zgarishiga birinchi navbatda mustaqillikga erishganimizdan keyin tashqi migratsiya katta ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, rus, qozoq, tatar, ukrain va boshqa millatlar o'z ona yurtiga ko'chib ketgan. Masalan, ruslar 1992 yilda 73387 kishi bo'lgan bo'lsa, 2017 yilda 17294 kishini tashkil qilgan, ya'ni 56093 kishiga kamaygan. Qozoqlar esa shu yillar davomida 33126 kishiga, tatarlar 10593 kishiga, ukrainlar 5785 kishiga kamaygan. Aholi milliy tarkibiga tabiiy ko'payish ham ta'sir ko'rsatadi. 1992 yilda o'zbeklar 477583 kishi bo'lgan bo'lsa, 2017 yilga kelib esa 841639 kishi tashkil etgan, ya'ni 360056 kishiga ortgan. Tojiklar esa shu yillar davomida 3341 kishiga ko'paygan. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'zbek va tojiklarda tabiiy ko'payish yuqoridir.

Adabiyotlar

1. Асанов Г.Р. Аҳоли географияси. – Т.: Ўқитувчи. 1978. - 222 б.
2. Бо'riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – Т.: Tafakkur, 2011. – 156 б.
3. Иноятлов С, Ҳайитова О. Кармана тарих кўзгусида (Энг қадимги даврлардан XX асрлар бошларигача). –Т., 2006.-192 б.
4. Кадиоров М.А. Самарқанд вилояти аҳоли географияси. - Самарқанд 2017. – 142 б.

5. Kadirov M.A. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan. – T.: 2019. 320 b.
6. Солиев А.С. Ўзбекистон географияси. – Т., 2014. – 360 б.
7. www.navstat.uz

UDK: 551.4

KONUSSION YOYILMA LANDSHAFTLARNI MELIORATSIYALASHNING ASOSIY PRINSIPLARI

Yarashev Q.S., Eshquvvatov B.B.
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: maqolada yirik tog‘oralig‘i botiqlaridagi konussion yoyilma landshaftlarini o‘rganilishida mualliflarning bajargan ilmiy tadqiqot ishlari, shuningdek landshaftlarni meliorativ holatini yaxshilashning regional, tipologik hamda paradinamik va paragenetik aloqadorlik prinsiplari masalalari o‘rganilishi bilan bir qatorda landshaft komplekslarini meliorativ holatni yaxshilashda har bir prinsipning o‘ziga xos xususiyatlari alohida tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: geosistema, muammo, prinsip, regional, tipologik, paradinamik va paragenetik aloqadorlik, melioratsiya, konussion yoyilma, tog‘oralig‘i botig‘i.

Основные принципы мелиорации ландшафтов конусов-выносов

Аннотация: В статье представлены результаты по изучению ландшафтов конусов-выносов в межгорных котловинах, изучены вопросы взаимосвязи регионального, типологического, парадинамического и парагенетического принципов улучшения мелиоративного состояния наряду со своеобразными свойствами каждого принципа улучшения ландшафтных комплексов.

Ключевая слова: геосистема, проблема, принцип, региональной, типологический, парадинамическая и парагенетическая взаимосвязь, мелиорация, конусов-выносов, межгорная котловина.

Basic principles of melioration of landscapes of cones-removals

Abstract. The article reveals the author's research works on the study of the landscape of cone-drifts in intermountain pits, as well as the study of the interrelation between the regional, typological, paradantic and paragenetic principles for improving the meliorative state, along with the unique properties of each principle of improving landscape complexes.

Keywords: geosystem, problem, principle, regional, typological, paradynamic and paragenetic interconnection, melioration, cone-drifts, intermontane basin.

Konussion yoyilma landshaftlarni va ularni strukturasini ichki xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish, quyi tipologik birlikdagi geokomplekslarga ajratish, landshaft-tipologik, landshaft-meliorativ, landshaft-ekologik kartalarini tuzish, meliorativ holatini baholash, kelajak uchun bashoratlar ishlab chiqishga oid tadqiqot ishlarini olib borish ularning ilmiy asoslarini va uslubiy jihatlarini ishlab chiqish, shu kunning dolzarb masalasidir.

O‘zbekistonning konussion yoyilmalari va quruq deltalarini V.N.Veber, N.I.Nikolayev, N.V.Rogovskaya, N.P.Kostenko, M.A.Pankov, A.Maqsudov, N.I.Sobitova va A.K.O‘razboyev hamda boshqalarning ishlarida o‘z ifodasini topgan. Ularning landshaft sifatida tarkib topishi, morfologik strukturasini va antropogen omil ta‘sirida transformatsiyalanishi A.A.Abdulqosimov, M.Sh.Eshonqulov, K.M.Boymirzayev, N.I.Sobitovlar tomonidan tadqiq etilgan [2; 3-21]. Lekin konussion yoyilma landshaftlarning zonal va regional xususiyatlari, barqaror rivojlanishi, dinamik o‘zgaruvchanligi hozirga qadar batafsil o‘rganilmagan. Landshaftlarning ushbu xususiyatlarini o‘rganishda quyidagi prinsiplarga amal qilish maqsadga muvofiq deb hisolaymiz:

Landshaftlarni melioratsiyalashning regional prinsipi. Tabiiy landshaft komplekslarini melioratsiyalash yo‘li bilan tubdan o‘zgartirishda va ularning unumdorligini oshirishda har qaysi regionning tabiiy sharoiti, geografik muhitini, mikroiklimini va gidrografik rejimini hisobga olish zarur. Regional komplekslarning xarakterli xususiyatlari shundan iboratki, ular genetik jihatdan bir xilligi, hududiy jihatdan yaxlitligi, individual strukturaga ega ekanligi va tabiatda takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. A.A.Abdulqosimov va O.M.Qo‘ziboyevalarning [1; 3-134] ta‘kidlashicha

landshaftlarning regional xususiyatlarini ochib berish tabiiy geografik rayonlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun landshaft-meliorativ sistemani loyihalashtirishda va boshqarishda tabiiy geografik rayonlashtirishning ilmiy va amaliy ahamiyati juda katta. Mualliflar So'x konussimon yoyilmasi landshaftlarining strukturasini va meliorativ holatini murakkabligini e'tiborga olib, uni melioratsiyalashtirish vazifasini amalga oshirishda tabiiy geografik rayonlashtirishni yonbag'ir mikrozonalashtirish yo'li bilan hal qilgan. Bu shundan darak beradiki, landshaftlarni melioratsiyalashtirishda regional prinsipning qo'llanilishi zarurligi va maqsadga muvofiqligi tajribalarda asoslangan. Regional prinsipga qat'iy amal qilish va undan foydalanish uzoq muddatli va samarali meliorativ sistemalarni shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Landshaftlarni melioratsiyalashtirishning tipologik prinsipi. Meliorativ landshaftshunoslikda meliorativ ishlarni loyihalarini tuzish va manfaatdorligini oshirish tipologik landshaft komplekslarini dala sharoitida batafsil o'rganish amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Tipologik komplekslar areallari yaxlit va genetik jihatdan bir xil bo'lgan regional landshaft komplekslaridan o'zining areallarini tarqoqligi, genetik jihatdan bir xil emasligi, balki morfologik strukturasining o'xshashligi va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tipologik landshaft komplekslar (landshaft tipi, joy tipi, urochisha tipi, fatsiya tipi) bir xil tipdagi tabiiy tuzilmalardan tarkib topishi ularni melioratsiyalashtirishda maxsus loyihalarni tuzishni va amaliyotda keng foydalanishni talab etadi. Tipologik komplekslarni dala sharoitida ajratish va chegaralash landshaft kartalashtirish yordamida amalga oshiriladi. Nomlari zikr etilgan komplekslarni melioratsiyalashtirish maqsadida tuzilgan har qaysi namunaviy loyihani tabiatda qonuniy ravishda takrorlanadigan va bir-biriga o'xshash bo'lgan o'nlab joy tiplariga, urochishalarga va fatsiyalarga individual yondashib bemalol qo'llash mumkin. Namunaviy tuzilgan loyihalarni tipologik landshaft komplekslarini melioratsiyalashtirishda qo'llanilishi kam mablag' sarf qilish imkonini yaratadi.

Landshaftlarni melioratsiyalashtirishning paradinamik va paragenetik aloqadorligini hisobga olish prinsipi. Landshaft komplekslarining o'zaro paradinamik aloqadorligini hisobga olish meliorativ sistemalarning landshaft komplekslari bilan o'zaro ta'sir doirasida optimal sharoitni barpo etish uchun zarur. Meliorativ landshaft komplekslar dinamik jihatdan yondosh hududlarning geosistemalari bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, yondosh komplekslarni tarkibiy qismini tashkil etuvchi elementlari bilan mustahkam bog'langan. Ularning o'zaro uzviy bog'lanishi modda va energiya oqimining ta'siri yordamida amalga oshadi. Landshaft komplekslarining o'zaro paradinamik ta'sirini aniqlash, ularning modda va energiya almashinish jarayonini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun meliorativ sistemalarni loyihalashtirishda paradinamik landshaftlar sistemasining elementlarini o'zaro ta'sir etish xarakterini va xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Regional yoki tipologik landshaft komplekslarining yondosh hududlardagi landshaft komplekslari bilan dinamik aloqadorlikda bo'lishi, buning oqibatida paradinamik landshaft komplekslarining paydo bo'lishi va barqaror rivojlanishi F.N.Milkovning [4; 5-11] paradinamik landshaft komplekslari to'g'risidagi konsepsiyani yaratilishiga asos bo'lgan.

Tabiiy va antropogen landshaft komplekslarining meliorativ loyihalarini ishlab chiqishda paradinamik geosistemalar kabi paragenetik komplekslarning o'zaro aloqadorliklarini va o'zaro ta'sirini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Chunki paragenetik landshaft komplekslar paradinamik geosistemalarning alohida bir turi hisoblanadi. Tabiatda yaxlit paragenetik landshaft komplekslarning mavjudligi to'g'risidagi g'oya F.N.Milkovga taaluqlidir. U o'zining «Paragenetik landshaft komplekslar» [3; 3-7] maqolasida Yerning landshaft sferasida paragenetik komplekslar alohida kategoriya ekanligi, kelib chiqishining umumiyliigi, genetik jihatdan bir xilligi, dinamik aloqadorligining kuchliligi va boshqa xususiyatlari e'tirof etilgan.

Paragenetik landshaft komplekslarning tarkib topishi, mohiyati, xususiyatlari, turlari va ularni kartalashtirish masalalari Rossiya tekisligida F.N.Milkov, N.A.Gvozdet'skiy, V.B.Mixno, K.A.Droz'dov, V.I.Fedotov, N.I.Axtir'seva, Z.P.Berdnikova, A.Yu.Reteyum, Qrim yarim orolida G.E.Grishankov, G'arbiy Sibirda V.I.Bulatov, V.V.Kozin, O'rta Osiyo va O'zbekistonda A.A.Abdulqosimov, O.M.Qo'ziboyeva, Q.S.Yarashev va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari chop etilgan monografiya hamda maqolalarda keng yoritilgan.

O'rta Osiyo va O'zbekiston hududlarida katta maydonlarni egallab yotgan arid landshaftlarni o'zlashtirish va antropogen voha landshaftlar maydonlarini kengaytirish maqsadida ko'plab magistral kanallar, suv omborlari barpo etildi. Bu gidroinshootlar landshaft komplekslarini melioratsiyalashtirishda, sug'oriladigan agrolandschaftlarning meliorativ holatini optimallashtirishda, landshaft-meliorativ

loyihalarni tuzishda katta axamiyatga ega. Ma'lumki, o'zlashtirilgan landshaft komplekslar yondosh joylashgan tabiiy landshaft komplekslari bilan modda va energiya uzluksiz almashinishi, grunt suvlarining ko'tarilishi va boshqa omillar ta'sirida antropogen paragenetik landshaft komplekslar paydo bo'ladi. Ayniqsa, barcha turdagi gidroinshootlar va doimiy sug'oriladigan agrolandschaftlar yondosh bo'lgan hududlar bilan o'zaro aloqadorlikda bo'lib antropogen paragenetik geosistemalarni vujudga keltiradi, shakllantiradi va barqaror rivojlanishiga qulay sharoit yaratib beradi.

Surxondaryo o'zanida qurilgan Janubiy Surxon, Zarafshon vodiysidagi Kattaqo'rg'on, Qoradaryo o'zanida barpo etilgan Andijon suv omborlari, Aydar sho'rxok cho'l botig'ida paydo bo'lgan Aydar-Arnasoy antropogen ko'llar sistemasi, Katta Farg'ona kanali, Katta Andijon kanali, Janubiy Mirzacho'l kanali, Qoraqum kanali va boshqa irrigatsion inshootlar uzoq yillar davomida o'zlariga yondosh bo'lgan tabiiy komplekslar bilan o'zaro paragenetik aloqada va paradinamik ta'sirda bo'lib, kelib chiqishi jihatidan bir xil bo'lgan paragenetik landshaft komplekslar sistemasi katta maydonlarni egallab oldi.

Suv omborlarining tevarak-atrof muhitga ko'rsatayotgan ta'siri uch xil zonani vujudga keltiradi: 1) geomorfologik ta'sir zonasi, 2) gidrogeologik ta'sir zonasi, 3) iqlimiy ta'sir zonasi. Bu omillarning ta'sir etish zonasi bir xil kenglik va uzoqlik masofa bilan o'lchanmaydi. Geomorfologik ta'sir zonasi bevosita qirg'oqlar chegarasi bilan bog'liq bo'lib, qirg'oqlarni yemiradi, qiyofasini o'zgartiradi, tik yonbag'irli qirg'oqlar va tekis plyajlar hosil qiladi. Gidrogeologik ta'sir zonasida yondosh tabiiy geokomplekslarning grunt suvlari sathi ko'tarilib, tuproq va o'simliklar qoplamida evolyusion o'zgarishlar yuzaga keladi, arid landschaftlar o'rnida gidrogen landschaftlar – botqoq, botqoq-o'tloq va o'tloq landschaft komplekslari paydo bo'ladi. Iqlimiy ta'sir zonasida mikroiklimning o'zgarish darajasi suv omborlarining maydoniga bog'liq holda 1-2 km dan 3-4 km gacha boradi. Mikroiklim zonasining ta'siri jazirama yoz oylarida yaqqol seziladi. Mahalliy aholi mikroiklim zonasidan rekreatsion maqsadlarda foydalanadi.

Qoraqum magistral kanalining tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sirini L.M.Grave [5] tadqiq etgan. Uning ta'kidlashicha kanalning chegaradosh bo'lgan arid landschaftlarning tabiiy geografik holatiga va komponentlariga, dinamik rivojlanishiga, tarixiy shakllangan ekosistemalariga ko'rsatayotgan ta'siri juda kattadir. Qoraqum kanalining gidrogeologik ta'sir zonasi shimoliy qirg'og'ida 5 km dan 20 km gacha boradi. Kanal barpo etilmasdan oldin bu yo'nalishda eol qum massivlari, barxanlar, taqirlar, sho'rxok geosistemalar hukmronlik qilgan. Kanal qurilishi bilan ularning o'rnini paragenetik aloqadorlik va paradinamik o'zaro ta'sir oqibatida son-sanoqsiz ko'llar, botqoq, o'tloq-botqoq va o'tloq gidrogen geosistemalar egallab oldi. Xuddi shunday meliorativ irrigatsion vaziyatlar Aydar-Arnasoy antropogen ko'llar sistemasida ham o'z aksini topgan.

Agar konussimon yoyilma landschaftlari regional nuqtai-nazardan tadqiq qilinsa va tavsif berilsa, tabiiy geografik rayonlashtirish prinsiplariga asoslangan holda yondashish zarur, geokomplekslar tipologik prinsip asosida melioratsiyalansa ularning morfologik aloqadorlik prinsipiga, paradinamik va paragenetik prinsip nuqtai-nazaridan melioratsiyalash amalga oshirilsa, ularning kelib chiqishidagi o'zaro bog'liqlik va umumiylikka asoslanish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Абдулкосимов А.А., Кўзибоева О. Сўх ёйилмаси ландшафтларини микрозоналаштириш ва мелиоратив баҳолаш. Монография. – Самарқанд, 2009. -134.
2. Ахтырцев Б.П. О склоновой микрозональности почв в Среднерусской лесостепи. //Склоновая микрозональность ландшафтов. –Воронеж, 1974. -С. 82-90.
3. Мильков Ф.Н. Парагенетические ландшафтные комплексы. //Науч. зап. Воронежск отд. Геогр. Об-ва СССР. – Воронеж, 1966. – С. 3-7
4. Мильков Ф.Н. Основные географические закономерности склоновой микрозональности ландшафтов. //Склоновая микрозональность ландшафтов. — Воронеж, 1974. –С. 5-11.
5. Граве Л.М. Взаимодействие Каракумского канала с природной средой. Известия, АН СССР. Сер.геогр., 1974, №5.

УДК: 910.4

BUYUK IPAK YO'LI: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK**Abbasov S.B.¹, Meliev B.A.¹, Yarashev Q.S.², Eshmamatov E.D.¹**¹*Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagogic kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mintaqaviy markaz*²*Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya. Maqolada Buyuk ipak yo'lining tarixi mufassal bayon etilgan va Buyuk ipak yo'lining o'tmishi, bugungi kuni hamda kelajagi haqida tasavvur berilgan. Shuningdek, turizm sohasini rivojlantirishda Buyuk ipak yo'lining roli va ahamiyati tahlil qilinib, kartalari ilova qilingan.

Kalit so'zlar: Buyuk ipak yo'li, Shimoliy yo'l, Janubiy yo'l, TRASEKA.

Великий шелковый путь: вчера, сегодня и будущее

Аннотация. В статье подробно рассказывается об истории Великого шелкового пути и дается представление о прошлом, настоящем и будущем Великого шелкового пути. Также, анализируется роль и значение Великого шелкового пути в развитии отрасли туризма.

Ключевые слова: Великий шелковый путь, Северная дорога, Южная дорога, TRASEKA.

The great silk road: yesterday, today and the future

Abstract. The article gives a detailed account of the history of the Great Silk Road, and provides insight into the past, present and future of the Silk Road. Also, the role and significance of the Great Silk Road in the development of the tourism industry is analyzed and maps are attached.

Keywords: Great Silk Road, North Road, South Road, TRASEKA.

Kirish

Buyuk Ipak Yo'li Yevrosiyo materigining sharqdan g'arbgacha bo'lgan mamlakatlarini qadimdan birlashtirgan savdo va aloqa yo'li hisoblanadi. Bu yo'lining asosiy maqsadi va vazifasi birinchi navbatda qadimdan ipakchilik, chinnivorlik rivojlangan Xitoydan O'rta Osiyo, Kichik Osiyo, Hindiston mamlakatlariga ipak eksport qilish bo'lsa, ikkinchidan shu mamlakatlardan Xitoyga turli xil gazlamalar, gilamlar, qimmatbaho toshlar, zeb-ziynat buyumlari, dori-darmonlar import qilish bo'lgan. Ana shu asosda Xitoyning O'rta Osiyo, Yaqin Sharq, Eron va keyinchalik O'rta dengiz bo'yi mamlakatlari – Gretsiya, Albaniya, Bolqon yarimorolining boshqa mamlakatlari hamda Italiya bilan savdo-sotiq, madaniy va elchilik aloqalari rivojlana borgan.

Buyuk Ipak Yo'lining Sharqiy Osiyodagi to'ng'ich markazi Xitoyning eng yirik daryosi bo'lgan Xuanxening o'rta oqimida joylashgan Sian shahridan boshlanib, so'nggi nuqtasi g'arbiy Yevropada Italiyaning Rim shahrigacha davom etgan. Buyuk Ipak Yo'li Markaziy, O'rta va Kichik Osiyo hududlarida juda ko'p tarmoqlarga bo'linib ketgan va yuzlab, minglab katta-kichik vohalarni, madaniy va savdo markazlarini bir-biri bilan tutashtirgan.

Asosiy qism

Xitoydan Italiyagacha cho'zilgan Buyuk Ipak Yo'lining O'rta Osiyodagi asosiy chorrahasi O'zbekiston hududi, aynan Samarqand vohasi bo'lgan. Shuning uchun markaziy yo'llar Baqtriya, Sug'diyona va Parfiya orqali o'tgan. Xitoydan Markaziy va O'rta Osiyogacha bo'lgan qadimgi karvon yo'li shimolda Turfondan Tarim-Qashqar-O'sh-Farg'ona-Samarqand-Marv-Eron orqali Mesopotamiyaga va janubda Ansu-Charklik-Xo'tan-Yorkent-Oloy-Pomir-Balx orqali Hindistonga yo'nalgan.

O'sha davrlardan Buyuk Ipak Yo'lini keng ko'lamda quloch yoyishi va ko'plab mamlakatlarni bir-biri bilan bog'lanishi Xitoy imperatori Udini juda qiziqtiradi. Uning topshirig'i bilan miloddan avvalgi 138 yilda Xitoy sayyohi Chjan Tsyen Markaziy va O'rta Osiyo shaharlari bo'ylab safar qiladi. Sayohatning asosiy maqsadi Buyuk Ipak Yo'lida joylashgan O'rta Osiyo shaharlari, ularning tabiiy sharoiti, madaniyati, aholisi va xo'jaligi bilan tanishish, o'rganish hamda ular to'g'risida geografiyaga, etnografiyaga, tarixga, madaniyatga oid materiallar to'plash edi.

Shuni ta’kidlash kerakki, Chjan Tsyanning Markaziy va O’rta Osiyoga qilgan sayohati qanchalik qiyin va mashaqqatli bo’lishiga qaramasdan, o’sha davrda bajarilgan ishlarning va to’plangan materiallarning ahamiyati juda kattadir. Chjan Tsyanning dastlabki sayohati va bosib o’tgan yo’llari keyinchalik xitoylik savdogarlar, elchilar va sayyohlarning ko’plab mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar o’rnatishga, yangi sayohatlar tashkil etishga yo’l ochib bergan.

Eramizning I-IV asrlarida, Kushon davlati mavjud bo’lgan davrda Buyuk Ipak Yo’lining barcha magistrallari shakllangan bo’lib, ular:

Farg’onadan Xo’jand orqali Zomin-Samarqand-Buxoro-Amudaryo-Chorjuy-Marv-Saraks-Mashhad Evropaga;


Farg’onadan Kamchik dovoni orqali Toshkent-Jizzax-Samarqand-Buxoro-Qiyot (Beruniy)-Urganch-Shimoliy Kaspiy orqali Sharqiy Evropaga;

Samarqanddan Kesh (Shahrisabz) orqali Ksenippu (Koson)-Amul’ (Chorjuy)-Marv-Nessu (Ashxobod yaqinida)-Jurjon (Gorgan)-Kaspiyning janubidan Suriya va Bobilga;

Samarqand-Kesh-G’uzor-Sherobod-“Temir Darvoza” - Darmamitra (Termiz)-Amudaryodan Baqtriya, Shimoliy Afg’oniston orqali Shimoliy Hindistonga va Pokiston orqali Fors qo’ltig’i hamda Qizil dengizga chiqilgan (1-rasmga qarang).

Eramizdan oldingi IV asrgacha asosan shimoliy quruqlik yo’lidan ko’p foydalanilgan bo’lsa, eramizning VIII-IX asrlariga kelib janubiy yo’llarning ahamiyati ortadi. Buyuk Ipak Yo’lining eng gullagan davri Amir Temur davriga to’g’ri kelib, bu davrda Temuriylar davlati sharqdan g’arbga juda katta hududda o’z hukmronligini o’rnatadi. Natijada karvon yo’llarini nazorat qilish, savdogarlarning havfsizligini ta’minlash oliy darajaga chiqadi. Yo’l bo’jlarining kamayishi, vositachilikka qo’yilgan cheklolar quruqlik orqali o’tgan janubiy yo’lni nufuzini oshirib, savdo-sotiq ishlarining rivojlanishiga sezilarli hissa qo’shadi. Bu o’z navbatida ilm-fan rivojiga ham ma’lum darajada turtki bo’ladi.

Ammo XV asrga kelib temuriylar davlatining parchalanishi, g’arbda usmoniylar imperiyasining ustunligini, janubda esa Eron davlatining hukmronligini keltirib chiqaradi. Bu esa vositachilikning kuchayishiga, savdo karvonlarining tinmay talanishiga olib keladi. Natijada quruqlik yo’lining nufuzi yo’qolib borishiga olib keldi. Shu davrdan boshlab Buyuk Ipak Yo’li o’z o’rnini dengiz yo’liga bo’shatib bera boshladi. Shu bilan qariyb 2500 yil asosiy karvon yo’li sanalgan, Evropa va Osiyoning o’nlab mamlakatlari, xalqlarini bir-biri bilan chambarchas bog’lab turgan Buyuk Ipak Yo’li o’z ahamiyatini yo’qotadi.



1-rasm. “Buyuk Ipak Yo’li” va uning tarmoqlari

O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab Buyuk Ipak Yo'lini qayta tiklash bo'yicha Yevropa va Osiyoning bir qator davlatlari, jumladan O'zbekiston ham ilk qadam tashladi. Har bir davlatning iqtisodiyotida avtomobil, temir yo'l, dengiz va havo yo'llarining ahamiyati qanchalik muhim ekanligi barchamizga ma'lum. Davlatning geografik joylashishiga bog'liq holda turli xildagi yo'llarning ahamiyati turlicha bo'ladi. Dengizlardan uzoq, berk havzada joylashgan O'rta Osiyo respublikalarida yuk tashishda asosan avtomobil va temir yo'l transportlaridan foydalaniladi.

Hozirgi texnik taraqqiyot va jadal iqtisodiy rivojlanish davrida faqat qo'shni davlatlar bilan bo'ladigan iqtisodiy aloqalar bizni qanoatlantirmaydi. Shu sababli tashqi savdoning rivojlanishida dengiz transportidan foydalanish imkoniyatlarini oshirib borishimiz maqsadga muvofiqdir.

O'rta Osiyo davlatlariga masofa jihatdan eng yaqin dengiz yo'li Qora dengiz hisoblanadi. 1993 yil may oyida Belgiyaning Bryussel shahrida Evropa iqtisodiy komissiyasi tashabbusi bilan O'rta Osiyo va Kavkaz orti davlatlari rahbarlarining yig'ilishi o'tkazildi va TRASEK (Evropa-Kavkaz-Markaziy Osiyo transport yo'lagi) loyihasi muhokama qilindi. Bu yo'lakning O'rta Osiyodan boshlanadigan bug'unlaridan biri Toshkent shahri bo'lib, temir yo'l marshruti Toshkent-Chorjuy-Turkmanboshi-Krasnovodsk-Boku-Poti shaharlarini o'z ichiga oladi. Yo'lning umumiy uzunligi 2950 km. TRASEK loyihasi bo'yicha avtomobil, temir yo'llar va dengiz portlari qayta ta'mirlandi.

Ma'lumki, Xitoy 2013 yilda Yevroosiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini kengaytirish maqsadida "Bir makon-bir yo'l" deb nomlangan iqtisodiy taraqqiyotning yangi strategiyasini e'lon qildi. Shu tariqa Xitoy raisi Si Tszinpin ko'p asrlik Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash borasidagi o'z g'oyalarini amalga oshirmoqda. Yangi Ipak yo'lini tashkil qilish g'oyasi Si Tszinpin tomonidan 2013 yilning 7 sentyabr kuni ilgari surilgan edi. Oradan bir oy o'tib, u Indoneziya parlamentida so'zlagan nutqida 21-asrning Buyuk Ipak yo'li haqidagi fikrlarini takrorladi.

«Bir makon, bir yo'l» loyihasining asosiy maqsadlaridan biri global erkin savdo tartibini qo'llab-quvvatlash, Osiyo, Yevropa va Afrika mamlakatlari o'rtasida integratsiyani kengaytirishga qaratilgan. Hisob-kitoblarga ko'ra, butun loyiha taxminiy iqtisodiy ko'lami 21 trillion AQSh dollarini tashkil qiladi.

Bugungi kunda 100 dan ortiq davlat loyihada qatnashish istagini bildirgan, 40 dan ziyodi Xitoy bilan hamkorlik qilish bo'yicha bitim imzolagan. Natijada 2013-yildan 2017-yilgacha Xitoy va «Bir makon, bir yo'l» loyihasiga qo'shilgan mamlakatlar o'rtasida tashqi savdo aylanmasi 4,8 trillion AQSh dollariga etdi, yillik o'sish 4 foiz oshdi.

Xitoy loyiha doirasida ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlikni nazarda tutuvchi «moslashuvchan mexanizmlar»ni qo'llab kelmoqda. Xitoyning tranzit-logistika sohasiga oid loyihalari Markaziy Osiyo mamlakatlarining jahon bozoriga chiqishi, boshqa davlatlar bilan sanoat kooperatsiyasini mustahkamlashiga keng yo'l ochmoqda.

O'zbekiston birinchilar qatorida «Bir makon, bir yo'l» tashabbusini qo'llab-quvvatladi va uning a'zo-ta'sislaridan biriga aylandi. Mamlakatimiz uchun dengiz portlariga chiqish juda muhim. Shu bois, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Afrika bozorlariga chiqish imkonini beruvchi xalqaro transport yo'laklarini tashkil etish bo'yicha loyihalarda faol ishtirok etmoqda.

Jumladan, 2016-yilda Farg'ona vodiysini O'zbekistonning boshqa hududlari bilan bog'lovchi "Angren-Pop" elektrlashtirilgan temir yo'li barpo etildi. Mazkur liniya Xitoygacha bo'lgan masofani 270 kilometr qisqartirish imkonini berdi. Bundan tashqari, Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'lining qurilishi mamlakatlarimiz uchun ulkan iqtisodiy imkoniyatlar ochadi. Natijada mamlakatimizdan Xitoy va O'rta Sharqqa to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyati yuzaga keladi, yuk tashish vaqti 5-6 sutkaga qisqaradi. Yangi avtomobil yo'llari, jumladan, «Andijon-O'sh-Irkishtom-Qoshg'ar» qatnovini ochish mintaqa davlatlari o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarni kengaytirib, ularning iqtisodiy taraqqiyotiga qo'shimcha sur'at bag'ishlaydi.

Adabiyotlar

1. 2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси (Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611-сон Фармонида 1-илова).
2. География туризма: учебник / В.И.Кружалин, Н.С.Мироненко, Н.В.Зигерн-Корн, Н.В.Шабалина. - М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. -54-74 с.
3. Шамуратова Н. Ўзбекистонда экологик туризм ва унинг табиий географик жиҳатлари // Геогр. фан. ном. дис. афторефер.-Тошкент: 2011. -6-8 б.

UDK: 551.4(575.141)

SAMARQAND VILOYATINING AGROTOPONIMLARI VA ULARNING AHAMIYATI

Valieva Sh.I.

*Samarqand davlat universiteti*E-mail: v-shaxnoza2018@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada, qishloq xo'jaligi tarmoqlari bilan bog'liq joy nomlari o'rganilgan. Unda agrotoponimlar Samarqand viloyati hududlari misolida tahlil qilingan. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini yanada rivojlantirishda va ularni to'g'ri tashkil etishda agrotoponimlarni muhim ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlari: qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik, toponim, agrotoponim, chorvachilik, pillachilik, tabiiy geografik sharoit.

Агротопонимы Самаркандской области и их значение

Аннотация. В статье изучены местные наименования связанные с отраслями сельского хозяйства. Эти агротопонимы анализированы на примере территории Самаркандской области. Подчеркивается важность агротопонима в дальнейшем развитии и правильной организации аграрного сектора.

Ключевые слова: сельское хозяйство, садоводство, топоним, агрооним, агротопоним, животноводство, шелководство, физико – географические условия.

Agrotoponyms of Samarkand region and their importance

Abstract. In the article the local name associated with the branches of agriculture is studied. These agrotoponyms were studied and analyzed on the example of the territory of the Samarkand region. The importance of an agrotoponym in the further development and proper organization of the agricultural sector is emphasized.

Keywords: agriculture, gardening, toponym, agronym, agrotoponym, animal husbandry, sericulture, physical and geographical conditions.

Kirish

Agroonim – yunoncha “agros” dala, ekinzor, shudgor degan ma'nolarni bildirib, bog', xiyobon, tomorqa, dala va boshqalar nomidir [1]. Agrotoponimlar bu qishloq xo'jaligi tarmoqlari bilan bog'liq bo'lgan joy nomlari bo'lib, bugungi kunda ularni o'rganish va tadqiq qilish mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tarmoqlarini ixtisoslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligi esa, yurtimiz iqtisodiyotini rivojlanishidagi eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanib, qadimdan shakllangan tarmoqlardan biridir. Shuning uchun, yurtimizda qishloq xo'jaligi tarmoqlari dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq joy nomlar shakllangan.

Ishning maqsad va vazifasi

Biz ushbu maqolada agrotoponimlarni o'rganishda Samarqand viloyatining qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan tuman qishloqlarini tadqiqot obyekti qilib tanladik. Bunda viloyatda qishloq xo'jaligi dehqonchilik, bog'dorchilik va chorvachilik nomlariga oid bo'lgan geografik joylarni aniqladik va joy nomini kelib chiqish sabablarini tahlil qildik.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi

Qishloq xo'jaligi mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishidagi eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, unda etishtirilayotgan mahsulotlar yurtimiz aholisini faqatgina oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlabgina qolmasdan, jahon bozoriga chiqarishda ham muhim ahamiyatga egadir.

Ayni paytda o'lkamizni tabiiy sharoitidan kelib chiqadigan bo'lsak, Samarqand viloyati tabiiy geografik jihatdan qulay geografik o'rinda joylashgan bo'lib, qadimdan qishloq xo'jaligining dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari bu yerda keng rivoj topgan hudud hisoblanadi. Shuning uchun bu hududda qishloq xo'jaligining ko'plab tarmoqlari shakllangan. Xususan, dehqonchilikda paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, uzumchilik, polizchilik, sabzavotchilik va boshqalar aytishimiz mumkin. Qishloq xo'jaligi geografiyasida chorvachilik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyatda chorvachilikning qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, parrandachilik, asalarichilik,

baliqchilik tarmoqlari rivojlangan. E'tiborga molik tarafi shundan iboratki, yuqorida tilga olingan tarmoqlarning xududiy ixtisoslashuvi bilan bog'liq holda geografik joy nomlari ham shakllangan. Jumladan, dehqonchilikning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan paxtachilik, Samarqand viloyatining ko'pgina tumanlarida jumladan, Pastdarg'om, Payariq, Ishtixon, Oqdaryo, Paxtachi, Nurobod, Narpay tumanlarida yetishtiriladi. Bu tarmoqqa mos holda tuman, qishloqlarning nomlari ham vujudga kelgan. Masalan;

Paxtakor - Payariq tumanidagi qishloq. Paxta ekish bilan shug'ullanuvchi, paxta yetishtiruvchi dehqonlar istiqomat qiladigan manzilgoh.

Paxtaobod - Oqdaryo tumanidagi qishloq. Bu qishloq tumanning shimoli-g'arbida joylashgan bo'lib, bo'z yerlarning o'zlashtirilishi natijasida bunyod etilgan, loyihalangan ko'chalar, xo'jaliklarning aholisi uchun qurilgan turar joylar majmui mavjud bo'lib, ular zamonaviy turar joylardan iborat [2].

Umuman, Samarqand viloyatida dehqonchilik tarmog'i nomlari bilan bog'liq bo'lgan joy nomlarga quyidagilarni aytishimiz mumkin. Lalmikor - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Bu qishloq tumanning shimoliy hududida joylashgan. Sug'orish inshootlaridan, ya'ni ariq, kanal va boshqalardan foydalanmasdan, yerdagi mavjud tabiiy nam va yog'inlar suvi yordamida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari va usuli hisoblanadi.

Dehqonobod - Jomboy tumanining shimoliy qismi, Payariq tumanining shimoli-sharqiy qismida, Tayloq tumanining shimolida, Zarafshon daryosining chap qirg'og'ida, shuningdek Narpay, Ishtixon tumanlaridagi qishloq nomidir. Dehqonobod so'zi fors-tojik tilidan olingan bo'lib, dehqonlar o'zlashtirib obod qilgan joy, qishloq demakdir.

G'allakor - Nurobod tumanining janubiy qismida joylashgan qishloq bo'lib, g'allakor-g'alla ekinlari yetishtirish bilan shug'ullanuvchi kishilar yashaydigan aholi manzilgohlari hisoblanadi [2].

Viloyatimizda chorvachilik tarmoqlariga ixtisoslashgan hududlar ham mavjud bo'lib, chorvachilik sohasiga bog'liq toponimlar ham shakllangan. Bunday joy nomlarini biz fanda toponimlarning paydo bo'lishiga ko'ra hayvonlarning nomi bilan bog'liq joy nomlari turiga, ya'ni zoonimlarga kiritamiz. Zootoponimlarni tahlil qilish bilan biz ayrim hayvonlarning turini tarqalgan hududlarini ham aniqlashimiz mumkin.

Bunday zootoponimlar asosan Qo'shrabot, Payariq, Kattaqo'rg'on, Jomboy, Nurobod, Pastdarg'om va boshqa tumanlarda uchratishimiz mumkin. Jumladan, **Baliqchiota** - Qo'shrabot tumanida, Baliqchi esa Payariq tumanining shimoli - g'arbiy qismida, Qorasuv suv omborining yonida joylashgan qishloqlar bo'lib, bularning nomini kelib chiqishi baliq ovlovchilar yoki baliq yetishtiruvchilar degan ma'noni anglatadi. Ayrim manba'larda esa baliqchi – o'zbek turkman va boshqirdlarning tarkibidagi urug'laridan birining nomi, yana bir ma'nosi kishining kasbkoriga nisbatan qo'yilgan bo'lishi ham mumkin. Baliqchi – qadimgi turkiy so'zlardan bo'lib, u shahar ma'nosini bildirgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida shahar va eski joy ma'nolarida ishlatilgan [4, 86].

Jilqihaydar - Kattaqurg'on tumanidagi qishloq. Jilqi – yilqi, ya'ni otlar podasi demakdir. Jilqihaydar otlar boqiladigan yaylov, joy ma'nolarida qo'llaniladi.

Chorvador - Jomboy tumanining shimoli-sharqidagi hamda Pastdarg'om tumanlaridagi qishloq bo'lib, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi kishilar yashaydigan hudud hisoblanadi.

Qo'yboqar - Nurobod tumanining shimoliy qismida joylashgan qishloq. Qo'y bu go'sht, jun olish uchun boqiladigan uy hayvoni. Boqar so'zi esa qaramoq, qarab turmoq ma'nolarini ifodalaydi. Ya'ni qo'y boquvchi ma'nosini bildiradi.

Miroxo'ri – Samarqand shahridagi mavze. Saroy otxonalariga boshchilik qilgan otboqar. Miroxo'ri –otboqarlik bilan shug'ullangan kishilar yashaydigan mavze hisoblanadi [2].

O'lkamizda hozirgi paytda pilla yetishtirish sohasiga ham katta e'tibor berilmoqda. Chunki tabiiy ipak gazlamalariga respublikamizda hattoki chet davlatlarida ham talab kuchaymoqda. Mana shu ipak gazlamalarini ishlab chiqarishda tutzorlar muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyatimizda pilla qurtining ozuqasi hisoblangan tut daraxti nomi bilan bog'liq ko'pgina toponimlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, Tut (Jomboy tumanida), Tutli (Nurobod tumanida), Chortut, Galatut (Pastdarg'om tumanida), Qoratut (Oqdaryo tumanida) va boshqalar. Quyida mazkur qishloq nomlarining ma'nosiga izoh berib o'tamiz.

Chortut - Pastdarg'om tumanidagi qishloq bo'lib, u tumanning sharqiy qismida joylashgan. Qishloq nomining ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, Chortut-fors-tojik tilidan olingan bo'lib, to'rtta tut daraxti o'sgan joydagi qishloq degan ma'noni anglatadi.

Galatut - qishloq, ovul ko'p ma'nolarini, tut esa yuqorida aytilgan o'tganimizdek daraxt navi va uning mevasi ma'nolarini anglatadi. Galatut-tut daraxti ko'p bo'lgan qishloq, ovul.

Qoratut - Oqdaryo tumanining sharqiy qismida joylashgan qishloq bo'lib, Qora - tut mevasining rangi hisoblanadi. Mahalliy xalq bunday tut navini Shotut deb ham ataydi. Shov-sug'd tilida qora ma'nosini bildiradi.

Tutli - Nurobod tumanining janubida joylashgan qishloq nomi. Bu qishloqning ma'nosi ham o'sha hududda tut daraxti o'stirilganligini bildiradi [2].

Bizga ma'lumki, hududimizda qishloq xo'jaligining bog'dorchilik tarmog'i ham keng rivojlangan. Bog'dorchilik bilan bog'liq joy nomlari asosan, viloyatimizning bog'dorchilikka ixtisoslashgan tumanlarida uchraydi. Xususan, uzum, bodom, arjir, olma, jiyda so'zlari ishtirokida tarkib topgan joy nomlarini ko'plab uchratishimiz mumkin. Bog'dorchilik bilan bog'liq joy nomlarini toponimikada fitotoponim – (yunoncha “fitos”- o'simlik)-o'simliklar turi va holatini anglatuvchi toponimlar deb ham o'rganiladi [1]. Fitotoponimlarni o'rganib tahlil qilganimizda esa, bunday nomlar biror bir o'simlik turining miqdorini, ko'pligini, ayrim hollarda kamligini bildirgan [3].

Jumladan, **Anjirli**- Nurobod tumanining janubiy qismidagi qishloq nomi. O'sha hududda tutdoshlar oilasiga mansub subtropik o'simlik anjir o'stirilgani uchun anjirli deb atalgan [2].

Bodomchali - Qo'shrabot tumanidagi qishloq. Bodomchali fors-tojikcha bodom va chol +i qismlaridan iborat. Bodom sermay va laziz mag'izi uchun ekiladigan daraxt. Chol-chuqurlik, botiq joy, o'yik suv o'ygan joy, suvning ko'shilish joyi to'g'on, hovuz, havza. Bodomchali-bodom bor to'g'on yoki suv quyilish joyidagi qishloq ma'nolarini aks ettiradi. Mahalliy xalq tilida bodomchali – bodom yetishtiruvchi kishi yoki bodomzor haqidagi ko'pgina rivoyatlar keltiriladi [2;4].Umuman olganda, Bodomchali qishlog'i Qo'shrabot botig'ida joylashgan.

Bog'bon - Bulung'ur tumanidagi qishloq. Bog'bon – bog' va undagi mevali daraxtlarga, tok va gullarga qarovchi, ularni parvarish qiluvchi mutaxassis kishi.

Olmazor - Bulung'ur tumanining janubi - sharqiy qismida joylashgan qishloq. Olma daraxti ko'p ekiladigan hudud sanaladi.

Jiydali - Nurobod tumanidagi qishloq. Jiyda daraxti ko'p o'sgan joy, jiydazor deb ataladi. Mahalliy aholi uni jiydali qishloq deb ham atashadi.

Mevazor - Oqdaryo tumanidagi qishloq. Mevali daraxtlar o'stirilgan joy. Mevali bog' demakdir.

Mevali - Pastdarg'om tumanidagi qishloq. Bu qishloq joylashuviga ko'ra, tumanning shimoli - g'arbiy qismidadir. Qishloqning nomi olma, o'rik, tut, shaftoli va boshqa mevali daraxtlar o'stirilgan joy ma'nosini anglatadi [2].

Uzumli - Nurobod tumanining g'arbiy qismida joylashgan qishloq. Tog' oldi tekisliklarida uzumning barcha navlari yaxshi hosil beradi va shirin bo'ladi. Shuning uchun viloyatning tog' oldida uzum va uning navlari bilan bog'liq nomlar keng tarqalgan.

Chorbog'tepa - Oqdaryo tumanidagi qishloq bo'lib, tumanning janubiy tomonida joylashgan. Qishloq nomining ma'nosi esa fors-tojik tilidan olingan bo'lib, to'rt tarafi bog' bilan o'ralgan tepalik demakdir.

Xulosa

Umuman, bu kabi agrotoponimlarni mamlakatimizning boshqa viloyatlarida, tumanlarda ham uchratishimiz mumkin. Bunday tadqiqotlarni kelajakda yanada rivojlantirish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini tarixiy kelib chiqishini bilishimizga va shular asosida kelajakda qishloq xo'jaligi tarmoqlarni to'g'ri tashkil etishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Nizomov A., va boshqalar. Toponimika. –T.: Sharq, 2012. -120 b.
2. O'rinboev B. Asrlardek barhayot nomlar. – Samarqand. Zarafshon, 2003.-264 b.
3. G'ulomov P., Mirakmalov M. Toponimika va geografik terminshunoslik. – T.: 2005. -75 b.
4. Onomastika. Ilmiy maqolalar to'plami. – Samarqand. SamDU, 2004. -142 b.

UDK: 55:502

ATROF- MUHITGA QURILISH JARAYONLARINING TA'SIRI.**Eshqobilov Sh.A., Shakarov N.J., Ergashev I.Sh., Nomirov M.N.***Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti*E-mail: Sh1982eshqobilov@mail.ru

Anotasiya: Ushbu ishda qurilish jarayonlarining atrof-muhit va ekotizim tarkibiy qismlariga salbiy ta'siri o'rganilgan hamda chiqindilarning miqdorini kamaytirish, qayta ishlash choralari haqida taklif berilgan.

Kalit so'zlar: urboekologiya, qurilish ekologiyasi vositalari, shaharsozlik, atrof-muhit.

Влияние строительных процессов на окружающую среду

Анотация. В статье изучены негативные действия процессов строительства на окружающую среду и компоненты экосистемы, даны предложения по сокращению отходов и их обработке.

Ключевые слова: городская экология, строительные экологические средства, окружающая среда.

Impact of construction processes on the environment

Abstract. The article studies the negative effects of construction processes on the environment and ecosystem components, and offers suggestions on waste reduction and treatment.

Keywords: urban ecology, building ecological means, environment.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonning barcha viloyatlarida yirik qurilish jarayonlari ketmoqda. Bu esa, o'z navbatida, qurilish maydonlariga olib kirilayotgan qurilish materiallari va undan olib chiqilayotgan qurilish chiqindilari shahar ekologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmaslikni nazorat qilishni, aholi orasida bu borada tushuntirish ishlarini olib borishni talab qiladi. Hamda ishlab chiqarishda ekologik muammolarni hal qilish, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, ekologik xavfsiz qurilish materiallarini ishlab chiqarish asosiy masalalar sirasiga kiradi[2].

Qurilish materiallarini ishlab chiqish tabiiy resurslarni eng ko'p iste'mol qiluvchi soha hisoblanadi. Qurilish materiallarini tayyorlash uchun yiliga 3 mlrd. tonnaga yaqin xomashyo – qum, tuproq, gips, ohaktosh, granit, bazalt kabi cho'kindi jinslar qazib olinadi hamda qayta ishlanadi. U atmosfera va erni ifloslantiruvchi eng asosiy manbalardan hisoblanadi. Atmosfera havosini chang bilan ifloslantirish bo'yicha qurilish materiallari sanoati birinchi o'rinda turadi.

Biroq qurilish materiallari sanoati boshqa sanoat tarmoqlarining chiqindilaridan ham samarali foydalanadi. Hozirgi vaqtda bu tarmoqda har yili boshqa sanoat tarmoqlarida hosil bo'ladigan 300 mln. tonnadan ziyod turli xil chiqindilardan foydalanilmoqda hamda ulardan ko'p miqdorda sement, yumshoq qoplama materiallar, shisha, keramik buyumlar hamda boshqa qurilish materiallari olinmoqda[1].

O'zbekistonda shaharsozlik atrof-muhitni muhofaza qilish, fuqarolarni tabiiy va texnogen holatlardan saqlash hamda aholi salomatligini muhofaza qilish masalalari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. Bu O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksida ham mustahkamlab qo'yilgan. Ma'lumki, qurilishlarning salbiy ta'siri uning barcha bosqichlarida – qurilish materiallarini olishdan tortib tayyor ob'ektlardan foydalanishgacha ro'y berishi mumkin. Qolaversa, dunyo miqyosida tuproq qazish ishlari va qurilish materiallari qoldiqlari ko'rinishidagi qattiq chiqindilar hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Qurilish ishlab chiqarishi ko'plab miqdorda er ostidan ochiq usulda qazib olinadigan tosh, qum, tuproq, ohak, sement va boshqa resurslarni sarf etadiki, bu tuproqqa, o'simlik va hayvonot dunyosiga katta zarar etkazadi. Qurilish materiallari, buyum va detallarini ishlab chiqarish chang, qurum, zararli gazlar ajralib chiqishi bilan bog'liq bo'lib, bu atmosfera havosining ifloslanishiga olib keladi, ayni paytda inson salomatligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yerlarni qazishda qorishmalar komponenti sifatida suvoq va bog'lovchi modda qorishmalarida, texnologik qurilmalarni sovutish tizimida hamda boshqa barcha jarayonlarda suvdan keng foydalaniladi. Ayrim hollarda ishlatib bo'lingan ifloslangan suvlar suv havzalariga oqizib yuboriladi, natijada havzalar ham ifloslanadi. Bundan tashqari, bino va inshootlar qurilishi joylardagi gidrologik rejimning o'zgarishiga turtki bo'ladi. Noqulay sharoitlarda esa grunt qatlamlarining siljishi,

suv arteriyalarining yo'nalishi va tezligi o'zgarishi kuzatilishi mumkin. Bu ayniqsa, cho'kuvchan gruntli hududlarda xavfli tus oladi. Mutaxassislarning hisob-kitobiga ko'ra, dunyo bo'yicha qurilishlar uchun yiliga 50 million kub metr yog'och talab etiladi. Qurilishlar o'simlik dunyosiga hamda erdagi o'simlik qatlamiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi[3]. Ko'p hollarda, hatto loyihalarda ham o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish chora-tadbirlari ko'rilmadan ob'ektlarni rejalashtirish, joylashtirish natijasida nafaqat o'simlik dunyosiga, balki hayvonot dunyosiga ham zarar etkazilmoqda. Boisi, ko'plab qushlar asosan baland daraxtlarda jon saqlaydi. Yana bir muammo tuproqqa bosim o'tkazilishi bilan bog'liqdir. Baland binolar og'irligi oqibatida erning yuqori jinslari siqiladi (50 metrgacha chuqurlikda). Shuningdek, hosildor tuproq qatlamiga ham jiddiy zarar etadi. Qurilish ob'ektlarini loyihalashtirishda mo'ljallanayotgan ob'ektning atrof-muhitda qanday ta'sir etishigina emas balki, uning keyinchalik faoliyat ko'rsatishini va lozim bo'lganda buzilishi ham ko'zda tutilishi darkor. Eng asosiysi, inson bilan atrof-muhitning uzviy bog'liqligini unutmaslik darkor. Tabiat muvozanatini ta'minlash, qurilishlar natijasida atrof tabiiy muhit ifloslanishining oldini olish, flora va faunani saqlab qolish, joylarning barqaror rivojlanishini hisobga olib, tabiat va qurilish ob'ektining o'zaro ta'sirini ekologiyalashtirish usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, urboekologik, me'moriy-ekologik va qurilish ekologiyasi vositalari yordamida yashash joylari bilan tabiiy muhit o'rtasidagi ekologik muvozanatni saqlash maqsadida barqaror loyihalash va qurish, shaharlarni, alohida bino hamda inshootlarni ekologik rekonstruksiyalash, barcha resurslarni tejash, ulardan barqaror foydalanish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan keng foydalanish, chiqindilarni qisqartirish, atrof tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektlarni ekologik-iqtisodiy monitoring yordamida o'z vaqtida aniqlash, tegishli qarorlar qabul qilish qurilish sohasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasidagi eng muhim tadbirlar sirasiga kiradi. Bu o'rinda qurilish ishlab chiqarishining ekologik madaniyatini sezilarli darajada yuksaltirish zarurati yuzaga keladi. Bu albatta, nafaqat quruvchilarga, balki qurilish buyurtmachilariga, loyihachilar va davlat nazorat organlariga ham bog'liq bo'ladi. Rejalashtirish va qurilish loyihalarida atmosfera havosini qurilish hamda transport vositalaridan chiqariladigan zararli chiqarilmalardan muhofazalash tadbirlari, suv havzalari, tuproqni muhofazalash, shovqinni, tebranishlarni va elektromagnit nurlanishlar darajasini kamaytirish choralari, sanitar gigienik sharoitlarni yaxshilash tadbirlari o'z aksini topgan bo'lishi darkor. Bino va inshootlarni buzishda ham tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlari ko'rinishi shart[2].

Qurilishi sanoati korxonalariga xos muhim ekologik muammolaridan yana biri ishlab chiqarish jarayonida ko'p miqdorda chang ajralib chiqishi bilan bog'liq. Bu boradagi ko'rsatkich sement ishlab chiqarish korxonalarida, ayniqsa, yuqori. Ishlab chiqarilayotgan sementning 20 foizga yaqini chang tozalash qurilmalarining yaxshi ishlamasligi tufayli atrof-muhitga chiqarib yuborilmoqda. Bunday chang aylanma pechlardan ajralib chiqayotgan chiqindi gazlar bilan birga tarqaladi. Shu bilan birga, xomashyoni maydalash, quritish va kukunlashda hamda klinkerni sovitishda, omborlardagi yuklash-tushirish ishlarida ham ko'p miqdorda chang ajralib chiqishini kuzatish mumkin. Chang hosil bo'lishini kamaytirish uchun chang hosil qiluvchi materiallarning tushish balandligini kamaytirish, tashilayotgan va sochilayotgan materiallarni namlash ham lozim bo'ladi. Aylanma pechlarga biriktirilgan chang tortgichlar, quritish barabanlari hamda shamollatish qurilmalari yordamida so'rib olingan havo va gazlar chang yutish qurilmalariga yuboriladi.

Hozirda atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va xomashyo resurslaridan samarali foydalanish chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshiriladi. Chiqindisiz texnologiyada tabiiy resurslardan oqilona foydalaniladi va natijada atrof-muhit muhofazasi birmuncha yaxshilanadi. Chiqindisiz texnologik jarayonlarni va ularga asoslangan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish kimyoviy texnologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu muammo aholining iqtisodiy imkoniyatlari va turmush darajasini oshirishda katta ahamiyatga ega. Chiqindisiz ishlab chiqarishda moddiy va energetik oqimlarning yopiq optimal texnologik sxemalari yaratiladi. Chiqindisiz texnologik jarayonlarni yaratish bir necha yo'nalishda olib boriladi. Bunda minimal solishtirma suv iste'molini ta'minlovchi, boshlang'ich xomashyoni zararsiz xomashyoga almashtirish bilan bog'liq texnologik jarayonlar ishlab chiqiladi va uchish xossasiga ega bo'lgan erituvchilar texnologik jarayondan chiqarib yuborishga harakat qilinadi. Shu taxlit energotexnologik sxemalarni yaratish va oqava suvlarni tozalashning yuqori samarali usullarini joriy etish, chiqindilarni minimal darajaga keltirish imkonini beradi[1].

Bunday ishlab chiqarish jarayonlarida xomashyo va energiyadan maksimal darajada to'liq foydalanish, oraliq mahsulotlar va chiqindilarni ushlab qolish va zararsizlantirish, texnologik jihozlarni takomillashtirish va moddiy oqimlarni qaytadan ishlab chiqarishga qaytarish uchun mahalliy tozalash usullaridan foydalanish imkoni tug'iladi.

Bu borada tabiiy xomashyo resurslari tarkibidan foydali mahsulotlarni maksimal darajada to'liq ajratib olish uchun ularga ishlov berishning kompleks sxemalarini ishlab chiqish zarur bo'ladi. Atrof-muhit mutaxassisleri fikriga ko'ra agar sanoat rivojlanishiga yondashadigan bo'lsak, atrof-muhitga qo'l tegmasdan bo'lmaydi. Ammo atrof-muhitga bog'liq choralarni ko'rib, uning ifloslanishi darajasini kamaytirish mumkin. Atrof-muhit ifloslanishi oldini olishi uchun munosib texnologiyalarni ishga solib, bugungi kun va kelajak avlodga taalluqli tabiiy manbalarni saqlash mumkin. Mutaxassislar fikriga ko'ra ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga qo'llangan chora-tadbirlar atrof-muhit masalasini ham qamrab olgan bo'lishi lozim.

Xulosa qilib ta'kidlash zarurki, zamonaviy qurilish texnogenezi tabiiy majmualar va ekotizimlarda sodir bo'ladigan jarayonlarga, biosferaning barcha tarkibiy qismlari: atmosfera, gidrosfera, litosfera va biotiklar dunyosiga nihoyatda jiddiy ravishda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Michael Begon, Colin R. Townsend, John I. Harper (2006) Ecology From Individuals to Ecosystems. USA - 4th ed. p. 759.
2. Sattorov Z.M. Qurilish ekologiyasi. –T.: 2017. – 364 b.
3. Eshqobilov Sh.A. Ekologiya. Multimediyali elektron darslik. – Samarqand: SamDAQI nashri, 2015.

УДК. 631.879.42:628.477.3(473.3)

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОРГАНОМИНЕРАЛЬНЫХ ОТХОДОВ ПРИ ПРИГОТОВЛЕНИИ КОМПОСТОВ

Холикулов Ш.Т., Ортиков Т.К., Пардаев С.Б.

Самаркандский государственный университет

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы приготовления компостов из навоза крупного рогатого скота, городских твердо-бытовых отходов (ТБО), соломы зерновых культур и ила пресных вод в разных их соотношениях. Представлены химические и агрохимические свойства органических отходов, определены параметры соотношения компонентов, разработана технология приготовления компостов из этих отходов.

Ключевые слова: навоз, твердые бытовые отходы, солома, ил, компост.

Kompost tayyorlashda organomineral chiqindilardan foydalanish

Annotatsiya. Ushbu maqolada yirik shoxli qoramollar go'ngi, shahar qattiq maishiy chiqindilari, kuzgi bug'doy somoni, va chuchuk suv havzasi loyqalaridan turli xil nisbatlarda kompost tayyorlash masalalari o'rganilgan. Organik chiqindilarning kimyoviy, agrokimyoviy tarkiblari, komponentlarning mos keluvchi nisbatlari aniqlangan va ushbu chiqindilardan kompost tayyorlash texnologiyasi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: go'ng, shahar qattiq maishiy chiqindisi, somon, loyqa, kompost

The use of organomineral wastes when preparing compost

Annotation. The article is devoted to the preparation of composts from cattle manure, municipal solid waste (MSW), straw of winter wheat crops and silt of freshwaters in their various proportions. The chemical and agrochemical properties of organic wastes are presented, the parameters of the ratio of components are determined, a technology for preparing composts from these wastes is developed.

Keywords: cattle manure, municipal solid waste, straw, silt, compost.

Введение

Основным показателем плодородия почв является содержание органического вещества - гумуса. Интенсификация земледелия и недостаточное внесение в почву органического

вещества приводит к излишней минерализации гумуса, основного носителя плодородия. К примеру, за последние 3-5 десятилетий содержание гумуса в сероземной почве уменьшилось на 30-50% и более [1,2,3].

Оптимизация плодородия и улучшения агрохимического свойства почв, в настоящее время, имеет большое значение, так как содержание гумуса и питательных веществ из года в год уменьшается. В связи с этим возникает необходимость регулирования гумусного баланса почв. Одним из главных средств регулирования этого баланса – широкое применение органических удобрений. В связи с этим, применение органических удобрений является актуальным и при их нехватке использование органических отходов путем приготовления из них компостов, способствует решению проблемы снижения содержания гумуса и плодородия, оптимизации свойств и режимов почв.

Для решения этой проблемы надо увеличить запас органического удобрения путем приготовления компостов из различных органических отходов. Источником (органических удобрений) могут быть городские твердые отходы. В настоящее время, в городах Узбекистана накапливается огромное количество твердых бытовых отходов, которые накапливаются более 14 млн. т/год, из них только около 10% подвергается утилизации, а это составляет очень малую часть. Поэтому, их полная утилизация является экологической необходимостью.

Массовая доля органического углерода в твердых бытовых отходах (ТБО) составляет около 33% в пересчете на сухое вещество. В настоящее время в мире образуется 550–660 млн. т ТБО в год и в общемировом масштабе переработке (сжиганию, компостированию, сепарации) подвергается только 10% ежегодно образующихся отходов, получаем, что на свалках ежегодно хранится 495–594 млн. т ТБО. Следовательно, при средней влажности ТБО 50%, в настоящее время на свалки поступает от 82 до 98 млн. т органического углерода ежегодно углерод на свалках составляет до 0,28% от биопродукции биосферы [4].

Использование переработанных ТБО для повышения плодородия почв можно рассматривать как один из путей возврата органического углерода в биологический круговорот веществ. В связи с этим, большое значение имеет утилизация органических твердых бытовых отходов городов и обеспечение сельского хозяйства органическими удобрениями.

Многочисленными исследованиями установлено, что компостирование можно рассматривать как один из основных приемов повышения качества и безопасности различных отходов [5,6]. Компостирование твердых бытовых отходов и применение их с одной стороны улучшает агрохимические свойства почвы, а с другой стороны их вовлекает в биологический круговорот питательных веществ, а также это является альтернативным методом обеспечения сельскохозяйственных культур питательными веществами [7,8,9].

Результаты исследования многих авторов показывают, что компостирование органических отходов и навоза являются ценным и эффективным процессом, а полученные при этом компосты лучше, чем не компостированные отходы [10,11,12,13].

Компостирование отходов сократили объем, массу, вектор притяжения, содержание патогенов и семян сорняков, и их жизнеспособность, чем некомпостированные отходы. Эти преимущества значительно повышают ценность компоста как органических удобрений. Компостирование органических отходов позволяет разлагать органические материалы в более компактную форму для управления [14,15].

Компостирование органических отходов повышают урожайности сельскохозяйственных культур по сравнению с не компостированными материалами за счет улучшения физических, химических и биологических свойств почвы и снижения минерализации органического вещества [16].

Установлено, что при компостировании навоза крупного рогатого скота с твердыми бытовыми отходами получают органоминеральные удобрения, которые способствуют обогащению почвы не только элементами питания, но и микрофлорой, стабилизируют биологическую активность почвы, улучшают ее агрофизические и агрохимические свойства [8,17,18].

Компосты из источника, разделенных системой сбора органических отходов, как правило, содержат органического вещества между 25 и 40% в пересчете на сухое вещество. Повышение содержания органического вещества в почве в результате применения компостов

сообщалось многими авторами [14,19,20]. Дополнительное применение 5-10 т компоста, равную 1.5-3 т органического вещества и покрывает баланс годового спада гумуса в пахотной системе земледелия. Долгосрочное многократное использование компоста увеличивает в почве содержание органического углерода [21].

Вопрос рационального использования растительных остатков после уборки урожая сельскохозяйственных культур также является актуальным в сельском хозяйстве. Мировое производство риса и пшеницы генерирует около 730 и 530 млн тонн соломы в год, соответственно, которые распространяются по всему миру [22].

Растительные остатки содержат значительное количество питательных веществ, что позволяет эффективно их использовать в качестве удобрения и в процессе компостирования. Например, по результатам исследований Белгородского государственного национального исследовательского университета выявлено, что солома является значительным резервом повышения количества органического вещества в почве. При урожае зерновых 50 ц/га на поле остается около 60 центнеров соломы, что равноценно 30 т навоза. В среднем 1 т соломы содержит 5 кг азота, 2,5 кг фосфорного ангидрида, 8 кг окиси калия, 360-400 кг углерода в форме различных органических соединений. При внесении соломы наблюдается улучшение водопрочности почвенной структуры, физико-химических свойств почвы, увеличение продуктивной влаги и снижение потерь азота, что в целом оптимизирует условия питания растений [23].

Компостирование твердых бытовых отходов может потенциально способствовать восстановлению органического вещества в почве, снижению использования минеральных удобрений и торфа в питательной среде, уменьшить необходимость использования пестицидов, улучшить структуру почвы, уменьшает эрозию и улучшить влагоудерживающую способность почвы [24,25,26].

Несмотря на эффективность применения компостов из различных отходов в различных регионах, в условиях Узбекистана практически не проводились исследования по изучению возможности использования этих отходов, с огромным запасом органического вещества, путем приготовления компостов в качестве удобрения, особенно на почвах с низким содержанием гумуса.

Анализ отечественных и зарубежных исследований показывает, что из органических отходов можно получить ценное органическое удобрение, которое при использовании в сельскохозяйственном производстве улучшает свойства и режимы почвы, снижает эрозию, увеличивает урожайность сельскохозяйственных культур и повышает его качество [27,28,29].

Но, без научно обоснованного изучения невозможно применение городских отходов в виде как удобрения. Так как, в их составе имеются вещества, которые отрицательно влияют на окружающую среду и плодородие почвы. Поэтому надо, сначала изучить способы предварительной утилизации отходов и их влияние на экологическое состояние и плодородие почвы.

С этой целью изучали агрохимические свойства этих органоминеральных отходов и определяли возможность приготовления из них компостов.

Методика

Для изучения возможности приготовления компостов использовали следующие виды отходов: навоз крупного рогатого скота, городские твердо-бытовые отходы (ТБО), солома зерновых культур и ил пресных вод в следующих соотношениях:

компост 1- навоз 50%+ТБО 20%+ солома 20% + ил 10%,
компост 2- навоз 40%+ТБО 30%+солома 20% + ил 10%,
компост 3 -навоз 30%+ ТБО 40%+ солома 20% +ил 10%,
компост 1- навоз 20%+ ТБО 50%+ солома 20% + ил 10%,

Компост готовили методом штабеля путем смешивания органоминеральных отходов, таких как твердые бытовые отходы, навоз, солома и ил. При этом ширина штабеля 3 м, высота – 1,5 м, длина зависит от запаса компостируемых материалов и может иметь любую длину. В средней части штабеля для вентиляции воздуха устанавливается полиэтиленовая труба диаметром 50 мм. с дырками. Это служит воздухообменником. Влажность доводится до 60-70%. Штабель сверху укрывается полиэтиленовым или полипропиленовым материалом. Для

хорошего и быстрого компостирования отходов они 1 раз смешиваются. Компост будет готов через 3-4 месяца.

Содержание общего азота определяли методом Кьельдаля, общего фосфора-мокрым озолением в смеси серной и азотной кислоты с последующим определением на ФЭКе (КФК-2), общего калия по этой же методике с последующим определением на пламенном фотометре, pH–потенциометрическим методом, зольность - путем сжигания материала в муфельной печи, тяжелые металлы–атомно-абсорбционным методом [30].

Содержание углерода определялось по Тюрину, соотношение C:N рассчитывалось расчетным путем (деления доли органического углерода в процентах на процентное содержание общего азота).

Результаты исследований

При приготовлении компостов основным параметром является соотношение углерода к азоту (C:N). В составе компоста навоз и ТБО является основными источниками азота, а солома - углерода. Агрохимические свойства компостов, в основном, зависят от физического и химического состава, биологических свойств исходных компонентов компоста.

Необходимо отметить, что путем компостирования можно получить органические удобрения из любых органических отходов. Для этого необходимо моделировать состав компостов с учетом положительных и отрицательных качеств отходов.

Органические отходы значительно отличаются по химическому составу, так содержание сухого вещества колеблется в них в интервале 34,70-93,60%, а pH-7,0-7,4. Ил пресных вод обладает высокой зольностью, а навоз и солома имеют низкий показатель зольности. Содержание углерода составляет в ТБО-14,9%, в соломе- 41,0% и в навозе-12,5 %, ил пресных вод беден углеродом-3,96%. Соотношение C:N в иле пресных вод составляет 30, а в навозе - 22, в ТБО -27, в соломе-82 (график1,2).




График 1. Химический состав отходов и компостов, % к массе

Из содержания элементов питания в компостах видно, что приготовленные компосты значительно обогатились как макро, так и микроэлементами. По содержанию азота и фосфора навоз, ТБО и солома сильно не отличаются. Они содержат существенно больше азота и фосфора, чем ил. В иле содержание азота и фосфора намного меньше, чем в остальных компонентах компоста. Содержание калия, наоборот, в иле больше, чем в других компонентах.





График 2. Агрохимический состав отходов и компостов, % к массе

Изменение соотношения навоза и ТБО при постоянном процентном содержании соломы и ила в компосте сильно не повлияло на содержание сухого и органического вещества, золы, общего углерода, азота, фосфора и калия (график 2). При уменьшении доли навоза и увеличении ТБО в некоторой степени увеличивается содержание сухого и органического вещества, углерода, общего калия, а азот уменьшается. С увеличением доли навоза по сравнению с ТБО в компосте соотношение углерода к азоту снизилось, что говорит о том, что навоз по сравнению с ТБО ускоряет активность процессов, происходящих при компостировании. В компостах содержание сухого и органического вещества, а также углерода было близко по их содержанию в навозе и ТБО. По этим показателям они сильно отличаются от соломы и ила, которые также являются компонентами этих компостов. По содержанию золы приготовленные компосты существенно отличаются от своих компонентов. Во всех компостах содержание золы больше, чем в таких компонентах как навоз, ТБО, солома и меньше, чем в иле. В полученных компостах содержание общего азота и фосфора близко к содержанию этих веществ в навозе, ТБО и соломе и сильно превосходит ил по этим показателям. Содержание калия в компостах больше, чем в компонентах компоста за исключением ила. Соотношение углерода к азоту в компостах находится, в пределах 36,74-40,25, что является лучшим для образования гумуса из их органических веществ в почвах Узбекистана, где очень активно протекают микробиологические процессы, в том числе разложение гумуса и низкое содержание гумуса. С другой стороны эти компосты являются хорошим источником питательных веществ, таких как азота, фосфора и калия. Во всех видах компостов реакция среды слабощелочная, что одинаково с показателем pH почвы.

Для всех компостов, полученных из ТБО, характерно высокое содержание органического вещества, наличие всех элементов, необходимых для питания растений, ростовых веществ и витаминов. Это послужило причиной признания их ценным удобрением [31,32,33,34].

Л.Н.Александрова [35] отмечает, что основными параметрами органических удобрений как гумусообразователей являются содержание сухого вещества, азота, зольность и химический состав органической части.

По содержанию основных элементов питания растений компост из ТБО сравним с традиционными органическими удобрениями. Химический состав навоза варьирует в широких пределах. Количество органического вещества и NPK на 1 т компоста из ТБО – на уровне или выше их количества в 1 т традиционных органических удобрений.



Отходы отличаются и по содержанию микроэлементов, тяжелых металлов и фтора. Тяжелых металлов меньше всего содержится в соломе, а высоким их содержанием отличаются твердо бытовые отходы. В иле пресных вод тяжелых металлов меньше, чем в твердо-бытовых отходах, но больше, чем в соломе и навозе. Если брать навоз за основу, то в твердо-бытовых отходах содержится в 2,95 раза больше хрома, в 3,2 раза цинка, в 1,6 раз свинца, в 1,7 раза марганца и в 4,5 раза кадмия. В иле пресных вод по сравнению с отходами соломы в 1,8 раз больше содержится свинца. Навоз по своему составу близко к отходам (график 3).

Таким образом, из выше изложенного следует, что навоз и солома обогащают компосты органическим веществом и питательными элементами, а ТБО и ил пресных вод могут увеличить содержание в компосте тяжелых металлов. По содержанию тяжелых металлов в

компостах можно заметить, что четыре вида компоста имеют почти одинаковый состав по тяжелым металлам, имея небольшие колебания в зависимости от доли навоза и ТБО в компостах.

Процесс компостирования позволяет снизить содержание хрома в бытовых отходах до 1,8 раза, цинка до 2,3 раза, свинца до 1,6 раза, марганца до 1,6 раза и т.д. содержание тяжелых металлов в компостах очень близко к их Кларку в почве по Виноградову, что считается безопасным для применения как удобрение. Вместе с этим, в компостах по сравнению с навозом повышается содержание микроэлементов, таких как цинк, кобальт, марганец. Содержание меди повышается немного, а молибдена снижается. Следовательно, питательность компостов повышается по сравнению с навозом, что делает их ценным удобрением.

Таким образом, применение компостированных отходов в качестве органических удобрений позволит получению дополнительных резервов питательных веществ для повышения плодородия почвы, а также послужит надежной защитой окружающей среды от загрязнения. Компостирование органических отходов и использование этих компостов в сельском хозяйстве возвращают питательные и органические вещества в почву, которые в противном случае были бы потеряны.

Литература

1. Lal R. Soil and environmental degradation in Central Asia. Lough borough University, UK. 2007.
2. Holikulov Sh.T., Ortikov T.K. [Technological options to enhance humus content and conserve water in soils of the Zarafshan valley, Uzbekistan](#). Taylor & Francis. – London, UK. 2007. pp. 157–167.
3. Холикулов Ш.Т., Ортиков Т.К. Ўзбекистон тупроқшунослари ва агрохимёгарларининг V курултойи материаллари. –Тошкент, 2010. –Б.29-31.
4. Витковская С.Е. Твердые бытовые отходы: антропогенное звено биологического круговорота. СПб:АФИб 2012. -132 с.
5. Onwosi C.O et al. Journal of Environmental Management. Vol.190, 2017,pp.140-157.
6. Meena M.D. et al., Waste Management 84, 2019, 38–53.
7. Ngwira A.R. et al, Agro ecology and Sustainable Food Systems, vol.37, 2013. Pp.859-881.
8. Холикулов Ш.Т. Оптимизация свойств и режимов орошаемых почв сероземного пояса путем внесения компостов при возделывании хлопчатника. –Ташкент: ФАН, 2006.-120 с.
9. Саттаров Ж. Ноанъанавий ўғитлар олиш ва кўллаш бўйича фермерлар учун кўлланма. – Тошкент, 2016.85 б.
10. Insam H., de Bertoldi M. [Waste Management Series, Volume 8](#), 2007, Pages 25-48.
11. Selva J.W. et al. Sustainable Solid Waste Management, ASCE Publication, 2016.
12. Kholikulov Sh.T., Pardaev S.B. Proceedings 6th international solid waste conference. -Kalkutta, India, 2016. 19-21 November. 2016.-P.376.
13. Kholikulov Sh., Pardaev S.B. Proceedings of the 14th International Conference on Precision Agriculture June 24 – June 27, 2018 Montreal, Quebec, Canada.-p 321-322.
14. Epstien E. The science of Composting, Technomic Publishing Company, Lancaster, Pensilvania, USA, 1997
15. Tognetti C. et al, Waste management. Vol 31, 2011. Pp.1146-1152.
16. Ahmad A. et al. Int. J. Agri. Biol., Vol. 8, No. 6, 2006. pp. 841-843.
17. Khater E.G. International Journal waste Resources. Volume 5 (172). Issue 1. 2015. doi:10.4172/2252-5211.1000172.
18. Rehman R.A. et al. J Environ Manag. Vol.223: 2018. Pp.607–613.
19. Hartl, W. Berichtüberdas 6.Alpen landisches Experten forumzum Thema Kompostanwendung in der Land wirtschafter, 16.-17. März 2000, pp.85-86.
20. Eghball, B. Agronomy Journal. vol. 94. 2002. pp.128-135.
21. Guster R. Runder Tisch Kompost – RTK, UBA-BE-147, Wien, 2009.pp.92-104.
22. Binod P et al. Anove review. Bioresource Technology. Vol. 101 (13). 2010.pp.4767-4774.
23. Крисанов Д.П., Петин А.Н. III междунар. науч. эколог. конф., 20-21 марта 2013. – Краснодар, 2013.- С.126-131.
24. Iglesias-Jimenez E., Alvarez C., Biol. Fert.Soils. Vol 16, 1993, pp.313-318.
25. Jakobsen S. Resource Conservation Recycling. Vol.13, 1995, pp.57-71.
26. Wong J.W.C. et al. , <http://dx.doi.org/10.1016/B978-0-444-63664-5.00004-6>

27. Adhikari B. K. et al. Waste Management & Research, 2010, Vol. 28, pp. 1039–1053.
28. Bedada W. Doctoral Thesis. Uppsala, Sweden. 2015. pp.72
29. Perrot J.F., Subiantoro A <https://doi.org/10.3390/su10093114>
30. Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в полевых хлопковых районах, 1963. 163с.
31. Кузменькова А.М. Использование компостов из твердых бытовых отходов.— М.:Россельхозиздат, 1976.-63с.
32. Попов А.В., Васяева З.С., Багрова М.И. Применение удобрений из бытовых отходов. —Л. 1977.- 61с.
33. Цуркан М.А., Архип О.Д., Русу А.П. Городские отходы и способы их утилизации. — Кишинев: Штиинца, 1989. — 135 с.
34. Кидин В.В. Органические удобрения —М.РГАУ-МСХА.2012. 158 с.
35. Александрова Л.Н. Органического вещества почвы и процессы его трансформации. —Л.: Наука. 1980. -287 с.

UDK: 502(575.141)

**KATTAQO‘RG‘ON SHAHRI VA UNING ATROFI MAISHIY CHIQINDILARINING
ATROF-MUHITGA TA‘SIRINI BAHOLASH VA QAYTA ISHLASH MUAMMOLARI**

Izzatullayev Z.I., Shodmonov F.A.

Samarqand davlat universiteti

E-mail: zizzat@yandex.ru

Annotatsiya. Maqolada Kattaqo‘rg‘on shahri va uning atrofi maishiy chiqindilari, ularning turlari, qayta ishlash, atrof-muhit va insonga salbiy ta‘siri tahlil qilingan. Ekologik muhitni yaxshilash bo‘yicha takliflar berilgan. Kattaqo‘rg‘on shahri va uning atrofida yildan yilga maishiy chiqindilarning miqdori oshib borganligi va sabablari tahlil qilingan, qayta ishlash darajasini oshirish hamda chiqindilarni maxsus turli paketlarga solib saralash va tadbirkorlarga yetkazib berish taklif etilgan. Chiqindilar hozirgi kundagi ekologik muammo ekanligi Kattaqo‘rg‘on shahri misolida keltirilgan. Maishiy chiqindilarni saqlash, utilizatsiya qilish va qayta ikkilamchi mahsulot sifatida ishlatish haqida ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, jadvallar asosida ifodalangan. Chiqindilar bilan bog‘liq muammolarni hal etishda keng jamoatchilikning, xususan, mahalla aholisining hissasi kattaligi keltirilib, ularni bartaraf etish haqidagi tegishli tavsiya va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Kattaqo‘rg‘on shahri va atrofi, chiqindi turlari, qayta ishlash hajmi, atrof-muhit, ifloslanish.

**Проблемы оценки и обработки бытовых отходов и их воздействие на окружающую
среду в городе Каттакурган и его пригородов**

Аннотация. В статье анализируются данные по видовому составу, объему, обработке и негативному влиянию бытовых отходов г.Каттакургана и его окрестностей, на окружающую среду и здоровье человека. Предложены рекомендации по улучшению экологической среды. Далее указано, что из года в год в Каттакургане и его окрестностях объем бытовых отходов увеличивается и обсуждаются причины их возрастания. Предложены методы их сортировки и доставка потребителю. Данные по утилизации и переработке бытовых отходов в качестве вторичных продуктов доступны на основе таблиц.

Ключевые слова: Город Каттакурган и его окрестности, виды бытовых отходов и их переработка, окружающая среда, загрязнение.

**Problems of assessment and processing of environmental impacts of Kattakurgan city and its
suburbs**

Abstract. The article analyzes the negative impact of Kattakurgan city and its surroundings on household waste, their types, processing, environment and human life. Suggestions for improving the environment are provided. Kattakurgan and its surroundings have been analyzing the causes and the reasons for increasing the amount of household waste from year to year, increasing the level of recycling and disposing waste into different packages and delivering them to entrepreneurs. The fact that waste is an environmental problem nowadays is in the example of Kattakurgan. Data on

household waste disposal, utilization and recycling as secondary products are available on the basis of tables. In solving the problems associated with waste, the size of the contribution of the general public, in particular the makhallya population, is presented and the relevant conclusions on their elimination are presented.

Keywords: Kattakurgan city and its surroundings, types of waste, recycling capacity, environment, pollution.

Kirish

Hozirgi kunda ham ekologik muammolarning yechimi nihoyatda og'ir qolmoqda. Ular chegara bilmaydi. Muammolarning asosiy qismi odamzotning mehnati faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, insonning xo'jalik faoliyatida dunyoda har yili 30-40 milliard tonnadan ortiq chiqindi biosferaga chiqarilmoqda, bunda maishiy chiqindilarning ham ulushi katta hisoblanadi. Yuqoridagi ko'rsatkich XXI asrda 100 milliard tonnaga yetib, kelajakda yanada oshishi va 2020-yillarga borib 2 marta ko'payishi bashorat qilinmoqda. Yillar davomida to'plangan chiqindilar inson hayoti uchun nihoyatda xavfli moddalarni hosil qilishi tadqiqotlarda to'liq o'z ifodasini topmoqda [3].

Shahar va qishloqlarning aholi yashaydigan joylarida turli-tuman xo'jalik chiqindilarning to'planishi patogen - yuqumli mikroblarning yig'ilishiga olib keladi. Aholi turar joylarini toza tutish uchun chiqindi axlatlarni o'z vaqtida yig'ib olib, chirib ketish va zararsiz holatga keltirish hamda ba'zi bir chiqindilarni, masalan qog'oz, taxta, temir, polietilen idishlar va plyonkalarni, oynalarni qayta ishlashga jo'natish yaxshi samara beradi. Agar axlatlar tezda zararsizlantirilmasa, u tashqi muhitni, ya'ni atmosferani, suvni va tuproqni ifloslantiradi. 2017-2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining IV. "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi". 4.3 paragrafidagi: "Odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarni qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, aholini chiqindini yo'q qilish bo'yicha zamonaviy obyektlar bilan ta'minlash" hamda Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 2- fevralida: "Atrof muhitni muhofaza qilish aholi salomatligini saqlashning muhim omili" degan ma'ruzasida 2017-2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni tubdan yaxshilash yuzasidan kompleks dastur qabul qilinganligi, moliyalashtirish manbalari aniq belgilab berilganligi" ma'ruzasida keltirilgan [1,2]. Yuqorida keltirilganlarni inobatga olsak, maishiy chiqindilarni har tomonlama o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Material va metodlar

Tadqiqotlar uchun Kattaqo'rg'on shahri va Kattaqo'rg'on tumani atrofida chiqindixonalaridan 2017-2018 yillarda jamg'arilgan va bu mavzuga oid [4,5,6,7] materiallarni tahlil qilish asos bo'ldi. Shu maqsadda shahar va tuman sanoat, savdo ob'ektlari maishiy chiqindixonalari, qurilish materiallari axlatxonalari kabilardan yig'ilgan chiqindilar hajmini o'rganish va buning uchun qo'shimcha holda tumandagi yangi chiqindixona "Toza hudud" DUK (davlat unitar korxonasi) ma'lumotlaridan foydalandik.

Natijalar va ularning muhokamasi

Maishiy chiqindilarni saqlash, utilizatsiya qilish va qayta ikkilamchi mahsulot sifatida ishlatish davr talabidir. Ushbularni inobatga olib, biz quyida Kattaqo'rg'on shahri va uning atrofida joylashgan chiqindixonalar xususida ma'lumotni keltiramiz (1-jadval).

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, Kattaqo'rg'on shahrida 2005 yilda 2.0 ming/m² 647.7 ming tonna, Kattaqo'rg'on tumanida 10.0 ming/m² 244.18 ming tonna chiqindi joylashtirilgan, 2017-yil Kattaqo'rg'on atrofi "Toza hudud" DUKda 4.353 ming/m² 4500 tonna, yani tuman atrofida chiqindi miqdori qariyb 2 baravarga yaqin bo'lgan. Chiqindixonalarning foydalanish muddati aksariyat hollarda aniqlanmagan. Faqat Orzu Mahmudov massividagi chiqindixonaning ishlatilish muddati 2035- yil deb belgilangan. Chiqindixonalarni takomillashtirish bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri va tumanida kompostlashni tashkil etish hamda O.Mahmudov massividagi chiqindixonani elektr ta'minoti bilan ta'minlash, atrofni o'rash, mashinalarni yuvish maydonchasini qurish kabilarda belgilangan. Biz quyida 2012-2017 yillarda Kattaqo'rg'on shahri va Kattaqo'rg'on tumanida yig'ilgan qattiq maishiy chiqindilarning hajmi va ularni qayta ishlash muammolarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga keldik (2-jadval). Yillar bo'yicha shahar va tumanda qolgan qattiq maishiy

chiqindilar miqdori 816.28 dan 953.56 ming/m³ gacha oshib borgan va qayta ishlanganlar miqdori esa shaharda 75.6 ming/m³ ga ko'payib, tumanda 45.09 ming/m³ ga kamaygan, ishlanmay qolgan chiqindilar miqdori 891.88 ming/m³ dan to 998.15 ming/m³ gacha oshgan.

1-jadval

Kattaqo'rg'on shahri va Kattaqo'rg'on tumanidagi maishiy chiqindixonalar to'g'risida ma'lumot
(Viloyat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ma'lumoti 2011-2018 yil, qo'shimchalar bilan)

No	Shaharlar va tuman nomi	Chiqindi joylashtirilgan manzil, geografik o'lni	Maydoni ming/m ²	Ishga tushirilgan yili	Hozirgi holati	Joylashtirilgan manzil chiqindilar hajmi (ming t., ming m ³)	Chiqindilardan foydalanish muddati	Chiqindixonani takomillashtirish bo'yicha tavsiyanomalar
1	Kattaqo'rg'on shahri	AO "Tayloq konserva" tozalash	2,0	2005	qoniqarli	647,7	Aniqlan magan	Kompostlash
2	Kattaqo'rg'on tumani	Qurilish materiallari Kombinati-ning karyeri	10,0	2005	qoniqarli	244,18	Aniqlan magan	Kompostlash
4	Kattaqo'rg'on atrofi "Toza hudud" DUK *	Orzu Mahmudov Massivi, Jarboshi qishlog'i	4,35	2018	qoniqarli	450,0	Aniqlan magan	Elektr ta'minoti bilan ta'minlash, atrofini o'rash, mashinalarni yuvish maydonchasini qurish

***Ko'rsatma.** Bu ma'lumotlar 2018 yil "Toza hudud" DUK Kattaqo'rg'on tuman filialidan olingan.

Buning sababi turlicha: o'z vaqtida maishiy chiqindilarni guruhlariga ajratilmaslik va qayta ishlash muassasalariga yetkazib berilmaslik, avto ulovlarning kamligi va hokazolardir. Biz chiqindilarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rgandik: iste'mol chiqindilari, qog'oz, shox-shabba(o'tin), oyna, plastik, teri va rezina, ko'cha supurindilari va boshqalar (3-jadval)ni tahlil qilganda quyidagi natijalar olindi: Kattaqo'rg'on shahrida bu ko'rsatgich – 83.76; 41.23; 106.9; 61.1 va 194.1 % gacha bo'lgan, Kattaqo'rg'on tumanida esa plastic chiqindilar 87.8; tosh va qum hamda boshqa chiqindilar ko'p bo'lgan va u 279%ni tashkil etgan. Shu jumladan, o'rtacha 1 yillik utilizatsiya qilinadigan MCHJ(maishiy chiqindilar jamg'armasi) Kattaqo'rg'on shahrida 21.81 va Kattaqo'rg'on tumanida 3.13 ming tonnani tashkil etgan.

Xullas, maishiy chiqindilar muammosi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Xususan, Kattaqo'rg'on shahri va tumanining sanitariya holatini yaxshilash, maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish, chiqinixonalarni zararlantirish jiddiy muammo hisoblanadi.

Ushbu hududda ham aholi sonining oshishi bilan maishiy xizmat obyektlari - xususiy restoran, kafe va oshxonalar sonining oshishi natijasida maishiy chiqindilarning ham miqdori, turlari ko'payib bormoqda. Natijada shahar va tumanda chiqindilar bilan bog'liq muammolar ortmoqda. Chiqindilar tarkibida shisha, metal va tekstil kabi materiallar kamayib, qog'oz va polietilening ulushi ortib bormoqda. Aholi turmush va iste'mol tarzining oshishi sababli, chiqindilarning eng ko'p qismi organik oziq-ovqat hamda o'simlik chiqindilarining xom ashyo manbai ekanligini ko'rsatib turibdi. Ularni qayta ishlash yo'li bilan samarali maqsadga erishish mumkin. Bunga shaharda polietilen baklashkalardan, plastmassa qoldiqlaridan, qog'oz to'plamlaridan tadbirkorlar turli hajmdagi rezina shlanglari, hojatxona qog'ozlari va hokazolarni ishlab chiqarishni tashkil etish lozim.

2- jadval

Kattaqo'rg'on shahri va Kattaqo'rg'on tumani bo'yicha qattiq maishiy chiqindilar hajmi to'g'risida ma'lumot (Viloyat ekologiy va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 2012 va 2017yil bizning ma'lumot).

№	Shahar va tuman	Yil bo'yicha qolgan qattiq maishiy chiqindilar miqdori (ming/m ³)	Jami qayta ishlangan qattiq maishiy chiqindilar miqdori (ming/m ³)	Yil davomida ishlanmay qolgan maishiy chiqindilar miqdori (ming/m ³)	Olingan ma'lumotlar manbai
1	Kattaqo'rg'on shahri	<u>581.6</u> 702.6	<u>66.1</u> 40.13	<u>647.7</u> 742.73	shahar komunal foydalanish bo'lim Shahar sanitar tozalash bo'limi
2	Kattaqo'rg'on	<u>234.68</u> 250.69	<u>9.5</u> 4.96	<u>244.18</u> 255.42	Tuman komunal foydalanish bo'limi
3	Jami shahar va tuman	<u>816.28</u> 953.56	<u>75.6</u> 45.09	<u>891.88</u> 998.15	

Eslatma: bu yerda suratda 2012-, maxrajda 2014- yilgi ma'lumot.

3-jadval

Kattaqo'rg'on shahri va Kattaqo'rg'on tumanida hosil bo'lgan maishiy chiqindilarning 2017-yilda qayta ishlanganligi to'g'risida ma'lumot (% hisobida).

Shahar va tuman nomi	O'rtacha 1 yilda utilizatsiya qilinadigan MTQ hajmi(ming/t)	Iste'mol chiqindilari	Qog'oz chiqindilari	Shox-shabba chiqindilari	Plastik chiqindilar	Teri va rezina chiqindisi	Oyna chiqindisi	Tosh, qum, ko'cha supurindisi	Boshqa chiqindilar
Kattaqo'rg'on shahri	21.81	83.76	41.23	106.9	61.1	17.5	80.7	194.7	311.9
Kattaqo'rg'on tumani	3.13	12.04	5.93	15.4	87.8	2.5	11.6	279	448.3

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bu borada Kattaqo'rg'on shahri ham yetarlicha ishlar olib borilmayotir. Chiqindilarni saralab, turli rangli paketlarga: havorangga – polietilen chiqindi, oqga – qog'oz chiqindi, sariqqa – oziq-ovqat chiqindilari, qoraga – turli tuman chiqindilarni solib, lozim joylarga, xom ashyo sifatida yetkazib berishni taklif etamiz.

Chiqindilar bilan bog'liq muammolarni hal etishda keng jamoatchilikning, xususan, mahalla aholisining xissasi katta bo'lishi lozim. Aholi o'z hovlisida maishiy chiqindilarni ko'mib, kompost tayyorlashda ishlatish mumkin. Shu yo'l bilan xonadonda chiqindi miqdori 50-60 % ga kamayadi. Chiqindilarni yosh bolalarga chiqarib tashlashga undamaslik kerak. Aholini chiqindilarni maxsus xaltalarga joylab, ularni tashuvchilarga tayyorlab qo'yish va o'z vaqtida maxsus grafik asosida olib ketishga o'rgatish lozim.

Xullas, chiqindilardan unumli foydalanish atrof muhitni toza saqlash inson salomatligining garovidir.

Yuqoridagi keltirilganlar natijasidan kelib chiqib, quyidagi xulosalar olindi:

1. Kattaqo'rg'on shahrida chiqindilar asosan AO "Tayloq konserva" tozalash maydonida 20 gektarda to'plangan va uning hajmi 647,7 ming tonnani tashkil etgan. Kattaqo'rg'on tumani bo'yicha

10 gektarda qurilish materiallari kombinati kareri hududida yig'ilgan va uning hajmi 244,18 ming tonnaga tengdir. 2014 yildan boshlab chiqindilar Orzu Mahmudov massivi Jarboshi qishlog'i atrofida yig'ilib, uning hajmi 4353,15 m³ ni tashkil etgan, uning miqdori 4500 tonnaga teng.

2. Maishiy chiqindilar miqdori yildan yilga oshib uning miqdori Kattaqo'rg'on shahrida 702,73 ming m³ ga va tumanda 250,96 ming m³ dan, 255,42 ming m³ ga yetgan. Buning sababi o'z vaqtida chiqindilarni saralamaslik va qayta ishlash muassasalariga yetkazib bermaslik, chiqindi tashuvchi avtoulavlarning kamligidir.

3. Shahar va tumanda o'rtacha bir yillik utilizatsiya qilish oshgan va u 3,13 ming tonnaga etgan. Biroq chiqindilarni qayta ishlash yetarli darajada olib borilmayotir.

4. Maishiy chiqindilarni yig'ishni o'z joyida turli paketlarga yig'ishni tashkil etish, ularni tadbirkorlarga yetkazib berish.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Atrof-muhitni muhofaza qilish-aholi salomatligini saqlashning muhim omili. 2018. 2 fevral. Ekologik holatni yaxshilash va atrof-muhitni muhofaza qilish eng dolzarb vazifalarni belgilab olishga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasi.
2. Harakatlar strategiyasi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi. –Toshkent, 2017. -16 b.
3. Izzatullaev Z., Mexkamova U. Respublika ilmiy-amaliy konf.materiallari.2004 y. 20-21 noyabr.1-qism. –Samarqand, 2014. –B.218-220.
4. 4.Izzatullaev Z., Odilova M. Ekologik inqirozning oldini olaylik. –Samarqand: Zarafshon, 2001, 4 sentyabr.
5. Национальный доклад. О состоянии окружающей природной среды использование природных ресурсов в Республике Узбекистан (2008-2011). –Т.: Chinor ENK, 2011.
6. O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risidagi" qonuni o'zgartirishlar bilan. 09.03.2011.
7. Mexkamova U. Magistrnlarning XV ilmiy konferensiyasi materiallari (tabiiy fanlar). – Samarqand: SamDU, 2015. –B.123-125.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektronshaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:**UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiya, ismi, otasining ismi –o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

**MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA
QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:**

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'lchami - 11 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi"dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas'ul kotib
Musahhih
Texnik muharrir

X.Sh.Tashpulatov
M.M. Ro'ziboyev
S. D. Aronbayev

Muharrirlar:

E. U. Arziqulov	- f.-m.f.n., dotsent
O. R. Raxmatullayev	- geogr.f.n., dotsent
B. S. G'oyibov	- t.f.n., dotsent
I.Sulaymonov	- f.f.n., dotsent
A.I.Inatov	

Mas'ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev	- k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov	- f.-m.f.n.
R.Toshquvatova	- fals.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 31.10.2019 yilda ruxsat etildi. Qog'ozo'lchami A-4. Nashriyot hisobtabog'i 10,00.
Buyurtma raqami 01/9 Adadi 500 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitetxiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.